



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI

XAYROV RASIM ZALIMXON O'G'LI

# TA SVIRIY SAN'AT TARIXI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**XAYROV RASIM ZALIMXON O'G'LI**

**TASVIRIY SAN'AT TARIXI**

Ushbu o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligi tassarufidagi Muvofiqlashtiruvchi kengashning \_\_\_\_\_ 2019 yilda o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan.

Guliston davlat universiteti ilmiy kengashining 2019 yil sentyabr, №1 sonli bayonnomasi bilan chop etishga tavsiya etildi.

Ushbu o'quv qo'llanma badiiy grafika va san'atshunoslik fakultetlari talabalari uchun hamda kadrlarini pedagogik qayta tayyorlash fakultetlari tinglovchilari uchun tavsiya etiladi.

Tuzuvchi: Gul DU San'atshunoslik fakulteti "Tasviriy san'at va muxandislik grafikasi" o'qituvchisi R.Z.Xayrov

Mas'ul muharrir: Gul DU San'atshunoslik fakulteti "Tasviriy san'at va muxandislik grafikasi" kafedrasи mudiri O.Inoyatov

Taqrizchilar: Gul DU San`atshunoslik fakulteti dekani A.Bobojonov  
O'zbekiston Badiiy Akademiyasi tasarufidagi SVISMI direktori B.Bobonazarov

## **Annotatsiya**

Ushbu qo`llanma ikki qismidan iborat bo`lib, birinchi qismida san'at tarixiga muqaddima, ibtidoiy jamoa davri san'ati. Qadimgi Sharqdagi quldorlik davlatlari san'ati, Qadimgi Gretsiya, Qadimgi Italiya va O`rta asrlar san'atining o`ziga xos xususiyatlari ifodalangan.

Qo`llanmaning ikkinchi qismida XVII – XIX asr boshlaridagi chet el va Rus san'ati, xamda XIX-XX asr jaxon san'ati, XX asr boshlaridagi va Mustaqillik yillarida O`zbekiston san'ti bo`yicha nazariy va amaliy bilimlarga boy tajriba materiallari asosida yaratilgan.

Qo`llanma universitet va pedagogika institutlarining talabalariga mo`ljallangan.

## **Аннотация**

Данное учебное пособие состоит из двух частей. В первой части излагается введение историю искусств, искусство первобытной общины. Особенности искусства рабовладельческих стран Древнего Востока, Древней Греции, Италии и Средних веков.

Во второй части руководства изучается содержание зарубежного и русского искусства XVII – XIX вв., мировая история искусств XIX-XX веков, а также история искусств начало XX века и Независимого Узбекистана

Учебное пособие предназначен для студентов педагогических институтов и университетов.

## **Annotation**

This guide consists of two parts, the first in the part of the history of art, the primitive community of preface art. The art of the states of slavery in the Ancient East, Ancient Greece and Italian Art, Medieval specific features of his art are expressed.

In the second part of the manual XVII-XIX century foreign and Russian art in the beginning of the XIX-XX centuries art, Early XX century and in the years of independence Rich in theoretical and practical knowledge of the art of Uzbekistan created on the basis experimental materials.

The guide of the University and pedagogical institutes designed for students.

© Universitet

## **So'zboshi**

San'atshunoslik fanining bir bo'limi bo'lган san'at tarixi san'at (asosan tasviriy san'at) ning paydo bo'lishdan to hozirgi zamon bosqichigacha bo'lган davr san'ati taraqqiyotini o'rganadi, shu davr mobaynida yashab ijod etgan va ijod qilayotgan san'atkorlar hayoti va ijodiy faoliyati bilan tanishadi, ularning asarlarini taxlil etadi, taqqoslaysi. San'at tarixi taraqqiyotida sodir bo'lган turli badiiy maktab, yunalish oqim va uslublar kurashining mohiyatini yaratadi.

Insoniyat yaratib qoldirgan madaniy boyliklar fakat o'tmish kishilaridan qolgan yoki yaratilayotgan xayot to'g'risidagi fikr o'ylarini aks ettiruvchi ko'zgu xamdir. Jaxon san'at tarixini o'rganish, uning taraqqiyot qonunlarini tushunish, nodir yodgorliklar bilan tanishish o'tmish odamlarining xis-tuyg'u hayotiy tartiblarini o'rganish g'oyaviy-estetik qarashlarining shakillanishini bilish demakdir. Bu so'zsiz, kishilarda xayotiy tajribalarning boyishiga, xayotga yanada keng va atroficha yondoshishga yordam beradi.

## I-QISM

**Mavzu: № 1 San'at tarixiga muqaddima. Tasviriylar san'atning tur va janrlari.**

**Mashg'ulot turi – ma'ruza.**

**Mashg'ulot shakli:** Obrazli-ma`ruza tushunib olish, esda qolishi kerak bo`lgan bilimlar zahirasini talabalarga ilmiy ma'lumotlarni bayon etish va tushuntirishga qaratilgan.

### **Asosiy masalalar.**

San'atning kelib chiqishi, mazmuni va mohiyati.

Tasviriylar san'atning turi va janrlari haqida.

**Tayanch tushuncha va iboralar:** Rangtasvir, mozaika, freska, vitraj miniatyura, grafika, haykaltaroshlik, barelef, gorelef, byust, Animalist (lotincha «animal» hayvon) - hayvonlarni tasvirlovchi rassom. Kompozitsiya (lotincha «kompositio» tuzilish, qurilish) - badiiy asardagi obrazlar va badiiy vositalarning muayyan g'oyaviy maqsadga xizmat qiladigan tartibda joylashishi.

### **Mavzuga oid muammolar:**

1. Tasviriylar san'at eng qadimgi san'at turlaridan biri sifatida qaraladi. Bunga sizning munosabatingiz qanday?
2. Hozirgi kunda animalistik janrda ijod qilayotgan rassomlar bormi? Bor bo'lsa kimlarni bilasiz?

**O'quv mashg'ulotining maqsadi:** talabalarga san'atning kelib chiqishi, uning mazmuni va mohiyati haqida, tasviriylar san'at turlari haqida ma'lumot berish, san'atga nisbatan qiziqishini uyg'otish.

### **Identiv o'quv maqsadlari:**

- 1.1. Talabalar san'atning qachon paydo bo`lganligini aytib beradilar.
- 1.2. San'at nimani ifoda etishi va san'atni nima uchun o'rghanish keraqligiga izoh beradilar.
- 1.3. Tasviriylar san'atning turlarini farqlab beradilar.

### **1-asosiy masalaning bayoni:**

San'at juda qadim zamonlarda, mehnat jarayonining taraqqiyoti natijasida paydo bo'ldi. Mehnat jarayonida inson tafakkuri kamol topdi, go'zallik hissi ortdi, vogelikdagi go'zallik, qulaylik va foydalilik tushunchalari kengaydi. Sinfiy jamiyat vujudga kelishi bilan esa ijtimoiy taraqqiyotda katta o'zgarishlar sodir bo'ldi; aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajralib chiqa boshladi. Bu esa fan va san'at rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Professional san'at va san'atkorlar shu davrda paydo bo'ldi. San'at esa o'zining o'ziga xos xususiyatini, sinfiyligini namoyon etib, hukmron sinfnинг ideologiyasini targ'ib etuvchi kuchli g'oyaviy qurolga aylandi.

Lekin shunga qaramay, omma orasidan etishib chiqqan iste'dodli ijodkorlar mehnatkash xalq ommasining orzu istaklarini, ularning go'zallik va xudbinlik, olivyjanoblik va insonparvarlik haqidagi tushunchalarini ifoda etuvchi asarlar yaratdilar. Xalqning turmushi, xulq va odatlari, yutuq va mag'lubiyatlari ularning asarlarida o'z ifodasini topdi. Har bir davrda mavjud bo'lgan ana shunday san'at hayot go'zalliklarini tasvirlab, odamlarda yuksak xislat va fazilatlarni kamol toptirdi, ularni tenglik, ozodlik, birodarlik, yorqin kelajakka intilishga da'vat etdi.

Hakikatdan ham insoniyat yaratib qoldirgan madaniy qadriyatlar oddiy boyliklar bo'lib qolmay, balki o'zida inson aql-zakovati, hayot to'g'risidagi fikr-o'ylarini aks ettiruvchi ko'zgu hamdir. Jahon san'ati tarixini o'rgatish, uning taraqqiyot qonunlarini tushunish, nodir yodgorliklar bilan tanishish, o'tmish odamlarining his-tuyg'u, hayotiy tajribalarini o'rganish goyaviy-estetik qarashlarning shakllanishini bilish demakdir. Bu so'zsiz, kishilarda hayotiy tajribalarning boyishiga, hayotga yanada keng va atroflicha yondashishga yordam beradi. Tasviriy san'at turlariga **rangtasvir, arxitektura, grafika, haykaltaroshlik** kiradi.

#### Tasviriy san'at turlari.

**Rangtasvir** deb tekis yuzada turli rang va materiallar yordamida bajariladigan tasvirga aytildi. Unga asosan bo'yoqlar - moyli bo'yoq, akvarel, guash, tempera shuningdek, rangli qalamlar, ko'mir, qalam, pastel, sous, sangina kabi badiiy materiallar bilan ishlash xarakterlidir.

Rangtasvir asarlari qog'oz, mato, karton, devor, oyna, yog'och kabi tekis yuzalarga ishlanadi.

Rangtasvir asosini rasm tashkil etadi. Har qandy rangtasvir ishda avval uni rasmi ishlab olinadi. Unda kompozitsiya, yorug'soya, rang asosiy o'rinni egallaydi.

Rangtasvir asarlari bajarilishi texnikasi jihatdan turli-tuman bo'ladilar. Ular moybo'yoqli, temperali, freskali, mozaykali, vitrajli, akvarelli, guashli, pastelli hisoblanadilar.

Rangtasvirning quyidagi turlari mavjud: 1. Dastgohli rangtasvir. 2. Monumental rangtasvir. 3. Miniatyura rangtasviri. 4. Dekorativ rangtasvir. 5. Teatr-dekorativ rangtasviri.

**Dastgohli rangtasvir** deganda rassomlarning maxsus asbob-dastgoh (molbert) yordamida ishlaydigan suvratlari tushuniladi. Dastgohli rangtasvir asarlari uncha katta bo'lмаган о'lчовда ўқорида қайд қилиб о'tilganidek mato, karton, oyna, faner kabi tekis yuzali materiallarga moybo'yoq, akvarel, guash, tempera bo'yoqlari bilan ishlanadi. Bunda ko'pincha moybo'yoq qo'llaniladi.

**Monumental rangtasvir** atamasi monumental (maxobatli), ya'ni katta о'lчовдаги, rangtasvir ma'nosini anglatadi va u ko'pincha binolarning ichki va tashqi devorlariga tempera bo'yoqlari bilan ishlanadi.

Monumental rangtasvir asarlarining freska, mozaika, vitraj, panno kabi turlari mavjud.

**Freskalar** asosan bino devorlariga, pannolar esa matolarga bo'yoqlar bilan ishlanadi.

**Mozaika**- turli tabiiy va tashlandiq materiallar-rangli oyna parchalari, toshlar, sintetik materiallardan bino devorlariga yoki tekis materiallar ustiga ishlanadi.

**Vitraj** esa binolarning derazalari, eshiklari, oynalari ustiga bo'yoqlar yordamida ishlanadi. Vitrajlar uy ichkarisi va tashqarisidan ham bir xil ko'rindi.

**Miniatyura** (*mo''jaz*) rangtasviri deganda bejirim, juda kichik, joji, nozik san'at asarlari tushuniladi. Miniatyura rangtasviri o'rta asrlarda kitob bezagi bilan bog'liq holda rivoj topdi. U kitoblardagi bosh, yakuniy bezak, zarxal xarf, illyustratsiyalardan iborat bo'lgan. Rangtasvirning bu turi Sharqda, shu qatori Movaraunnahrda katta shuhrat qozondi. Hozirda u mustaqil san'at turi sifatida nafaqat kitoblarni, balki quticha, nosqovoq kabilarni bezatishda ham qo'llanilmoqda. Shuningdek, u katta bo'limgan o'lchovda mustaqil san'at asari sifatida ham tayyorlanmoqda.

**Dekorativ rangtasvir** asarlari mustaqil amaliy ahamiyat kasb etib, u binolarni ichki va tashqi devorlarni bezatishda qo'llaniladi. Ular panno shaklida shuningdek, quticha, padnis, sandiq, shkaflarni bezatishda qo'l keladi. Bino ichini bezatishga xizmat qiladigan naqshlar, frizlar, namoyon kabi mayda elementlar ham dekorativ rangtasvirga kiradi.

**Teatr bezagi** o'z ichiga spektakl dekoratsiyalari, unda ishlatiladigan grim, butaforlar bilan bog'liq. Ular teatr rassomi tomonidan tayyorlanib, spektakl mazmunini tomoshabin tomonidan keng va chuqurroq anglab etishga yordam beradi. Bu bezaklarda rassomlar sahnadagi yorug'lantirish va ranglarni xisobga olib tasvirilaydilar. Spektakl bezaklari voqeа sodir bo'layotgan joy, davr, muxit yuzasidan tomoshabin tasavvurlarini kuchaytiradi, uni idrok etishni osonlashtiradi va faollashtiradi.

Tasviriy san'at nazariyasi va amaliyotida akademik rangtasvir iborasi ham ishlatiladi. Akademik rangtasvir asosan o'quv jarayonida foydalanalidigan ko'rgazmali rangtasvir ishlarini nazarda tutadi.

**Haykaltaroshlik.** Xaykaltaroshlik rangtasvir kabi hayotiy voqeа va xodisalarni turli uslub va tasvirlash texnikasi va materiallar yordamida ifodalaydi. Xaykaltaroshlikda tosh, metal, gips, yog'och, vosk (*mo'm*), sim kabi materiallar keng qo'llaniladi. Xaykaltaroshlik asarlari kesish, yopishtirish, ulash va o'yish, quyish orqali bajariladi.

Xaykalarni ikki turi mavjud bo'lib, birinchisi to'liq yumaloq haykallar ikkinchisi releffi haykallardir. Yumaloq haykallarni har tomonidan ko'rishi mumkin bo'lsa, relefni faqat bir tomonidan, ya'ni oldindan ko'rildi. Releflar tekislik ustiga ishlanib, qisman bo'rtib chiqqan bo'ladi.

Relefni ikki xili bo'ladi: 1. Barelefda tasvirning qalinligi yarmidan kam bo'rtib chiqqan bo'ladi. 2. Gorelefda esa tasvir uning qalinligining yarmidan ko'prog'i bo'rtib chiqqan bo'ladi.

Xaykaltaroshlikda ma'lum miqdorda rang ham qo'llaniladi. So'nggi yillarda mo'm (vosk) haykallar ishlay boshlandi. Bunda rangli mo'mlardan to'liq foydalanilmoqda.

Xaykallar shakl va mazmun jihatdan realistik, dekorativ va abstrakt yo'nalishlarda bo'ladi.

Realistik haykallarda odam, xayvon va boshqalar haqiqiy ko'rinishda tasvirlansa, dekorativ haykallarda ular stilizatsiyalashgan, ya'ni shakl, o'lchov, proportsiya va boshqa jihatdan ma'lum miqdorda o'zgartirilib ifodalanadi. Abstrakt haykallarda tasirlanuvchilar shakl, mazmun, o'lchov va boshqa jihatlardan movxumlashtirilgan holda tasvirlanadi.

Xaykaltaroshlar o'z faoliyatlarida quyidagi asboblardan foydalanadilar: maxsus dastgoh, bolg'a, stek, bolta, tsirkul, iskana v.b. Iskanalarning to'g'ri burchakli, uchburchakli, trapetsiya burchakli, yoysimon chuqur shakl beruvchi turlari bo'ladi. Shuningdek, haykal loyi ustidagi ortitsia qismini tortib olish uchun qattiq simdan tayyorlangan doira, ellips, uchburchak, to'rtburchak, trapetsiya shaklidagi sidirg'ichlar qo'llanilaadi. Shuni ham qayd qilish lozimki, iskanalar turli o'lchovda, tuzilishda va shaklda bo'ladilar.

Xaykaltaroshlikning dastgohli, monumental, yodgorlik (me'morial), dekorativ va monumental-dekorativ turlari mavjud.

Dastgohli haykaltaroshlik iborasi haykallarni maxsus asbob (dastgoh)ga o'rnatib ishlanganligidan kelib chiqqan. Bunday haykallar mustaqil amaliy ahamiyat kasb, ular jamoat binolari va uy-joylarning ichki qismi, shuningdek, istiroxat bog'lari, muzey va ko'rgazma zallari uchun mo'ljallab yaratiladi.

Dastgohli haykallarning xarakterli xususiyatlardan yana biri, ularni tasvirlanayotgan narsalarni haqiqiy o'lchovida yoki undan kichik bo'lisligidadir.

Dastgohli haykaltaroshlik asarlari yaqindan ko'rishga mo'ljallangan bo'lib, unda portret asosiy o'rnini egallaydi. Kishilar obrazni kalla qismini o'zi tasvirlanganda uni byust deyiladi. Agarda uni bo'yи-basti bilan tasvirlansa uni figurali portret deb yuritiladi. Shuningdek, yarim figurali portretlar ham bo'ladi.

Monumental haykaltaroshlik iborasi monumental, ya'ni yirik, maxobatli haykal ma'nosini anglatadi. Ular maydon va ko'chalarga keng xalq ommasi uchun mo'ljallab o'rnatiladi. Bunday haykallar tarixiy voqealar yoki alohida mashxur shaxslarni nomlarini abadiylashtirish maqsadida o'rnatiladi. Monumental haykallar uzoqdan ko'rishga mo'ljallangan bo'lib umumlashtirilgan tarzda atrof-muhit bilan bog'liq holda yaratiladi. Monumental haykaltaroshlikning ko'rinishlaridan biri monumental-dekorativ haykaltaroshlikdir. Ular monumental haykaltaroshlik asarlari kabi keng halq ommasi uchun mo'ljallangan bo'lib ko'proq bezak vazifasini bajaradi.

Monumental-dekorativ haykallar ko'cha va maydonlarni, bino va istirohat bog'larini, fontanlarni bezatishda ishlatiladi.

Ular odam, xayvon, baliq, qush tasvirida aks ettiriladi. Bunday xaykallar yirik o'lchovda bo'lganligi sababli, ularni uzoqdan ko'rishga mo'ljallab yaratiladi. Bunday

haykallarni umumiy o'lchovi va xajmi uning proportsiyalari aniq va ifodali qilib tevarak-atrof, tabiat va binolarga moslab va bog'lab ishlanadi.

Monumental-dekorativ haykallar mahobatli bo'lsada ular ham to'liq xajmli va relefli qilib ishlanishi mumkin.

Plastik haykaltaroshlik-haykaltaroshlikning bir turi sifatida monumental haykallarda, yodgorlik haykallarda, shuningdek binolarning ichki va tashqi bezak ishlarida ishlataladi. Ular o'lchov jihatdan mayda bo'lib, mustaqil amaliy ahamiyat ham kasb etadi. Maxsus loydan ishlanadigan kichik o'lchovdagi o'yinchoq haykalchalar ham plastik dekorativ haykallar hisoblanadi.

Uni mayda-plastika deb ham atashadi. O'zbekistonda haykaltaroshlikning bu turida usta kulollardan X.Raximova, U.Jo'raqulov, A.Muxtorov kabi halq kulol ustalari samarali mexnat qilganlar.

Dekorativ haykaltaroshlikning yana bir turi borki ular mayda o'lchovdagi metal, mramor, yog'och, suyak, chinni kabi materiallardan ishlanadi. Ular ham dekorativ, ham realistik tarzda ishlanishi mumkin. Bunday haykallar kitob javonlari, yozuv stollarini bezatadi.

Grafika. "grafika"- lotincha so'z bo'lib, "yozaman, rasm ishlayman" degan ma'noni bildiradi va tasviriylar san'atning turlaridan biri hisoblanadi. Grafikaning turlaridan biri gravyuradir. Gravyura frantsuzcha so'z bo'lib, "kesish" ma'nosini bildiradi. Bunda rasmlar qattiq materiallarga chizish va kesish orqali bajariladi. Bu rasmlar avvalo metall, yog'och, linoleum, tosh kabi materiallarda ishlanib, keyin undan qog'ozga ko'p tirajda ko'chiriladi. Metallda tayyorlanadigan gravyurani ofort, yog'ochdagisini ksilografiya, lenoliumdagisini linogravura, tosh orqali tayyorlanadiganini esa litografiya deb yuritiladi. Grafika asarlarining qo'llanish sohalari beqiyos kengdir. Xususan, estamp, kitob illyustratsiyalari, plakat, pochta markalari, gazeta-jurnal bezaklari, karikaturalar, etiketka va upakovkalar, teatr va kino afishalari, yo'l va tovar belgilari, tashkilot va muassasalarning ish blankalari shular jumlasidandir.

Kitob grafikasining vatani Sharq hisoblanib. XU asrlarda bu sohada sharq musavvirlaridan Kamoliddin Behzod, Mahmud Muzaxxib, Muhammad Murod Samarcandiy, Sulton Muhammad, Qosim Ali, Abdullo kabilar katta shuhrat qozongan bo'lsalar, XX asrda O'zbekistonda I.Ikromov, B.Kedrin, O.Osheyko, Q.Basharov, T.Muhamedov, M.Kriakidilar bu sohada Respublika va undan tashqarida ham mashhur bo'ldilar.

Grafikaning o'ziga xos xususiyatlardan yana biri bu uning katta o'lchovda bo'lmasligi va buyoqlar sonining chegaralanganligi hisoblanadi. Shuning uchun ham grafika asarlarida faqat chiziq yoki to'q dog' ishtirop etadi. Ba'zan grafik tasvirlar rangli bo'ladi.

San'atning bu turida ayrim grafika asarlari katta o'lchovda va ko'p nusxada tayyorlanadilar hamda ular katta tarbiyaviy vazifalarni bajaradilar. Bu plakatlardir.

Grafika san'atida estamp katta o'rinni egallaydi. Estamp frantsuzcha so'z bo'lib, shtamplash ma'nosini bildiradi.

Estamp yaratish uchun avvalo tasvir maxsus asboblar bilan qattiq materialga (tosh, yog'och, linoleum) o'yish orqali tushiriladi. So'ngra o'yilgan material ustiga bo'yoq beriladi va undan qog'ozga tasvir olinadi.

Estampga shu narsa xarakterlik, gravyura bosmadan chiqanidan so'ng rassom unga ba'zi bir tuzatishlar kiritadi va asar tagiga rassom o'z imzosini qo'yadi.

Grafika texnikasining keng tarqalgan turlaridan biri illyustratsiya lardir. Qadimda tasviriylar san'at kitob bilan bog'langan edi. O'rta asrlarda Sharq va G'arb mamlakatlari yaratilgan kitoblarning deyarli ko'pchiligi naqshlar va rangli rasmlar bilan bezatilgan. Bu rasmlarda kitob mazmuni o'z aksini topar edi. Keyinchalik bosma kitoblar nashr etish ixtiro qilinganidan so'ng illyustratsiyalar kitoblarda yanada katta o'rin egallay boshladi. Illyustratsiyaning ahamiyati shundaki, birinchidan u kitobni bezakli, chiroyli va yoqimli bo'lishiga yordam bersa, ikkinchidan adabiy obrazlarni konkret jonli bo'lishiga, o'quvchining yodida yaxshi saqlanib qolishiga yordam beradi.

Illiustratsiyani ishlashga kirishishdan avval rassom asarni yaxshilab o'rganib chiqishi bilan bir qatorda, asardagi voqeа sodir bo'layotgan davrga doir materiallarni to'plashi, o'sha davr odamlarning madaniyati va turmushini, mamlakat tabiatini bilib olish kerak bo'ladi.

Karikaturalar ham grafikaning bir turi hisoblanadi. Unda hayotdagi ayrim salbiy hodisa va ko'rinishlar, shaxslar obrazi hajviy yoki hazil tarzda rasmlar orqali tasvirlanadi.

Grafikaning keng tarqalgan turlaridan yana biri reklama, afisha, etiketika, upakovka hisoblanadi. Gazeta, jurnal grafikasi ham shriftlar bilan bog'liq bo'lib, amaliyotida keng qo'llaniladi.

So'nggi yillarda o'zbek grafik rassomlari milliy tasviriylar san'timizning badiiy an'analarini davom ettirib, yuksak badiiy saviyada asarlar yaratdilar. Shunday rassomlardan biri I.Ikromovdir. Iskandar Ikromov tomonidan A.Navoiyning "Lirika" nomli to'rt tomlik she'rlar to'plamiga ishlagan rasmlari rassom ijodining gullagan davrida yaratilgan ishlaridan hisoblanadi. Bu ish 1960 yilda Toshkentda Markaziy Osiyo rassomlarining hududiy konferentsiyasi munosabati bilan ochilgan ko'rgazmada ikkinchi darajali diplom bilan taqdirlangan. Kitobning muqova jildi nihoyatda original va asarga monand bo'lib chiqqan. Undagi tovus tasviri asarga mos lirik xususiyat kashf etadi. Muqova yuzasidagi grafik belgilaringin bir tekisligi, tovus shaklini nafis ranglar bilan ifodalanishi, qushning orqa tomonidagi havorang bo'yoqlar bilan berilgan gul tasviri, shuningdek, qizil rangda yozilgan kitob nomi ishning badiiy saviyasining yuqoriliginini ta'minlagan..rasm.

O'zbek grafikasida samarali mehnat qilgan rassomlardan yana biri T.Muhamedovdir. U asosan o'zbek xalq ertaklariga nihoyatda jozibali illyustratsiyalar ishlab, katta shuhrat qozondi. Uning eng muvaffaqiyatli ishlaridan

biri “Nasriddin Afandi haqidagi latifalar” nomli kitobga ishlagan “Eshakni o’qishga o’rgatish” nomli illyustratsiyasidir..rasm.

### **Nazorat topshiriqlari**

1. San’at qachon paydo bo’lgan?
  - A) Qadim zamonlarda
  - V) O’rta asrlarda
  - S) Quldarlik davrida
  - D) Feodal davrda
2. Professional san’at va san’atkorlar qanday o’zgarish davrida paydo bo’ldi?
  - A) Qishloq xo’jaligining rivojlanish natijasida
  - V) Davlat to’ntarilishi natijasida
  - S) Jismoniy mehnatdan aqliy mehnatning ajralib chiqishi natijasida.
  - D) A va S javoblar to’g’ri.
3. Omma orasida etishib chiqqan ijodkorlar asarlarida qanday g’oya o’z ifodasini topdi?
  - A) Tabiat go’zalligi
  - V) Xalqning turmushi, yutuq va mag’lubiyatlari
  - S) Mehnatkashlar tasviri
  - D) Zodagonlar hayoti
4. Juhon san’atini o’rganishdan maqsad nima?
  - A) Taraqqiyot qonunlarini tushunish, o’tmis odamlarining his-tuyg’u, hayotiy tajribalarini o’rganish
  - V) Iqtisodni rivojlantirish
  - S) Amaliy san’atni rivojlantirish
  - D) To’g’ri javob yo’q

**2-asosiy masala bo’yicha darsning maqsadi:** talabalarni tasviriy san’atning janrlar bilan yaqindan tanishtirish, ularga qiziqishni oshirish.

### **Identiv o’quv maqsadlari:**

- 2.1. Talabalar tasviriy san’atning janrlarini sanab o’tadilar.
- 2.2. Talabalar «Avtoportret», «Manzara», «Natyurmort» so’zlarini farqlab beradilar.

### **2-asosiy masalaning bayoni:**

#### Tasviriy san’at janrlari.

Tasviriy san’atda manzara, turmush, natyurmort, portret, tarixiy animal, afsonaviy, marina janrlari mavjud. Janr rassom nimani tasvirlayotganligiga qarab belgilanadi. Masalan, odam rasmini ishlansa “Portret” tabiat va shaxar ko’rinishlari tasvirlansa “Manzara”, hayot va mehnat jarayonlari tasvirlansa “Turush” janriga xos bo’ladi. Shuningdek, tarixiy voqealarni tasvirlash tarixiy janrga, xayvonlarni tasvirlash, animal janr deb yuritiladi. Afsonaviy, marina, natyurmort nyu janrlari ham bo’ladi. “animal” janri lotincha “anima” so’zidan kelib chiqqan bo’lib xayvon ma’nosini anglatadi. “Batal” janri esa frantsuzcha “batay” so’zidan kelib chiqqan

bo'lib jang, "NYu" janri frantsuzcha bo'lib yalang'och ma'nosini bildiradi. Ayrim asarlar ikki va undan ortiq janrlarga mansub bo'ladi. Masalan, portret va nyu, marina va manzara v. b.

Xar bir janr o'z o'rnida yana bir qancha janrlarga bo'linishi mumkin. Masalan tabiat manzarasi janri, shaxar manzarasi janri, industrial manzara janri, dengiz manzarasi (marina) janri yoki portret janrini tantanavorlik, ishqiy, guruhli janrlarga bo'lish mumkin.

Vaqt o'tishi bilan janrlar tabaqalashib, mustaqil tus oladilar. Masalan, manzara janridan marina, tarixiy janrdagi batal janri ajralib chiqqanlar.

Manzara janri. Tasviriy san'atda tabiat, shaxar, industrial, interer ko'rinishlarini tasvirlanishi manzara janrga taluqlidir. Manzara janridagi asarlarning ayrimlari bevosita tabiat manzarasini haqiqiy ko'rinishini tasvirlasa, boshqalari ijodiy tarzda xayolan ifodalangan bo'ladi. Ba'zan bu ikki hol bir asarda bo'lishligi ham mumkin. Manzara janrini paydo bo'lishi juda uzoqlarga borib taqaladi. Manzara tasvirlarining keng tarqalishini Qadimgi Sharq va Krit orollari misolida ko'rish mumkin.

Masalan, eramizdan avvalgi asr Beni - Xasandagi qabr tasvirida yovvoyi mushik ovi tasvirlangan. Bu janr esa mustaqil ravishda Xitoyda VI asrda paydo bo'lган. Evropa san'atida esa O'yg'onish davrida ilmiy asosda ya'ni chiziqli va xavo (rang) perespektivasi asosida shakllangan.

Manzara janrini ikki xili mavjud. Birinchisi mustaqil turi bo'lib, unda faqat manzara aks ettiriladi. Ikkinci turida manzara biron tasvir fonida tasvirlanadi. Masalan, portretni orqa tomonida tabiat yoki shaxar manzarasi tasvirlanishi mumkin.

Manzara janrida samarali ijod qilgan rassomlardan I.Levitan, I.Shishkin, O'.Tansiqboev, I.K.Ayvazovskiy, N.Karaxan kabilarni ko'rsatish mumkin.

Manzara janrining ko'rinishlaridan biri bu interer xisoblanadi. U binolarning ichki qism ko'rinishlarini ifodalaydi. Bu janr qadimgi Misr, Xitoy rassomchiligidagi uchraydi. Ular o'z ishlarida aql bovar qilmaydigan darajada aniqlik bilan perespektiva qonunlari asosida intererni tasvirlay olganlar.

Bu janrda ijod qilib Jotto, A.Verrokko, Leonardo do Vinchi, Rembrandtlar shuxrat qozonganlar.

Manzara janri ko'proq rangtasvida, qisman grafika va haykaltaroshlikda qo'llaniladi. Xaykaltaroshlikda manzara asosan uning relef turida ishlatiladi. Xaykaltaroshlikda manzara ko'rinishlari asosiy emas, to'ldiruvchi, qo'shimcha ahamiyat kasb etadi.

Natyurmort janri. "Natyurmort" so'zi frantsuzcha bo'lib "o'lik narsalar (natura)" ma'nosini anglatadi. U asosan rangtasvir va grafika asarlarida ishlatiladi. Tasviriy san'atning bu janrida gullar, mevalar va sabzavotlar, qushlar, baliqlar, oziq- ovqatlar, turli predmetlar aks ettiriladi va u mustaqil janr sifatida XV-XVI asrlarda Gollandiya va Ispaniyada paydo bo'lган.

Natyurmortning ikki xili mavjud. Birinchisi mustaqil ravishdagi natyurmort bo'lsa, ikkinchi yordamchi yoki to'ldiruvchi natyurmortdir. Natyurmortni birinchi turida faqat natyurmort tasvirlansa, ikkinchi turi biron ta portret yoki turmush janridagi tasvirida qo'shimcha detal sifatida ishlangan bo'ladi.

Natyurmortni xarakterli xususiyati bu hayotdan, go'zallikdan zavqlanishga yo'naltirilganligidir. Bu vazifani rassom gullar, meva-sabzavotlar, oziq-ovqatlarni turli ko'rinish va ranglarni ifodalab kishilarni xis - xayajonini o'yg'otish orqali bajaradi.

Natyurmort turli millat va elatlarning turmush tarzi haqida ma'lumotlar berishi ham mumkin.

Mutaxassislar natyurmortni kishilarga ikki xil ta'sirini qayd qilishadi. Birinchisida, natyurmort mustaqil bo'lib tomoshobinga o'zini ko'z-ko'z qilib, undan zavqlanishga chorlaydi. Agarda u meva-sabzovot va oziq-ovqatlardan tashkil etgan bo'lsa, iste'mol qilishga chaqiradi.

Ikkinchisida natyurmort o'zi haqida emas, u bilan bog'liq shaxs uning egasi haqida ma'lumot beradi. Bunday natyurmortlarda kishilar aks etmasada, biroq u natyurmortdan uzoqda emas, xozir u kelib qolishi mumkinligidan darak beradi.

Natyurmortlarni bu ikki xili qo'shilgan holda ifodalanishi ham mumkin.

Bu janrlar rassomlardan J.Sharden, F.Snayders, I.Mashkov, P.Konchalovskiy, L.Salimjonovalar, G'.Abduroxmonovlar shuxrat qozonganlar.

Turmush janri. Bu janrdagi asarlar kishilarning hayoti, mehnati maishiy bilan bog'liq bo'lib, undan ko'proq oila, maktab, dam olish, shaxsiy va jamoatchilikdagi hayot jarayonlar aks etgan bo'ladi. Turmush janridagi asarlar nafaqat xozirgi kun odamlarining balki o'tmishtagi kishilarning turmush tarzi va hayoti haqida ham ma'lumot beradi.

Tasviriy san'atda turmush janri XVII asrda Gollandiyada paydo bo'lgan. Bu janr o'z mazmuni jihatdan ancha murakkab bo'lib, natyurmort, manzara, animal v.b. janrlar bilan bog'liq holda yaratiladi. Turmush janri ko'proq rangtasvirda, kamroq grafika va haykaltaroshlikda ishlatiladi.

Turmush janrida ijod qiluvchi rassomlar nixoyat ko'p bo'lib ulardan eng mashxurlari Kamoliddin Bexzod, Leonardo da Vinchi, Ilya Repin, Z.Inog'omov, J.Umarbekov, A.Sikevrs, R.Kent va boshqalar xisoblanadilar.

Portret janri. "Portret" so'zi frantsuzcha "portrait" so'zda olingan bo'lib kishilarni chexrasini xuddi o'ziga o'xshatib tasvirlash ma'nosini bildiradi. Portretda kishilarni yakka, ikki yoki bir guruh tasviri ishlanadi. Unda odamlarning boshi, beligacha yoki bo'yi-basti bilan tasvirlanishi mumkin. Portret tasviriy san'atning uchchala turida ham qo'llaniladi. Portret o'z xarakteri jihatdan monumental, miniyatrali, dastgohli, ishqiy, xajviy bo'ladi.

Rassomlarning ijodida uning avtoportret xili keng tarqalgan. Avtoportretni rassom oynadagi o'z aksiga qarab yaratadi.

Portret rassomlar tomonidan naturani kuzatish, xotiradan yoki shaxsni fotosidan shuningdek, arxiv materiali va adabiy tasviridan, o'lgan odamlarni kalla suyagini o'rganish asosida yaratiladi.

Portretchi o'z qahramonini tashqi qiyofasiga o'xshash bo'lishiga erishishdan tashqari uni millati, kasbi, tabaqasini ham ifodolashga harakat qiladi. Shuningdek, portretda shaxsning ichki kechinmalari, kayfiyati, ma'naviy dunyosi, holati ham tasvirlanishi mumkin.

Portret janrida dastlabki portretlar Qadimgi Yunonistonda mil. a.v. VII-V asrlarda yaratilgan. U O'rta asrlar Sharq miniatyurachilari va Evropa rangtasvirchilari va haykaltaroshlari ijodida keng rivoj topdi. Bu janrda Kamoliddin Bexzod, Leonardo da Vinchi, Mikellanjelo, XVIII asrlarda O.Renuar, P.Pikasso, I.Repin, XX asr o'zbek rassomlaridan A.Abdullaev, Ch.Axmadov, V.Kaydalov kabilar samarali mehnat qildilar.

Tarixiy janr. Rangtasvirning bu janrida insoniyat tarixidagi muxim voqealar va qaxramonlar hayoti tasvirlanadi. Rassom biron ta tarixiy voqealar ko'rinishini tasvirlash uchun avvalo o'sha voqeanning boshqa tarixiy voqealar orasidagi o'rni va muximligini anglab etishi kerak bo'ladi. So'ngra u o'sha voqeasodir bo'lgan davr haqidagi adabiy manbalarni, tarixiy me'morchilik obidalari hamda u erdan topilgan topilmalarni o'rganadi, ular asosida qoralama va ranglamalar yaratdi. Mavzuga aloqador tarixchilar bilan suxbatlashish voqeasazmuni hamda suvrat detallarini aniqlashtirishga yordam beradi.

Jang manzaralarini ifodalovchi suvratlar ham tarixiy janrga kiradi va uni batal janri deb yuritiladi. Bu janrdagi asarlarda asosan jang manzaralari va xarbiy yurishlar aks ettiriladi. Bu janrdagi asarlar manzara, turmush janrlari bilan bog'liq bo'lishi ham mumkin.

Bu janrdagi asarlarda rassomlar urush janrlarini shavq-zavq, ko'tarinlik, qahramonlik kabilarda ifodalashga harakat qiladilar.

Bunday asarlarda ko'proq vatanparvarlik g'oyalari ilgari suriladi. Ularda nafaqat jang ko'rinishlari, balki xarbiylarning jangdan tashqari vaqtidagi turmushi ham ifodalanishi mumkin.

Jang manzaralarini tasvirlash qadimdan ma'lum bo'lsada, uning san'atda ifodalanishi qadimgi Sharqda o'z ifodasini topgan. Lekin bu janrni shakllanishi XV-XVI asrlarga to'g'ri keladi. Ayniqsa u Sharq miniatyura rangtasvirida aloxida o'rinni egallaydi. Bu janr XV-XVIII asrlarda Evropa rangtasvirida keng rivoj topdi.

Tarixiy va batal janrlarda samarali ijod qilgan rassomlar qatoriga Kamoliddin Bexzod, Maxmud Muzaxxib, D.Velaskes, K.Bryulov, P.Pikasso, P.Rubens, F.Goyya, V.Surikov, A.Deyneka, M.Nabiev, R.Choriev kabilarni kiritish mumkin.

Animal janr. Animal lotincha "anima" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "xayvon" demakdir. U tasviriy san'atning deyarli barcha turlarida mavjud. Xayvon va qushlarni rasmini ishlochi rassomlarni animalist-rassomlar deb yuritiladi. Bunday rassomlarning tabiatga, uni maxsuli xayvon zotiga muxabbati kuchli bo'ladi.

Animal janr tasviri san'atning mustaqil janri bo'lsada, xayvonlar tasviri turmush, portret, natyurmort janrlarida ham aks etishi mumkin.

Xayvonlarni tasvirlashga qadimgi Misrda katta e'tibor berilgan edi. Chunki, Misirliklar xayvonlarning ko'pchiligini xudolar deb xisoblashgan. Ular tasvirlagan sfinkslarda odam vaxshiy xayvon va qushlar ko'rinishida tasvirlaganlar. Ularning tanasi odam boshi xayvon yoki qush ko'rinishida bo'lган.

O'zbekistonda xayvonlar tasvirini ishslash eramizdan avval VII-V asrlarda Afrasiob freska va haykallarida (fil, ot, tuya, qushlar) yuksak badiiy saviyada ishlanganligini guvohi bo'lamiz.

Sharq miniatyura rangtasviri asarlarida ham xayvonlar tasviri tez-tez uchrab turadi. Miniatyurachi rassomlar tomonidan ishlangan ov manzarasiga oid tasvirlarda kiyik, she'r, qoplon, qushlar tasvirlanadi. Kamoliddin Bexzodning "Tuyalar jangi" asari Rizo Abbosiyning "Cho'pon" miniatyurasi ham fikrimizni dalilidir.

XV-XVI asr Evropada Uyg'onish davri rangtasvirida A.Pizanello, Leonardo da Vinci, A.Dyurerlar xayvonlar tasvirini aniq realistik tarzda tasvirlashga harakat qilganlar.

XVII asrga kelib Gollandiyada xayvonlarni tasvirlash aloxida janrga aylandi. Keyinchalik animal janrda rassom va haykaltaroshlardan P.Klodt, V.Serov, V.Vatagin, Yu.Vasnetsovlar ham mexnat qildilar.

Afsonaviy janr. Afsonaviy janrdagi tasviri san'at asarlarida hayotda uchramaydigan, biroq xalq tomonidan xayolan o'ylab topilgan odam va xayvonlar, baliqlar voqeа, hamda xodisalar tasvirlanadi. Xususan, afsonaviy janrdagi asarlarda osmonda uchib yurgan qanotli farishtalar, norasida qanotli bolalar uch boshli ajdarlar, yarmi odam yarmi ot "kentavrlar", yarmi ayol yarmi baliq, rusalkalar, yarmi ayol yarmi qush jonzotlar, odam shaklidagi shoxli ko'zi bitta baxaybat devlar kabilar tasvirlanadi.

Afsonaviy janr tasviri san'atning hamma turlarida (rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika) keng qo'llanadi.

Afsonaviy janrda ijod qilgan rassomlar qatoriga Rafael Santi, Sharq miniatyurachi rassomi Sulton Muhammad, M.Vrubel, V.Vasnetsovlarni kiritish mumkin.

Marina, janri (marina - frantsuzcha so'z bo'lib, dengiz ko'rinishi ma'nosini bildiradi. Unda asosan dengiz ko'rinishlari va undagi xodisalar tasvirlanadi. Marina janrini shakllanishida I.Avvazovskiyning xizmatlari katta bo'lган. U o'zining umrini faqat dengiz ko'rinishlarini tasvirlashga bag'ishladi. Uning "To'qqizinchи val", "Chesmen jangi", "Qora dengiz", "To'lqinlar orasida" kabi asarlari jaxon tasviri san'atida munosib o'rinni egalladi.

Marina janridagi asarlar boshqa janrdagi asarlar bilan birgalikda ham ifodalanadi. Masalan, portret, manzara, tarixiy, turmush v.b. Marina rangtasvirning turi sifatida Evropa san'atida alohida o'rinni egallaydi. Dengiz, dengiz hayotidagi muhim voqealar, xarbiy kemalar tafsilotini aynan tasvirlashda bezak sifatida xam

xizmat qiladi. Golland manzarachi rassomlari marina imkoniyatlarini kengaytirib, dengiz tabiatini va u bilan bog'liq baliqchilar hayotini haqqoniy aks ettirdilar (Ya.Porsellis, S. de Vliger, X.Sigers va b.), Marina turini yaratdilar. XVII-XIX asrning yirik marinachilari K.Verne (Frantsiya), U.Terner (Buyuk Britaniya), X.Mesdag (Gollandiya), I.Ayvazovskiy, A.Bogolyubov (Rossiya) va boshqalar O'zbekistonda Marina janriga oid dastlabki asarlar 20-asrning 30-yillarida paydo bo'lgan. Bir qator rassomlar (F. Madgazin, R. Matevosyan, R.Choriev, G'. Abduraxmonov va boshqalar) ning Orol dengiziga bag'ishlangan asarlari bor.

### Nazorat topshiriqlari

1. Tasviriy san'at turlariga nimalar kiradi?  
A) Rangtasvir, grafika, teatr.  
V) Grafika, arxitektura, manzara.  
S) Rang tasvir, arxitektura, grafika, haykaltaroshlik.  
D) A va S to'g'ri
2. Rangtasvir harakteriga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?  
A) Monumental, dekorativ, portret  
V) Monumental, dekortiv, mo''jaz, dastgohli  
S) Monumental, mo''jaz, manzara  
D) Barcha javoblar to'g'ri
3. Grafikada nimalardan foydalaniladi?  
A) qalam, ko'mir, pastel, sangina, suvbo'yoq  
V) qalam, ko'mir, moybo'yoq, suvbo'yoq, tush  
S) qalam, ko'mir, guash, tush, moybo'yoq  
D) guash, tush
4. Avtoportret nima?  
A) Do'stlar porteretini ishlash  
V) O'z-o'zining portretini ishlash  
S) Milliy qahramonlar portretini ishlash  
D) Barcha javob noto'g'ri
5. Manzarachi rassomlar kimlar?  
A) U. Tansiqboev, I.Ayvazovskiy, N.Shishkin  
V) U.Tansiqboev, R.Ahmedov, N.Inog'omov  
S) M.Nabiev, U.Tansiqboev, N.Shishkin  
D) Barcha javob noto'g'ri

### Mustaqil ish topshiriqlari

- 1.Tasviriy san'at tarixi nimani o'rgatadi?
2. Tasviriy turlari va janrlari haqida gapirib bering.

## **Mavzuga oid xulosalar**

Tasviriy san'at qadim zamonlarda mehnat jarayonida paydo bo'ldi. Bugunga kelib, tasviriy san'atning tur va janrlari shakllandi. Rangtasvir, grafika, xaykaltaroshlik, arxitektura tasviriy san'atning asosiy turlaridan biri bo'lib qoldi. Uning janrlariga esa portret, natyurmort, manzara, marina, animal, turmush, afsonaviy, botal va boshqalarni kiritishimiz mumkin. Shu bilan birga tasviriy san'atda, insoniyat yaratib qoldirgan asarlar oddiy boyliklar bo'lib qolmay, balki o'zida insonning hayot to'g'risidagi fikr - o'ylarini aks ettiruvchi ko'zgu bo'lib qoldi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdullaev N. U. «San'at tarixi» Tom1. –T.: O'qituvchi.1986. (5-19)
2. Abdiev V. I. «Qadimgi Sharq tarixi», -T. 1995.(4 - 13).
3. Pugachenkova G. A., Rempel L. I. «Istoriya iskusstva Uzbekistana», -T. 1984. (7 - 14).
4. Abdullaev N. U. «San'at tarixi» Tom 1. –T.: O'qituvchi. 2000.

## **Mavzu: №2. IBTIDOIY JAMOA DAVRI SAN'ATI.**

### **Mashg'ulot turi – ma'ruza.**

**Mashg`ulot shakli:** Obrazli-ma`ruza tushunib olish, esda qolishi kerak bo`lgan bilimlar zahirasini talabalarga ilmiy ma'lumotlarni bayon etish va tushuntirishga qaratilgan.

### **Asosiy masalalar**

1. Er. av. 3 ming yillikgacha bo`lgan davrda tosh asri, er. av. 3-2 ming yillikda temir asri to'g'risida to'liq malumot berish.
2. Shu davrdagi me'morchilik, tasviriy va amaliy - dekorativ san'at. O'rta Osiyo, O'zbekistonning ibtidoiy davrdagi yodgorliklari bilan keng tanishtirish

**Tayanch tushuncha va iboralar:** Arxeologiya, Tosh, Mis, Temir asrlari. Karkas - (frantsuzcha - skelet, asos) binoning asosi, sinchi. Mensirtir - ibtidoiy tuzumga mansub arxeologik yodgorliklar, yakka va xalqa yoki alleyalar bo'lib joylashgan yirik toshlar.

### **Mavzuga oid muammolar:**

1. Eng qadimgi davrlardagi tasviriy ifodalar beqiyos ahamiyatga ega. Sizning bunga munosabatingiz qanday?
2. Ibtidoiy davrga mansub namunalar o'lkamizning qaysi viloyatlarida topilgan? Ularning bir-biridan farqi nimada deb o'ylaysiz?

**1-asosiy masala bo'yicha darsning maqsadi:** eramizdan avvalgi ming yilliklarda – tosh, mis, bronza va temir asrlari san'ati to'g'risida talabalarga to'liq

ma'lumot berib, ularning mazmuni va mohiyatini ochib berish.

### **Identiv o'quv maqsadlari:**

Ibtidoiy jamoa davri tarixini o'rganishdan maqsad va o'sha davr san'at asarlari haqida hikoya qiladilar.

Eramizdan oldingi ming yilliklarda chiziqlarning qanday ramzlarini ifoda etishi haqida axborot beradilar.

### **1-asosiy masalaning bayoni**

#### Ibtidoiy jamoa san'ati.

Ibtidoiy jamoa tuzumi insoniyat taraqqiyoti tarixidagi eng birinchi va uzoq davom etgan bosqichlardan hisoblanadi. Bu bosqichni hamma xalq va elatlar o'z boshidan kechirdilar. Ana shu uzoq davom etgan taraqqiyot jarayonida hozirgi zamon odami tipi paydo bo'ldi, odamlar jamoasi yuzaga keldi. Ishlab chiqarish kuchlarining zaifligi odamlarni kollektiv bo'lib yashash va mehnat qilishga da'vat etdi. Ular qudrat birlikda ekanligini, hayotning ilk bosqichidayoq sezdilar. Bu qudrat ularni tabiat sirlarini o'rganishga undadi. Madaniyat va san'at ravnaqiga zamin yarattdi.

Ibtidoiy jamoa tuzumidan bizgacha ashyoviy dalillar - mehnat va ov qurollari, uy anjomlari va bezak buyumlari, odamlar yashagan manzil qoldiqlari etib kelgan. Shular ibtidoiy jamoa kishisining estetik va diniy qarashlarini bilishga, ibtidoiy jamoaning madaniyati haqida tasavvur xosil qilishga yordam beradi. Tuproq ostida qolib ketgan moddiy yodgorliklar, odam va hayvonlar jasadining qoldiqlari, g'or va ertula devorlariga chizilgan surat va bo'rtma tasvirlar ibtidoiy jamoa davri tarixini o'rganishning muhim manbai hisoblanadi. San'at qachon va qanday paydo bo'lgan? San'at qadim-qadimda kishilarning mehnati jarayonida yuzaga keldi va rivojlandi. Inson madaniyati taraqqiyot olamiga qadam qo'ydi. San'at yuzaga kelishi insoning ob'ektiv voqelik to'g'risidagi bilimlarining chuqurlashuviga, o'z avlodni tajribalaridan bahramand bo'lishga olib keldi. Bu uni tabiat kuchlariga qarshi kurashishga da'vat etdi, uning aqliy kamoloti, estetik qarashlari rivojini jadallashtirdi.

Arxeologiyada ibtidoiy jamoa tuzumi tarixi quroq yasash uchun ishlataladigan materialarga qarab, uch asosiy bosqichga ajraladi:

**Tosh asri** - eramizdan avvalgi 3 ming yillikkacha bo'lgan davr.

**Mis va bronza asri** - eramizdan avvalgi 3 - 2 ming yillik.

**Temir asri** - eramizdan avvalgi 1 ming yillik.

Haykaltaroshlikda hayvonlar tasvirini yasash keng o'rinni egallaydi. Odam tasviri, ayniqsa, ayollar haykali paleolit davrida keng uchraydi. G'arbiy Evropa (Avstriya) dan topilgan «Villendorf Venerasi» deb nomlangan haykal mashhurdir. Haykal hajm jihatdan katta emas, (balandligi 0,06 m) lekin ko'rinishi jihatidan monumental. Haykalda ortiqcha detallar yo'q. Ichki kuch-qudratga to'la haykalda bosh qismi bir oz belgilangan, yuz deyarli ishlanmagan, past tomonida tugallik yo'q, lekin shunga qaramasdan, haykal o'zining to'laqonligi, ichki kuchga to'laligi bilan yaxshi taassurot qoldiradi.

Mezolit yoki o'rta tosh asrida odamlar katta bo'limgan to'daga ajragan holda yashay boshlashlari ularga bir joydan ikkinchi joyga erkin ko'chib o'tish, katta er

maydonlaridan foydalanish imkoniyatini berdi. Qurollarning (mehnat va ov qurollari) ixcham, qulay bo'lishiga e'tibor kuchaydi. O'q, kamon -yoym, qayiqlarning ixtiro qilinishi ibtidoiy jamoa kishisining hayoti yanada yaxshilanishini ta'minladi. Odamlar yog'och, qamishdan foydalanib, o'zlariga kerakli buyumlar yasay boshladilar.

Sharqiy Ispaniya, Kavkaz, O'rta Osiyodan topilgan suratlar diqqatga sazovordir. «Kiyiklarni ovlash» (Ispaniya) suratlarida obrazlar shartli (kamon otayotgan ovchilardan bu shartlilik yaqqol seziladi), sxematik, o'ta soddalashtirilgan holda tasvirlangan. Lekin bu shartlilik rassom aytmoqchi bo'lgan fikrni tushunishga xalaqit bermaydi. Ov manzarasidagi holat - kiyiklarning jon talvasada qochishi, ovchilarning epchillik bilan olib borayotgan hujumlari, ov paytidagi shijoat, hayajon ibtidoiy jamoa rassomi tamonidan ifodali talqin etilgan. O'rta Osiyo (Surxondaryo, Farg'ona), Ozarbayjon (Kobiston) dan topilgan suratlarda ham shu holni ko'ramiz. Zaravutsoy (Surxondaryo), Seymalitosh (Farg'ona) suratlari mashhurdir. Bu suratlarda ovchilarning hayvonlarga hujumi aks ettirilgan. Zaravutsoydagi niqobkiyim, o'ljasiga yaqinlashayotgan ovchilarni aks ettirgan surat o'tmishtayotining ma'naviy dunyosini bilishga xizmat qiladi. Kulolchilik va boshqa buyumlarni naqsh bilan bezash keng tus oldi, parallel, spiralsimon va to'lqinsimon chiziqlar, kontsentrik aylanalar shu davrdagi ko'pgina naqshlarning asosini tashkil etadi. Geometrik naqshlar asta-sekin sxematik odam, hayvon va o'simliklar dunyosidan olingan shakllar bilan boyitilib, mazmunan kengayib bordi. Uning elementlari koinot kuchlarining ramziy belgilarini aks ettira bordi. Masalan, rozetka - quyosh ramzi, to'lqinsimon chiziq - harakat, suv ramzi va h.o.

### **Nazorat topshiriqlari:**

1. Ibtidoiy jamoa davri tarixini o'rganishning muhim manbai nima?  
A) Moddiy yodgorliklar, jasdalarining qoldiqlari, surat va bo'rtma haykallar.  
V) Moddiy yodgorliklar, estetik qarashlar.  
S) Rangtasvir, grafika turlaridagi tarixiy asarlar.  
D) Tarixiy asarlar
2. G'arbiy Evropada tanilgan «Villenrorf Venerasi» qanday hajmga ega?  
A) 0,60 m  
V) 0,06 m  
S) 0,16 m  
D) 0,17 m
3. Eramizdan oldingi 3-2 ming yilliklar qanday nom bilan yuritiladi?  
A) Tosh asri  
V) Mis va bronza  
S) Temir asri  
D) Bronza asri
4. To'lqinsimon chiziq qanday ramz ifodasini kasb etgan?  
A) Quyosh ramzi  
V) Shamol, suv ramzi  
S) Harakat, suv ramzi

## D) Suv ramzi

**2-asosiy masala bo'yicha darsning maqsadi:** eramizdan avvalgi ming yilliklarda me'morchilik tasviriy va amaliy san'at durdonalari bilan talabalarini tanishtirish, ularning millatimiz tarixini o'rganishdagi ahamiyati kattaligini tushuntirish.

### **Identiv o'quv maqsadi:**

- 2.1. O'zbekiston shaharlarida topilgan zargarlik buyumlari va ularning harakterlarini esga oladilar.
- 2.2. O'rta Osiyodagi ranglar bilan ishlangan naqshli topilmalarga izoh beradilar.

### **2-asosiy masalaning bayoni:**

Bronza asri eramizdan avvalgi 3 ming yillik o'rtalarida bo'lib, odamlar misni qalay, qo'rg'oshin, rux yoki surma bilan eritib, bronza tayyorlashni o'rganib oldilar.

Bronza qurollar, yaroq-aslaha, zebu ziynat yasash uchun asosiy material bo'lib qoldi. Er yuzida bronza asri boshlandi. Bronza asrini deyarli hamma xalq va elatlar boshidan kechirdi. Lekin bu asr ba'zi xalqlarda ( Masalan, Eron, Mesopotamiya, Kavkaz, O'rta Osiyo) bir muncha erta, eramizdan avvalgi 3 minginchchi yillar o'rtalarida boshlangan bo'lsa, boshqa erlarda (masalan, Kichik Osiyo, Suriya, Falastin, Kipr va Qrimda) eramizdan avvalgi 3 va 2 minginchchi yillar chegarasida, Misr, Xitoy, Hindiston, Evropada eramizdan avvalgi 2 minginchchi yillarda sodir bo'ldi. Bronzaning ixtiro etilishi inson tafakkurining muhim g'alabasi edi. Bu ixtiro ijtimoiy hayot taraqqiyotini yanada tezlashtirdi, ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirdi, mehnat unumdorligini oshirib, qo'shimcha mahsulot to'planishini ta'minladiki, bu o'z navbatida inson ma'naviy olamining o'zgarishi va boyishiga olib keldi.

O'rta Osiyo erlarda bronza asri eramizdan avvalgi 3 ming yillik o'rtalariga to'g'ri keladi. Bu erlarda materiallardan buyumlar ishlash keng tarqaldi. Jumladan, Farg'onadan topilgan bilako'zuklarda qo'y va sher tasviri, ayniqsa, ta'sirli chiqqan. Bronza asrida O'rta Osiyoda kulolchilik yanada rivojlandi. Kulolchilik dastgohlarining yuzaga kelishi, so'zsiz, yaratilgan buyumlarning yanada nafis va go'zal bo'lishini ta'minladi. Chustdan topilgan qizil fonga qora bo'yoqlar bilan rasm va naqshlar ishlangan sopol buyumlar diqqatga sazavordir.

Temir asri. Ibtidoiy jamoa tuzumining so'nggi bosqichi bo'lган temir asri, «harbiy demokratiya» insoniyat ma'naviy dunyosining murakkablashishi, ijtimoiy hayotda urush, talon - taroqlikning kuchayishi va jamoada harbiy rahbarlarning roli ortishi bilan karakterlanadi. Ijtimoiy hayotga kirib kelgan temir, tosh va qisman bronza buyumlarini hayotdan siqib chiqardi. O'z xususiyati jihatidan mustahkam bo'lган bu metall ishlab chiqarish kuchlarining ortishi va mehnat unumdoligini kuchaytirishga samarali ta'sir qildi, ayniqsa, dehqonchilik imkoniyatlarini kengaytirdi.

Temir asrida ham amaliy-dekorativ san'at etakchi o'rinni egalladi. Kulolchilik texnikasining murakkablashishi, kulolchilik uchun dastgohlarning keng ko'lamda

ishlatilishi uning sifatini o'zgartirishda yangi tur va formalarini yuzaga keltirdi. Bezash ishlarida geometrik naqshlardan tashqari, syujetli kompozitsiyalardan foydalanish tendentsiyalari rivojlandi.

### **Nazorat topshiriqlari:**

1. Farg'onada topilgan ko'y va sher tasviri tushirilgan bilakuzuklar qaysi davrda ishlangan?  
A) Bronza asrida  
V) Tosh asrida  
S) Temir asrida  
D) Barcha javoblar to'g'ri
2. Qizil fonga qora bo'yoqlar bilan naqsh ishlangan sopol buyumlar O'rta Osiyoning qaysi shaharlarida topilgan?  
A) Chust  
B) Shaxrisabz  
S) Toshkent  
D) Buxoro

### **Mustaqil ish topshiriqlari**

1. Ibtidoiy jamoa tuzumi taraqqiyoti bosqichlari.
2. O'zbekiston xududidagi ibtidoiy jamoa davri yodgorliklari.

### **Mavzuga oid xulosalar**

Tasviriy san'at qadim zamonlarda mehnat jarayonida paydo bo'ldi. Bugunga kelib, tasviriy san'atning tur va janrlari shakllandi. Shu bilan birga, insoniyat yaratib qoldirgan madaniy qadriyatlar oddiy boyliklar bo'lib qolmay, balki o'zida insonning hayot to'g'risidagi fikr-o'ylarini aks ettiruvchi ko'zgudir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Abdiev V. I. «Qadimgi Sharq tarixi» -T.: Sharq 1965. 14-18-b.
2. «Vseobhaya istoriya iskusstv» Tom-1 M.: Iskusstvo 1956. 7-10-b.

## **MAVZU: №3. QADIMGI SHARQDAGI QULDORLIK DAVLATLARI SAN'ATI.**

### **Mashg'ulot turi – ma'ruza.**

**Mashg`ulot shakli:** Obrazli-ma`ruza tushunib olish, esda qolishi kerak bo`lgan bilimlar zahirasini talabalarga ilmiy ma'lumotlarni bayon etish va tushuntirishga qaratilgan.

### **Asosiy masalalar**

1. Qadimgi Sharq tushunchasi, uning geografik va davriy chegarasi.
2. Qadimgi Sharqda quzdorlik davlatlarining yuzaga kelishi.

**Tayanch tushuncha va iboralar:** Riton – hayvonlar shoxi yoki fil suyagidan yasalgan o'zun konussimon, uch tomoni qayrilib boruvchi idish. Roza – dumaloq deraza. Tampan – peshtoq. Oyna, eshik tepasida qoldirilgan yarim ark ichidagi yuza.

### **Mavzuga oid muammolar:**

1. Qadimgi dunyo san'ati tarixi nimani o'rgatadi, ularning o'ziga xos xususiyatlari qanday?
2. Qadimgi Sharq san'ati hunarmandchilikning bir qismi bo'lib qolgan. Sababi nimada deb o'ylaysiz.
3. Qadimgi dunyo san'ati turlari qanday, ularning farqi nima?

**1-asosiy masala bo'yicha darsning maqsadi:** talabalarda Qadimgi Sharq tushunchasini shakllantirish, san'atning kelib chiqishi va ahamiyati haqida tushuncha berish.

### **Identiv o'quv maqsadlari:**

1. Qadimgi dunyo san'ati tarixi nimani o'rgatishi haqida gapirib beradilar.
2. Qadimgi Sharq san'atida ishlangan asarlarning qaysi tomonlama e'tiborga sazovorligi haqida tushuncha beradilar.

### **1-asosiy masalaning bayoni:**

#### Qadimgi dunyo san'ati.

Qadimgi dunyo san'ati tarixi er yuzida quldorlik formatsiyasining paydo bo'lishi, rivojlanishi va inqirozga yuz tutishi davridagi san'atni o'rganadi va tahlil qiladi.

Kuldorlik formatsiyasining maydonga kelishi tarixiy zarurat bo'lib, avvalgi formatsiyaga nisbatan progressiv ahamiyatga ega edi. U ishlab chiqarish kuch va madaniyatining keyingi taraqqiyotini belgiladi. Qullarni ekspluatatsiya qilishi aqliy mehnatni jismoniy mehnatdan ajratib yubordi. Bu esa, o'z navbatida, inson ma'naviy dunyosining rivojlanishiga, jumladan, san'atning ravnaqiga zamin yaratdi. Agar sinsiz jamiyat davrida san'at insoning kundalik hayoti, ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq bo'lga bo'lsa, endilikda u ijtimoiy ongning ajralmas qismiga aylandi va sinfiy kurash ijtimoiy hayotda muhim o'rinni tuta boshladi. Ijtimoiy hayotning murakkablashishi san'atni obrazli bilish asosida kengaytirildi. Bu davrda san'at taraqqiyoti bevosita din, mifologik tushunchalar zaminida rivojlanishini davom ettirgan bo'lsa ham, lekin birmuncha tantanali ruh ola boshladi.

San'atda voqelikni obrazli bilish tomonlari kuchaydi. Uning tur va janrlari kengaydi. Bu davrda san'atda sintez masalasining hal etilishi esa insoniyatning qo'lga kiritgan buyuk yutuqlaridan bo'ldi. Qadimgi dunyo san'atining yana bir muhim tomoni shu bo'ldiki, unda milliy o'ziga xos tomonlar yakqol ko'zga tashlana bordi. Katta-katta madaniyat markazlari vujudga keldi. Ularning san'atlari bir-biridan ko'rinishi, harakteri, voqelikni obrazli ifoda etishi bilan ajralib turadi.

#### Qadimgi Sharq san'ati.

Qadimgi Sharq iborasi shartli bo'lib, odatda Qadimgi Grek – Rim davlatlaridan sharqda va janubda joylashgan geografik mintaqasi nazarda tutiladi. Shimoli sharqiy Afrikada Tunisdan (bu erda Qadimgi Karfagen davlati mavjud bo'lga) to Yaponiyagacha cho'zilgan Habashistondan (Efiopiya) Kavkaz tog'larigacha, Orol dengizining janubiy qirg'oqlaridan Hindiston, Xitoy, Indoneziya, Koreya erlarigacha

o'z ichiga qamrab olgan bu katta maydonda qadim paytlarda bir qancha yirik quzdorlik davlatlari mavjud bo'lgan. Ular jahon san'ati tarixi taraqqiyotiga katta hissa qo'shdilar. Qadimgi Misr podsholigi, Old Osiyodagi Shumer, Akkad, Bobil (Vaviloniya), Ossuriya, Uratu, Xett davlatlari, Eron imperiyasi, O'rta Osiyo, Hindiston, Xitoy, va Janubi sharqiy Osiyodagi davlat va podsholiklar jahon madaniyati tarixida o'chmas iz qoldirdilar. Qadimgi Sharq xalqlari san'ati va madaniyati tarixi katta davrni o'z ichiga oladi. Eramizdan avvalgi 5000 – 4000 yillardayoq bu erlarda sinfiy jamiyat yangi eraning boshlarigacha davom etdi.

Qadimgi Sharqda san'at uzoq vaqt hunarmandchilikning bir qismi sifatida qolaverdi. Ishlangan asarlarning texnik tomoniga alohida e'tibor berish sezilarli darajada bo'ldi. Sharq san'atining realizmi ham o'ziga xos xususiyatga ega. U ko'pincha voqelik, kishilar va tushunchalarni fantastik obrazlarda, ramziy va shartli belgilarda tantanali ulug'vor qilib ifodalaydi. Albatta, Sharq san'atida hayot ko'rinishi hayotiy shakllarda, tub mohiyati bilan aks ettiruvchi asarlar borligini inkor etib bo'lmaydi (masalan, Misr va Old Osiyo portretlari) lekin bu umumtaraqqiyot fonida ma'lum davrning yorqin yulduzlari yoki bosqichi sifatida paydo bo'lib, yana sunadi.

### **Nazorat topshiriqlari:**

1. Qadimgi dunyo san'ati tarixi nimani o'rganadi?  
A) Quldarlikning paydo bo'lishi, rivojlanishi, inqirozga yuz tutishi davridagi san'atini.  
V) Eramizdan oldingi davr san'atini  
S) IX asr san'atini.  
D) XX asr san'atini
2. «Qadimgi Sharq» iborasi orqali qaysi mintaqqa nazarda tutiladi?  
A) Vashingtondan Qadimgi Rimgacha bo'lgan mintaqqa.  
V) Qadimgi Grek Rim davlatlaridan sharqda va janubda joylashgan grafik mintaqqa.  
S) Quldarlik davridagi hamma davlatlar.  
D) Barcha javoblar to'g'ri
3. Qadimgi Sharq san'atida ishlangan asarlarining qaysi tomonlariga e'tibor beriladi.  
A) Texnik tomonlarga  
V) Rang-barangligiga  
S) Kompozitsion echimiga  
D) Barcha javoblar noto'g'ri

### **Mustaqil ish topshiriqlari**

1. Qadimgi Sharqda quzdorlik davlatlari haqida so'zlang.
2. Qadimiy Sharqda san'atning rivojlanishi.

## **Mavzuga oid xulosalar**

Quldarlik tuzumining maydonga kelishi avvalgi tuzumga nisbatan progressiv ahamiyatga ega bo'lib, Sharqdagi bir qancha davlatlarning yuksalishiga olib keldi. Shu bilan birga, san'atning gullab yashnashiga poydevor bo'lib xizmat qildi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdullaev N. U. «San'at tarixi» Tom -1. -T.: O'qituvchi. 1986. 24-30-b.
2. «Vseobhaya istoriya iskusstv» Tom-2.-M.: Iskusstvo. 1958. 34-47 s.

## **Mavzu: №4. QADIMGI MISR SAN'ATI.**

### **Qadimgi Misr san'ati va madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari.**

#### **Mashg'ulot turi – ma'ruza.**

**Mashg'ulot shakli:** Obrazli-ma`ruza tushunib olish, esda qolishi kerak bo`lgan bilimlar zahirasini talabalarga ilmiy ma'lumotlarni bayon etish va tushuntirishga qaratilgan.

#### **Asosiy masalalar.**

Qadimgi Misr san'ati.

Uning geografik o'rni, davriy chegarasi hamda uning taraqqiyotining asosiy bosqichlari.

**Tayanch tushuncha va iboralar:** Forum shaharning markaziy maydoni. Freska - suvoq qilingan devor ustiga to'g'ridan - to'g'ri ishlangan, monumental rangtasvirning bir turi.

#### **Mavzuga oid muammolar**

1. Qadimgi Misr san'ati qaysi asrda rivojlangan? Uning o'ziga xos xususiyatlari nimada deb o'ylaysiz?
2. Misrda qanday piramidalar qurilgan? Ularning ichida eng kattasi qandayligi haqida bilasizmi?
3. Qadimgi Misr me'morchiligining yutug'i nimada deb o'ylaysiz.

**1-asosiy masala bo'yicha darsning maqsadi:** Qadimgi Misr san'ati, uning mazmun va mohiyati haqida, uning o'ziga xosligi bilan ajralib turishi haqida gapirib berish.

#### **Identiv o'quv maqsadlari:**

Qadimgi Misr realistik san'ati va udumlari haqida gapirib beradilar. Qadimgi Misrning Ellin dunyosi san'ati bilan qo'shilish sabablari va shu davr san'at asarlari haqida fikr yuritadilar.

#### **1-asosiy masalaning bayoni:**

Qadimgi Misr san'ati.

Afrikaning shimoli-sharqida, Nil daryosining quyi vohasida bugungi Misr arab respublikasi erlarida juda qadim paytlarda (er.av. VI ming yillik) bir qancha qabilalar yashagan. Eramizdan avvalgi 4000 yillikda shu erda er yuzida birinchi sinfiy jamiyat kurtaklari nish urdi, quldorlik davlatlari yuzaga keldi, rivojlandi. Eramizdan avvalgi 4000 yillik oxiri - 3000 yillik boshlariga kelib esa ular yagona yirik despotik davlatga aylandi. Qadimgi Misr san'ati tarixi ana shu davlatlarning yuzaga kelishi, rivojlanishi va inqirozidan tortib, to makedoniyalik Iskandar (Aleksandr Makedonskiy) ning yurishi bilan uning ellistik dunyoga qo'shilib ketishigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi, o'rganadi, tahlil etadi. Qadimgi Misr uzoq yo'lni bosib o'tdi. Deyarli 4000 yildan ortiq vaqtini o'z ichiga olgan bu davr mobaynida tasviriy va amaliy san'at, me'morchilikning nodir durdonalari yuzaga keldiki, ular bugungi kunda ham o'zining ulug'vorligi va yuksak badiyiliqi bilan kishilarni hayajonlantiradi. Qadimgi Misr san'ati o'zining butun taraqqiyoti mobaynida din va uning turli marosimlari bilan uzviy bog'liq holda rivoj topdi. Me'morchilik esa san'atlar ichida etakchi o'rinni egallab, ularning harakter va uslubiga o'z ta'sirini o'tkazdi. Eramizdan avvalgi XXVII asrlarda Misr tarixida eng gigant piramidalar qurildi. Piramidalar ansambli ichida eng kattasi Xeops piramidasidir. Balandligi 146,6 metr, asosi esa 233 metr. Tarixchi Gerodotning ta'rifiga ko'ra, Xeops piramidi 20 yil mobaynida qurilgan. Piramidaga toshlar olib kelish uchun kerak bo'lган yo'lни qurish uchun esa 10 yil ketgan.

Fivadagi Karnak va Luksor ibodatxonalari gigant me'morchilik majmualardandir. Karnak (er.av. XVI asr, me'mor Ineni) va Luksor ibodatxonalari (er. av. XV asr, me'mor Kichik Aminxotep) me'morlar birinchi bor ochiq hovli atrofini kolonadali echib, yangi podsholik me'morchiligining o'ziga xos tomonlarining shakllanishiga asos soldilar. Bu majmualarda Qadimgi Misr me'morlik an'analarining muhim tomonlari o'z ifodasini topdi, shu bilan birga, tantanali va hashamatli bo'lib borayotgan marosimlar bilan aloqador bo'lган me'morchilikning yangi ko'rinishlari namoyon bo'ldi.

Tasviriy san'at. Qadimgi Misr tasviriy san'ati me'morchilik bilan bog'liq holda rivoj topdi. Ijtimoiy hayotning murakkablashib borishi va sinfiy jamiyatning yuzaga kelishi bilan u boshqaruvchi sinfnинг kuchli ideologik quroliga aylandi.

Dinastiyagacha bo'lган davrdan bizgacha ko'pgina haykaltaroshlik, rassomlik va amaliy san'at namunalari etib kelgan. Shular ichida turli diniy-magik marosilar o'tkazishda bo'yoqlar qorishtirish uchun foydalanilgan yassi, yupqa, kulrang, yashil, qoratosh - shifr plitalar alohida o'rin egallaydi.

Rassomchilikda yangi mavzular ham keng o'rinni egallay boshladи. Rassomlar har bir obraz xatti-harakatining tabiiy va go'zal bo'lishiga e'tibor bera boshladilar. Mayda plastinada janrli kompozitsiyalar yaratish odamlarni harakatda ko'rsatish hollari, oddiy kishilar mehnatini tasvirlash bu davrda keng rivojlandi.

Qadimgi Misr realistik san'atining eng gullagan davri yangi podsholikka to'g'ri keldi. Rassom va haykaltaroshlar zodagonlar hayotiga bag'ishlangan serjilo devoriy suratlar, nafis releflar va haykaltaroshlik asarlari yaratdilar. Ular asarlar mobaynida saqlanib kelayotgan qonunlardan chetga chiqib, hayotiy kompozitsiyalar yaratdilar, emotsiyal tomonlariga e'tibor qaratdilar.

Amaliy dekorativ san'at borasida ham misrliklar ajoyib namunalar yaratib qoldirdilar. Ganch va toshlardan yasalgan ajoyib ko'zalar, inkrustatsiya uslubida oltin va qimmatbaho toshlardan ishlangan bezak buyumlar, nodir daraxt yog'ochidan yasalib, oltin va fil suyagi bilan bezatilgan mebellar qadimgi podsholik davridayoq yuksaklikka erishdi. O'rta va yangi podsholik davrida esa u yanada nafislashib bordi. «Oqib borayotgan qiz» deb nom olgan pardoz qoshiqchasi shu o'rinda diqqatga sazovordir.

Eramizning 1000 yillaridan boshlab Misr erlarining parchalanishi san'at taraqqiyotini birmuncha susaytirdi. Misr ijtimoiy hayotidagi jonlanish eramizdan avvalgi VII asrlarda boshlandi. Lekin bu uzoqqa cho'zilmadi. Eramizdan avvalgi VI asrlarda eronliklar so'ngi er. av. IV asrda Aleksandr Makedonskiy tamonidan Misr erlarining bosib olinishi uning o'ziga xos san'atida asta-sekin sunish va Ellin dunyosi san'ati bilan qo'shilib ketishiga sabab bo'ldi.

Misr san'ati umumjahon san'ati taraqqiyoti jarayonida alohida o'ziga xos qaytarilmas o'rinni egallaydi. Qadimgi Misrning yuksak did va aql-zakovat, bilim bilan bajarilgan nodir san'at namunalari esa insoniyat badiiy matabining ajoyib durdonasi hisoblanadi. Bu namunalar o'zidan keyingi jahon san'ati taraqqiyoti uchun taqlid matabini o'tadi. Gretsiya, Rim xalqlari bu san'atdan bahramand bo'lib, uni har tomonlama o'rgandilar, davrga mos asarlar yaratish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

### **Nazorat topshiriqlari:**

1. Qadimgi Misrda diniy-magik marosimlar o'tkazishda qanday plitalardan foydalanilgan?
  - A) Yassi, yupqa, kulrang, yashil, qora tosh shifer.
  - V) Qalin, tsement, plitalar.
  - S) Yogoch parketlardan.
  - D) Qoratosh, shifer
2. Qadimgi Misr realistik san'atining eng gullagan davri qanday davrga to'g'ri keladi?
  - A) Yuksalish davriga
  - V) Yangi podshohlik davriga
  - S) Krizis davriga.
  - D) Barcha javoblar to'g'ri
3. «Oqib borayotgan qiz» pardoz qoshiqchasi qachon yaratilgan?
  - A) YI asrda
  - V) Er. av. 4000 yilda.
  - S) O'rta va yangi
  - D) er.av. 5000 yilda
4. Qadimgi Misr san'atini Ellin dunyosi san'ati bilan qo'shilib ketishiga nima sabab bo'ladi?
  - A) A.Makedonskiy tomonidan bosib olinishi.
  - V) San'atning rivojlanishi.
  - S) Savdogarlarning harakatlari.
  - D) Misrning rivojlanishi

### **Nazorat topshiriqlari:**

1. Eramizdan avvalgi YI ming yilda qabilalar qaysi daryo bo'ylarida yashagan?  
A) Neva daryosi  
V) Nil daryosi  
S) Sirdaryo  
D) Norin
2. Qadimgi Misr san'ati tarixi qaysi davrgacha bo'lgan vaqtini o'z ichiga oladi?  
A) Er. av. VI ming yillarni.  
V) Ellistik dunyoga qo'shilgungacha bo'lgan davrni.  
S) Piramidalar qurilgan vaqtgacha bo'lgan davrni  
D) Er. av. VII ming yillarni
3. Qadimgi Misrda san'atning qaysi turi etakchi o'rinni egallab turadi?  
A) Kulolchilik  
V) Dekorativ san'at  
S) Me'morchilik  
D) Barcha javob noto'g'ri
4. Xeops piramidasining balandligi necha metrga teng?  
A) 146, 6m  
V) 156,6 m  
S) 160, 4 m  
D) 160, 6 m

### **Mustaqil ish toopshiriqlari**

1. Qadimgi Misrda san'atning rivojlanishi.
2. Qadimgi Misrda me'morchilik.
3. Qadimgi Misrda tasviriylar san'at.

### **Mavzuga oid xulosalar**

Qadimgi Misrda tasviriylar san'at me'morchilik bilan bog'liq holda rivoj topdi. Sinfiy jamiyatning yuzaga kelishi va ijtimoiy hayotning murakkablashuvi bilan tasviriylar san'at boshqaruvchi sinfning kuchli g'oyaviy quroliga aylandi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston entsiklopediyasi. Tom -7. –T.: 1976.  
282 - 287-b.
2. Abdullaev M. U. «San'at tarixi» Tom - 1. –T.: O'qituvchi. 1986. 22-28-b.

### **Mavzu: №5 OLD OSIYO SAN'ATI.**

**Mashg'ulot turi – ma'ruza.**

**Mashg'ulot shakli:** Obrazli-ma`ruza tushunib olish, esda qolishi kerak bo`lgan bilimlar zahirasini talabalarga ilmiy ma'lumotlarni bayon etish va tushuntirishga qaratilgan.

## **Asosiy masalalar**

Old Osiyoning geografik o'rni va davriy chegarasi.

Xalqlar va davlatlar san'atidagi o'xshashlik va o'ziga xos tomonlari hamda me'morchilik va haykaltaroshlik.

**Tayanch tushuncha va iboralar:** Syujet (frants. – predmet, narsa). Tasviriy san'atda – tasvirlangan predmet yoki voqeа tushuniladi. Haykaltaroshlik – tasviriy san'atning turlaridan biri.

## **Mavzuga oid muammolar**

1. Old Osiyo san'atida badiiy tarixiy yodgorliklar qaerda uchraydi va ularning bir-biridan farqi nimada deb o'ylaysiz?
2. Old Osiyo san'atida monumental me'morchilikning tutgan o'rniga sizning munosabatingiz qanday?
3. Shumer davlatida san'atning rivojlanishiga asosiy sabab nimada deb o'ylaysiz?

**1-asosiy masala bo'yicha darsning maqsadi:** talabalarga Old Osiyoning geografik o'rni va davriy chegarasi haqida ma'lumot berish. Undagi san'atning rivojlanishining o'ziga xos tomonlari bilan tanishtirish.

### **Identiv o'quv maqsadlari:**

Bobilda ongli rivojlanish davri va undagi shaharlarni sanab o'tadilar. Bobil minorasi haqida ma'lumot beradilar va uning san'ati haqida fikr yuritadilar.

### **1-asosiy masalaning bayoni:**

Dajla va Efrot daryolari vohasida, O'rta er dengizi havzasining sharqiy sohillari hamda Kichik Osiyoning markaziy tog'lik rayonlari hududida eramizdan avvalgi Urartu, Bobil kabi davlatlar mavjud bo'lib, ular jahon san'ati tarixiga o'z hissalarini qo'shishgan. Bu davlatlarning so'ngisi Bobil (Vaviloniya) eramizdan avvalgi 539 yili Eron tomonidan tobe qilib olinadi va shu bilan Old Osiyoning qadimiy tarixi tugallanadi.

Old Osiyoning badiiy-tarixiy yodgorliklari Misr san'ati singari keng va rang-barang. Bu erda hashamatli saroy va ibodatxonalar qurildi. Dumaloq haykaltaroshlik va relefda ajoyib o'rta dinamik, plastik go'zal asarlar yaratildi. Devoriy suratlar, nozik amaliy-dekorativ buyumlar ishlandi. Lekin bu yodgorliklar bizgacha kam etib kelgan. Bunga sabab Old Osiyoning asosiy qismini tashkil qilgan ikki daryo oralig'i (Mesopotamiya) bir – birini almashtirib turgan yangi-yangi davlatlar o'rtasida mamlakatga hukmronlik qilish uchun doimiy kurash borgan bo'lsa, ikkinchi tomonidan, me'morlik va tasviriy san'atning turlarini rivojlantirish uchun tosh, yog'och va materiallar etarli bo'lmanidan deyish mumkin. Saqlanib qolgan yodgorliklar, ularning qoldiqlari Old Osiyoda eramizdan avvalgi 4000 – 300 yillardayoq bu erda o'ziga xos san'at paydo bo'lganligi va rivojlanganligidan dalolat beradi. Shu erda yozuv paydo bo'ldi, me'morchilik turlari yuzaga keldi,

hunarmandchilik rivoj topdi.

Old Osiyo san'atida ham monumental me'morchilik etakchi o'rinni egallagan, san'atning boshqa turlari u bilan bog'liq holda rivojlangan.

Old Osiyoning qadimgi davrga xos bo'lган tasviriy san'at xususiyatlari Shumer va Akkad davlatlarida (er. av. 4000 yillik oxiri) ko'rinadi. Bu arning haykaltaroshligi va mayda plastinkasi misrliklar haykaltaroshligiga nisbatan bir muncha sodda bo'lsa ham, lekin o'zining ifodali ishlanganligi bilan esda yaxshi qoladi. Releflarda esa tarixiy voqealar, jang yurishlari ishlangan. Bu erda dumaloq haykaltaroshlik va gliptika keng tarqalgan. Haykallar ko'p hollarda yorin bo'yoq bilan buyalgan bo'lib, inkrustatsiya uslubida ishlangan haykallarni eslatadi. Monumental haykaltaroshlik asrlarida har bir tasvirlanuvchining individual xususiyatlarini ochib berishga, ichki dunyosini yaratishga intilish seziladi. Ur shahridan topilgan ayol boshi haykali (er. av. XXXI-XXI asrlar), Lagash hoqimi Gudea haykalida shu xislatlarni sezish mumkin.

«Naramsin – stellasi» (er. av. 2300 yillar) davrining mushhur asarlaridandir. U podsho Naramsining tog'li qabilalar ustidan erishgan g'alabasiga bag'ishlanadi. Bir to'da jangchilarga bosh bo'lib ketayotgan Naramsin va jangchilar harakati tabiiy chiqqan, tog' manzarasi, tabiat ko'rinishi ham relief kompozitsiyasi hayotiyigini oshiradi.

### **Nazorat topshiriqlari:**

1. Bobil qachondan yangi rivojlanish davrini boshladi?  
A) Er.av. 1000 yillarda.  
V) Er. av. YII asr oxiriga kelib  
S) A.Makedonskiy bosib olgandan keyin.  
D) Er. av. 5000 ming yillarda
2. Bobilda shaharning necha darvozasi bo'lgan?  
A) 8 ta  
V) 2 ta  
S) 6 ta  
D) 5 ta
3. Bosh ibodatxona yonida qurilgan Bobil minorasining balandligi qancha?  
A) 80 m  
V) 90 m  
S) 60 m  
D) 70 m
4. Bobil san'ati qachongacha davom etdi?  
A) er.av. VI ming yilgacha  
V) er. av. 600 yilgacha.  
S) er. av. 539 yilgacha.  
D) ep. av. 500 yilgacha.

**2-asosiy masala bo'yicha darsning maqsadi:** xalqlar va davlatlar san'atidagi o'xhashlik va o'ziga xos tomonlari hamda me'morchilik va haykaltaroshlik

san'atlari bilan talabalarni yaqindan tanishtirish.

**Identiv o'quv maqsadlari:** 2.1. Nima uchun Old Osiyo badiiy-tarixiy, tarkibiy yodgorliklari bizgacha kam etib kelganini tushuntirib beradilar.

2.2. Old Osiyo san'atining etakchi turlari haqida va o'sha davrning o'ziga xos tasviriy san'at haqida so'zlab beradilar.

**2-asosiy masalaning bayoni:** Eramizdan avvalgi 1 yillikdagi Ossuriya yirik quldorlik davlatiga aylandi. Eramizdan avvalgi VII asrga kelib, u butun Old Osyonni o'ziga bo'yendirib oldi, yagona davlat tashkil etdi.

Shu davrda hashamatli saroy, ibodatxonalar vujudga keldi, suronli janglar, ov manzaralarini ifodalovchi hayajonli bo'rtma tasvirlar yaratildi.

Dur-Sharruken (hozirgi Xorsabod) dagi Sargon II saroyi xarobalari (er. av. VIII asrning ikkinchi yarmi) shu davr monumental me'morchiligining xarakterli tomonini ko'rsatishda muhim o'rinni tutadi. Bu saroy balandligi 14 m. sun'iy tepalikka qurilgan bo'lib, u qalin devor bilan o'ralgan. Saroy mehmonxonasi, yotoqxona va diniy marosimlarga mo'ljallangan xonalardan iborat bo'lib, ular alohida ochiq hovli atrofida joylashtirilgan. Saroya kiraverish darvozalarining ikki yon tomoniga esa qanotli, odam boshli qo'tos o'rnatilgan. U haykal tabiiy kuchlar ramzi bo'lib, podshoni «yomon ko'zdan» asrash uchun xizmat qilgan. Saroy xonalari devoriy surat va bo'rtma tasvirlar bilan bezatilgan. Bu tasvirlarda podshoning harbiy yurishlari va afsonaviy qahramon Gigalmish qahramonliklari ifodalanadi.

Eramizdan avvalgi VII asr oxiriga kelib, Bobil yangi rivojlanish davrini boshidan kechira boshladi. Nuvuxodonosor II (er. av. 605-565 yillar) podsholik qilgan yillar Bobilda shahar qurilishi ishlari avj oldirib yuborildi, shahar qurilishi reja asosida tiklanib, yangi binolar qurildi, atrofi qalin devor bilan o'rabb chiqildi. Shaharning sakkiz darvozasi bo'lib, ular ichida Ishtor darvozasi o'zining ko'rkam, serhashamatligi bilan ajralib turadi. Shu darvozadan shaharning bosh ibodatxonasiga boradigan yul boshlanar edi. Bosh ibodatxona yonida esa 90 metrlik katta Bobil minorasi qurilgan edi. Navuxodonosor II ham serhasham, bezakka boy bo'lib, «osma boglar» qo'ynida ertaknomaga ko'rinishni kashf etgan edi. Bobil san'ati o'zoqqa cho'zilmadi. U eramizdan avvalgi 539 yili Eron qo'shinlari tomonidan bosib olindi. Shu bilan Old Osiyo xalqlari qadimiy san'ati tarixining umri tugadi.

### Nazorat topshiriqlari

1. Old Osyonning badiiy tarixiy yodgorliklari nima uchun bizgacha juda kam etib kelgan?

A) Doimiy kurash bo'lganligi sababli.

V) San'at turlarini rivojlantirish uchun jihozlar etarli bo'limganligi

S) A va V to'g'ri

D) A va S to'g'ri

2. Old Osiyo san'atida qaysi tur etakchi o'rinni egallagan?

A) Monumental me'morchilik

V) Haykaltaroshlik

S) Rangtasvir.

D) qalamtasvir

3. Old Osiyoning qadimgi davrlarga xos bo'lgan tasviriy san'ati qaysi davlatlarda yaqqol ko'rindi?

A) Shumer davlati.

V) Akkad davlati

S) A va V to'g'ri

D) Barcha javob to'g'ri

### **Mustaqil ish topshiriqlari**

1. Oldi Osiyo san'ati haqida so'zlang.

2. Old Osiyo san'atida me'morchilikning o'rni.

3. «Osma bog'lar» haqida so'zlang.

### **Mavzuga oid xulosalar**

Tasviriy san'at qadim zamonlarda mehnat jarayonida paydo bo'ldi. Bugunga kelib, tasviriy san'atning tur va janrlari shakllandi. Shu bilan birga, insoniyat yaratib qoldirgan madaniy qadriyatlar oddiy boyliklar bo'lib qolmay, balki o'zida insonning hayot to'g'risidagi fikr-o'yolarini aks ettiruvchi ko'zgudir

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdiev V. I. «Qadimgi Sharq tarixi»- T. 1965.-20-23-b.

2. Abdullaev N. U. «San'at tarixi» Tom –1. T.: O'qituvchi. 1986.

33-36-b.

## **Mavzu: № 6. QADIMGI ERON VA O'RTA OSIYO SAN'ATI.**

#### **Mashg'ulot turi – ma'ruza.**

**Mashg'ulot shakli:** Obrazli-ma`ruza tushunib olish, esda qolishi kerak bo`lgan bilimlar zahirasini talabalarga ilmiy ma'lumotlarni bayon etish va tushuntirishga qaratilgan.

#### **Asosiy masalalar**

Talabalarni Qadimgi Eron va O'rta Osiyo san'ati, Ahmoniy va Ellin an'analari, me'morchilik va shu davrga oid san'at va madaniyat yodgorliklari bilan tanishtirish.

**Tayanch tushuncha va iboralar:** Peripter - hamma tomondan ustunlar bilan o'ralgan aylana yoki to'rtburchak shaklidagi antik ibodatxona.

#### **Mavzuga oid muammolar**

1. Qadimgi Eron san'ati rivojlanishida eron podsholigining tutgan o'rni nimada deb o'ylaysiz?
2. Eron san'atida muhr yuzasidaga tasvirning rivojlanishiga siz qanday qaraysiz?
3. Ahmoniyalar davri san'ati rivojlanishining O'rta Osiyo san'ati taraqqiyotiga ta'siri bormi? Bor bo'lsa qanday?

**1-asosiy masala bo'yicha darsning maqsadi:** talabalarni Qadimgi Eron va O'rta Osiyo san'ati, ahmoniyalar va Ellin an'analari bilan tanishtirish.

### **Identiv o'quv maqsadi:**

Doro I ning yurishlari haqida va er. av. V boshlarida ahmoniyalar hayoti haqida gapirib beradilar.

Muhr yuzasidagi tasvirga izoh beradilar va Qadimgi Eron san'atida keng uchrovchi tasviriy san'at turi haqida tushuncha beradilar.

### **1-asosiy masalaning bayoni:**

Eramizdan avvalgi VI asrda mavjud bo'lган Eron podsholigi (boshqacha aytganda, ahmoniyalar podsholigi) Sharqdagi eng katta davlatlardan biri hisoblangan. Bu podsholikning asoschisi ahmoniyalar sulolasidan chiqqan Kir II (Kayxusrav II) bo'lган. U dastlab Eronning Janubiy G'arbidagi tog'lik rayonlardan birining hukmdori bo'lган. Eramizdan avvalgi VI asr o'talaridan boshlab, o'z erlarini kengaytirishga kirishgan. Dastlab Midiya podsholigiga qarshi qo'zgolon ko'tarib, uni qahramonlikdan qutiltirgan va Eron hamda Midiya podshosi bo'lib olgan. So'ngra Bobil, O'rta er havzasidagi qator erlarni bosib olib, davlat chegarasini yanada kengaytirgan. Sharqiy chegaralarni ham kengaytirish niyati va rejalarini uning vorislari tomonidan amalga oshirilgan. Doro I yurishlari natijasida bu podsholik chegarasi Orol dengizidan Hind okeanigacha, Kichik Osiyo va Misr erlaridan Xitoy chegaralarigacha borib etgan.

Ahmoniyalar davlati o'zining qisqa, lekin eng gullagan va kuch-quvvatga to'lган davrini eramizdan avvalgi V asr boshlarida kechirdi. Shu davrda uning san'ati va madaniyati ham misli ko'rilmagan darajada ravnaq topdi. Shu asrlarda hashamatli saroylar, mustahkam maqbaralar yuzaga keldi. Oltin va qimmatbaho toshu injulardan nafis uy, ov va jang buyumlari, qurol-aslahalar ishlangan. Serjilo sopol idishlar yasaldi, qimmatbaho matolar to'qildi. Haykaltaroshlik (ko'proq bo'rtma tasvir tarzida), devoriy suratlarning nafis yodgorliklari yuzaga keldi.

Ahmoniyalar davri yodgorliklari ichida tsilindrik muhrlar ham keng o'rinni egallagan. Muhr yuzasiga hayotiy voqealarni aks ettiruvchi tasvirlar tushirilgan. Shoh hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan tasvirlar muhr yuzasiga ishlangan tasvirlarning bosh mavzusini belgiladi. Qadimgi Eron san'atida dumaloq haykallar va ayniqsa, relef keng uchraydi. Bu erda shoh va shahzodalar, turli hayvon va afsonaviy jonivorlar haykallari yaratildi. Buyumlar yuzasiga bo'rtma tasvirlar ishlash, metallardan turli idishlar yasash borasida eronliklar mashhur bo'ldilar. Oltin va boshqa qimmatbaho metallardan yaratilgan uy-anjom buyumlari, qurol-aslahalar, ov qurollari nihoyatda nafis va jimjimador qilib ishlangan. Kulolchilik buyumlari shakl jihatdan rang-barang, geometrik naqshlar, hayotiy syujetlar bilan bezatilgan. Eron

san'atida parchinlar (mayolika) keng qo'llanildi. Ular Eron me'morlik yodgorliklariiga o'ziga xos qaytarilmas joziba kiritdi.

Ahmoniyalar davrida vujudga kelgan san'at O'rta Sharq xalqlari tarixida muhim o'rinni egallaydi. Bu san'at bevosita O'rta Sharqda yashagan xalqlarning o'zaro munosabati natijasida, atrofdagi xalqlar san'ati ta'sirida ravnaq topdi. Jumladan, Persepol va Suza saroylarini qurishda Sug'd, Baqtriya va Xorazmdan kelgan usta va san'atkorlar mehnat qilganliklari haqidagi ma'lumotlar mavjudligi shundan dalolat beradi. Shu bilan birga, ahmoniyalar davri san'ati atrofdagi mamlakatlar san'atiga, jumladan, O'rta Osiyo san'ati taraqqiyotiga ham o'zining sezilarli ta'sirini o'tkazgan.

Eramizdan avvalgi I minginchi yillar O'rta Osiyoda dastlabki ibtidoiy davlatlar shakllana bordi. Zardushtiylik (er. av. VII asr) dini yoyildi. Uning muqaddas kitobi «Avesto» esa shu din qarashlarini targ'ib etadi. Qadimgi O'rta Osiyo san'ati va madaniyatini o'rganishda bizgacha saqlanib kelgan qal'a, saroy, turar joy va qabrular bilan birga zardushtiylar dini bilan bog'liq bo'lgan ossuriylar (astadonlar) deb ataluvchi odamlar suyagini saqlash uchun mo'ljallangan sopoldan yasalgan idishlar muhim daliliy material bo'lib xizmat qiladi.

Eramizdan avvalgi VI - IV asrlarda O'rta Osiyodagi badiiy hayot va madaniyatni tushunishda Amudaryoning yuqori oqimi tomonidan topilgan «Amudaryo boyligi» («Oks boyligi») muhim o'rinni egallaydi. Hozirgi kunda Londondagi Britaniya muzevida saqlanayotgan bu yodgorliklar ichida haykallar, turli ko'za, bilakuzuk, uzuk, muhr, tangalar, oltindan yasalgan aravacha va qurollar diqqatga sazavordir. Bu buyumlarda uchraydigan tasvirlar birmuncha shartli bo'lsa ham, lekin nihoyatda ifodali ishlanganligi bilan ajralib turadi, detallarda ochiq va tugal ishlanishi bilan xarakterlanadi. «Jangchi sak» bo'rtma tasvirida shu fazilatlar mujassamlangan.

### **Nazorat topshiriqlari:**

1. Doro I yurishlari natijasida chegara qaergacha etdi?  
A) Orol dengizidan Hind okeanigacha  
V) Kichik Osiyo va Misr erlaridan Xitoygacha  
S) A va V to'g'ri  
D) Amudaryodan Zarafshon daryosigacha
2. Er. av. Y asr boshlarida ahmoniyalar qanday davrni boshlaridan kechirdi?  
A) Eng gullagan va kuch-quvvatga to'lgan davrni  
V) Inqirozga duch kelgan davrni  
S) Savdo rivojlangan davrni  
D) Barcha javob to'g'ri
3. Muhr yuzasiga qanday tasvir tushirilgan?  
A) Jang tasviri  
V) Hayotiy voqealar tasviri  
S) Manzara tasviri  
D) Dengiz tasviri
4. Qadimgi Eron san'atida tasviriy san'atning qaysi turi keng uchraydi?  
A) Me'morchilik

V) Relef

S) Manzara

D) Barcha javob noto'g'ri

**2-asosiy masala bo'yicha darsning maqsadi:** talabalar bilan me'morchilik va shu davrga oid san'at va madaniyat yodgorliklari bilan tanishtirish, ularga kuzatuvchanlik va hurmat bilan qarashga o'rgatish.

### **Identiv o'quv maqsadi:**

- 2.1. Persepol va Suza saroylari qurilishida qatnashgan usta san'atkorlar haqida axborot beradilar.
- 2.2. O'rta Osiyoda dastlabki ibridoiy davlatlarning shakllanishi va o'sha davr topilmalari haqida tushuncha beradilar.

### **2-asosiy masalaning bayoni:**

Markaziy Qozog'iston qabrlaridan uch oyoqqa o'rnatilgan bronzadan yasalgan qozonlar topilgan. Eramizdan avvalgi VI - IV asrlarda ishlangan bu qozonlarning tepe qismi hayvonlar tasviri, ko'proq tog' echkisi haykali bilan bezatilgan. Markaziy Qozog'iston erlaridan topilgan taqinchoqlarda yovvoyi qush, kiyik va echki tasvirlari uchraydi. Bu tasvirlarda hayvon va qushlarning eng xarakterli belgilari harakat paytida ko'rsatiladi. Aksincha hajmli dumaloq hayvonlarda (ular, asosan, amaliy san'at buyumlarining ajralmas qismi bo'lgan) hayvonlar harakati og'ir va vazmin bo'lib, ular ko'p hollarda soat strelkasi harakatida ko'rsatiladi.

Makedoniyalik Iskandar Zulqarnayn eramizdan avvalgi IV asrlarda ahmoniyalar davlatini tor-mor etib, O'rta Osiyo erlarining ko'pgina qismini o'ziga qaratib oldi. Faqat Xorazm, Farg'ona va Sirdaryo bo'yidagi ko'chmanchi qabilalargina o'z mustaqilligini saqlab qoldilar.

Eramizdan avvalgi III asr O'rtalarida Parfinon davlati (Turkmanistonning janubi-g'arbiy tomoni va Eronning shimoli-sharqiy qismlari) O'rta Sharqning yirik davlatlaridan biri sifatida tanildi. Arshakiylar sulolasi boshqargan davrda esa jahondagi yirik davlatlardan biriga aylandi. Parfinon san'atini o'rganishda ham tanga yuzasiga ishlangan bo'rtma tasvirlar keng o'rinni egallaydi.

Parfiya san'atini tushunishda Ashxobod yaqinida arxeologik qazilmalar natijasida ochilgan Parfinonning yirik shaharlaridan biri hisoblangan Nisa (boshqacha nomi Parfnisa) alohida o'rinni egallaydi. Eski Nisa va yangi Nisa deb ataladigan bu ko'hna shahar qoldiqlari hamda u erdan topilgan amaliy-dekorativ va tasviriy san'at buyumlari o'sha davr badiiy hayotini tushunishda beba ho daliliy material hisoblanadi.

Eski Nisa va yangi Nisa Parfiya davrida qal'a va shahristondan iborat bitta shaharni tashkil etgan. Bu erda Parfiya podshosining saroyi, g'alla, oziq-ovqat ombori hamda zodagonlarning sag'analari bo'lган. Bu erda ochilgan «kvadrat uy» o'z tuzilishi va bezashda ishlatiladigan dekorativ detallari bilan diqqatga sazavordir.

Nisadan topilgan yodgorliklar ichida fil suyagidan shoxga o'xshatib yasalgan idishlar - ritonlar xaqiqiy shov-shuvga sabab bo'ldi. Hajm jihatidan kattagina

(balandligi 40 -60 sm.) bo'lgan bu ritonlarning uch tomonida afsonaviy hayvonlarning yarim beligacha haykali ishlangan. Ritonlarning tepe qismi esa bo'rtma tasvir - friz bilan halqalangan. Bu bo'rtma tasvirlarda ko'proq antik mifologiyadan olingen voqealar, qurbanlik olib kelish, raqqosalar yoki antik xudolarning bo'rtma tasvirlari ishlangan.

Yangi asrning boshlariga kelib, O'rta Osiyo ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotida jiddiy jonlanish boshlandi. Undagi qator madaniy markazlarda san'at va madaniyat borasida muhim yodgorliklar yaratildi. Shunday madaniy markazlardan biri Xorazm edi. Quyqirilgan qal'a, Guyar qal'a, Tuproq qal'a xarobalari, u erdan topilgan tasviriy va amaliy san'at namunalarini shu davrlarda (ilk feodalizm, ya'ni V asrga qadar) Xorazmda ijtimoiy hayotning birmuncha intensiv bo'lganligini ko'rsatadi.

Quyqirilgan qal'a (To'rtkulning shimoli-sharqiy qismidan 22 km uzoqlikda) er. av. IV - III asrlarda barpo etilgan bo'lib, u dastlab dumaloq shaklda bo'lib, uning markazida diametri 44,4 m. ikki qavatli bino, undan 14,5 m. uzoqlikda esa mudofaa devorlari bo'lgan. Bu devor keyinchalik mudofaa galereyasiga aylantirilib, tepe qismi ravoqli tom bilan yopilgan.

Taxminan, I asrning boshlariga kelib, Grek-Baqtriya podsholigining parchalanishi natijasida vujudga kelgan mayda davlatlar birlashtirilib, Kushon davlati tashkil etildi. Bu davlatga O'rta Osiyo hukmdori Kutzula Katfiz boshchilik qildi. Uning o'g'li Katfiz II esa bu davlat maydonini Hindiston chegaralariga qadar etkazdi. Kanishka podsholik qilgan yillarda esa Kushon davlati o'zining gullagan davrini boshdan kechirdi. Kushonlar davrida O'rta Osiyoda buddizm dini keng tarqaldi. Kushon hukmdorlari o'z sultanatlarini mustahkamlash uchun bu dindan foydalandilar. Uni omma orasiga singdirishga harakat qildilar. Hukmdorlarning bu intilishi shu davr san'at va madaniyatida ham o'z ifodasini topdi. Buddizm bilan bog'liq bo'lgan ibodatxonalar vujudga keldi, haykallar yaratildi, devoriy suratlar ishlandi.

Kushonlar davrida ijtimoiy hayotda sodir bo'lgan o'zgarishlar bizgacha etib kelgan tangalarda namoyon bo'ladi. Bu tanga yuzalariga podsholar portreti zarblangan, orqa tomoniga xudolar tasviri tushirilgan. Yozuvlar esa Kushon-Baqtriya tilida, yozish uchun kushon harflari (grek alf. asosida yaratilgan) ishlatilgan. Kushon davri san'atini bilishda Xolchayonda (Surxondaryo tum.) saqlanib qolgan bino qoldiqlari hamda tasviriy san'at va amaliy san'at namunalarini muhim o'rinni egallaydi.

Xolchayondagi binoni bezashda haykallar keng qo'llanilgan. Bu haykallar xonalar devorining yuqori qismiga barelef va galeref uslubida bajarilgan. Unda podsho va uning yaqinlari, shuningdek, otliqlar tasviri ishlangan. Bu haykallarda Grek -Baqtriya san'atiga xos xususiyat - har bir tasvirlanuvchining o'ziga xos individual xislatlarini ko'rsatishga, kiyimlari, qurollarini aniq tasvirlashga intilish seziladi. Noma'lum haykaltarosh tasvirlanuvchining soch tarashi, kiyim boshi, xarakterining ham noaniq bo'lishiga, psixologik holatini ifodalashga intiladi.

Ayritomda (Termiz yaqinida) topilgan toshdan ishlangan releflar va so'nggi Kushon davlati me'morligining xarobalari bu erda buddizm keng yoyila

boshlaganligini ko'rsatadi. Ayrитомда топилган тушдан исхланган рефлар ибодатхонага киравериш томонга карниз тарзидан исхланган. Бу карниздарда аканф барглари орасида ярим белигача тасвирланган qо'shnay, nog'ora (барaban), lyutna (g'ijakka o'xshash мусиқа асбоби) ва arfa chalayotgan соандалар тасвирланган.

О'рта Осиёда буддизмнинг таржалishi bevosa haykaltaroshlikda ham ifodalangan. Buddha va boshqa diniy personajlarning haykallari ibodatxonalarining oldi va ichkari qismidan o'z o'rmini egalladi. Bu haykallarning исхланish printsiplari Hindistonda yaratilgan kanonlarga asoslangan.

Dalvarzintepa va Qoratepadagi (Surxondaryo tum.) buddizm ibodatxonalaridan topilgan ganch haykallar ham yuqorida ko'rilgan xususiyatlarga ega. Bu haykallar natural kattalikda исхланган va real xarakterga egadir. Haykaltarosh mahalliy tiplarning o'ziga xos tomonlarini ko'rsatishga harakat qiladi. Bu ularning ko'rinishi soch va kiyinishlarida seziladi.

Qoratepada olib borilgan arxeologik исхлар buddizm bilan bog'liq me'morlik kompleksining ochilishini ta'minladi. Bu erda arxeologik исхлар davom etmoqda. Ochilgan g'or ibodatxonalarining bezatilishi, u erda mavjud bo'lган haykal va devoriy suratlar diqqatga sazavordir. Jumladan, noma'lum rassom tomonidan исхланган devoriy suratlarda fazoviy kenglikni ifodalashga, hajmini tasvirlashga intilish seziladi.

Ayniqsa, metall buyumlar yasash va ularning yuzasini bo'rtma tasvirlar bilan bezash san'atida O'рта Осиёлик ustalar katta yutuqlarni qo'lga kirtdilar.

### **Nazorat topshiriqlari:**

1. Persepol va so'za saroylari qurilishida qaerlik usta san'atkorlar qatnashgan?
  - A) Sug'd, Baqtriyalik usta san'atkorlar
  - V) Xorazmlik
  - S) A va V to'g'ri
  - D) Barcha javob noto'g'ri
2. O'рта Осиёда dastlabki ibtidoiy davlatlar qachon shakllana boshladi?
  - A) Er. av. 1 ming yil
  - V) Er. av. 2 ming yil
  - S) Er. av. 3 ming yil
  - D) Er. av. 4 ming yil
3. Markaziy Qozog'iston vohasidagi topilmalarda ko'proq nimalar tasvirlangan?
  - A) Jangchilar
  - V) Hayvonlar
  - S) Saroylar.
  - D) Binolar

### **Mustaqil ish topshiriqlari**

1. Qadimgi Eronning Yaqin Sharq xalqlari san'ati va madaniyatidagi o'rni.
2. Ahmoniyalar davri san'atida me'morchilikning tutgan o'rni.
3. «Quyqirilganjal'a» haqida so'zlang.

### **Mavzuga oid xulosalar**

Qadimgi Eron va O'rta Osiyo san'ati dunyo tasviriy san'ati taraqqiyotiga o'zining munosib hissasini qo'shgan. Qadim zamonlardan bu vohalarda hashamatli saroylar, mustahkam maqbaralar yuzaga keldi. Oltin va qimmatbaho toshu injulardan nafis uy, ov va jang buyumlari, qurol-aslahalar bugungi kunimizgacha etib kelgan.

### **Foydalanilgan adabietlar:**

1. Istorya isskustv zarubejno'x stran. -M.: 1963, Tom –1.  
43-51 s.
2. Abdullaev N. U. «San'at tarixi» Tom-1. T.: O'qituvchi 1986. 38-44-b.

## **Mavzu: №7 QADIMGI HINDISTON VA XITOY SAN'ATI.**

### **Mashg'ulot turi – ma'ruza.**

**Mashg`ulot shakli:** Obrazli-ma`ruza tushunib olish, esda qolishi kerak bo`lgan bilimlar zahirasini talabalarga ilmiy ma'lumotlarni bayon etish va tushuntirishga qaratilgan.

### **Asosiy masalalar**

Qadimiy Hindiston tarixi va madaniyatiga xos bo`lgan xususiyatlar. Me'morchilik, tasviriy va amaliy san'at hamda Qadimgi Xitoy san'ati.

**Tayanch tushuncha va iboralar:** Gandhar san'ati - Hindistonning shimoli-g'arbiy tomoni, Panjob va Afg'oniston erlarida eramizning boshlarida rivojlangan san'at. Gandhar san'ati mahalliy an'analar aosida shakllangan bo'lsa ham, qisman grek-rim san'at an'analariga yaqinligi sezildi.

### **Mavzuga oid muammolar**

1. Qadimgi Hindiston san'atiga munosabatingiz qanday?
2. Qadimgi Hindistonda buddizm san'atining rivojlanishiga qanday qaraysiz?
3. Xitoy san'ati yodgorliklari turlarini aytинг va ularning farqi nimada deb o'ylaysiz?

**1-asosiy masala bo'yicha darsning maqsadi:** Qadimgi Hindiston tarixi va madaniyatiga xos bo`lgan xususiyatlar bilan talabalarni tanishtirish.

### **Identiv o'quv maqsadi:**

Talabalar Qadimgi Hindistonda fan va hunarmandchilikning ravnaq topishi haqida axborot beradilar.

Qadimgi Hindistonda Buddizmning ramziy ma'nosi va Guptalar sulolasini haqida tushuncha beradilar.

## **1-asosiy masalaning bayoni:**

Hindistonning shimoli-g'arbidagi Hind daryosi havzasida Moxenjo-Doro (Sind viloyati) va Xarappadan topilgan qadimgi shahar qoldiqlari, madaniyat yodgorliklari eramizdan avvalgi 3-2 minginchi yillardayoq hind san'ati o'ziga xos yorqin va jozibador, fantaziyaga boy san'at bo'lganligini tasdiqlaydi va mifologiya asosida qimmatli san'at namunalari yaratilganligini anglash imkoniyatini beradi.

Eramizgacha bo'lган davrdan bir necha asr oldinroq bu erda matematika, tilshunoslik, falsafa, tibbiyot ravnaq topgan, hunarmandchilik rivojlangan, yozuv paydo bo'lган. Me'morchilik, haykaltaroshlik va rassomlik san'ati bir-biri bilan uyg'unlashgan holda rivoj topgan. Eramizdan avvalgi bir minginchi yillarning ikkinchi yarmida bu erda dastlabki davlat paydo bo'lган. Adabiy manbalarga ko'ra shu davlatlarda ajoyib, hashamatli yogoch me'morchiligi ravnaq topgan. Bu erda paydo bo'lган buddizmning Osiyoga tarqalganligi ham shundan dalolat beradi.

Hindiston san'ati ham qator bosqichlarni bosib o'tgan, goh grek san'atining ta'sirida bo'lган. Lekin shunga qaramay, uning san'atida o'ziga xoslik mavjud bo'lib, u asosan xalq san'ati, ayniqsa, hunarmandchilik ta'sirida bo'lган.

Hindiston Shumer, Akkad va Mesopotamiyaning boshqa davlatlari, shuningdek Misr bilan yaqin aloqada bo'lган, ular orasida savdo-sotiq rivojlangan.

Qadimgi Hindiston san'atining gullagan davri Maurya sulolasi (er.av. 322-185 yillar) ayniqsa, Ashoka imperatorligi davri (er.av. 272-232 yillar) da sodir bo'ldi. Ashoka hukmdorlik qilgan davrda buddizm keng yoyildi. Bu din dastlab Hindistonga, keyinroq Sharqning qator davlatlariga tarqalgan. Buddizmning tarqalishi u bilan bog'liq ibodatxonalar qurilishiga, tasviriy san'at namunalarining paydo bo'lishiga olib keldi. Buddaga bag'ishlangan me'morchilik kompozitsiyalarida Qadimgi Hind me'morchiligidagi mavjud an'analar, xalq mifologiyalari, Buddha hayoti va faoliyati bilan qo'shilib ketgan afsonalar o'z ifodasini topdi.

Buddizmning muhim yodgorliklaridan yana biri ustunlardir. Ular yaxshi pardozlangan yaxlit toshdan ishlangan bo'lib, Buddha ta'limotini targ'ib etishda foydalanilgan hamda imperiyaning yagonaligini va jipsligini ko'rsatadigan o'ziga xos haykal hisoblangan. Bu ustun hayvonlar tasviri ishlangan kapitel bilan tugallangan. Sarnatxdagi stambx va uning sherlar tasviri ishlangan kapiteli mashhurdir.

Buddanining darveshona hayot kechirganining ramziy ma'nosi g'orlarda ishlangan ibodatxonalaridir. Bunday ibodatxonalar qoyalar ichiga ishlangan, ichkarida kohinlar xonasi va ibodatxona joylashgan. Uning xonalari qoya ichiga o'yib kirgan, devorlari esa haykaltaroshlik va rangtasvir bilan bezatilgan. Kiradigan eshigining to'g'risida, xonaning dumaloq qilib ishlangan tomoniga esa stupa o'rnatilgan.

Qadimgi Hind so'nggi taraqqiyoti Guptalar sulolasi (320-450 yillar) davriga to'g'ri keldi. Bu Hindistonning kuldirlikdan feodal munosabatlarga o'tish davri bo'lib, san'at va madaniyatning yanada ravnaq topish davri hisoblanadi. Adjanta g'oridagi ibodatxona va uning badiiy bezaklari, devoriy suratlari Qadimgi Hind san'atining eng yaxshi tomonlarini o'zida mujassamlashtiradi.

## **Nazorat topshiriqlari:**

1. Qadimgi Hindistonda fan qachon ravnaq topdi?
  - A) Er. av. davrdan bir necha asr oldinroq
  - V) Er. av. II asrda
  - S) Er. av. Y asrda
  - D) Er. av. III asrda
2. Hindiston qaysi davlatlar bilan yaqin aloqada bo'lgan?
  - A) Evropa davlatlari
  - V) Shumer, Akkod, Misr
  - S) Shumer, O'rta Osiyo davlatlari
  - D) O'rta Osiyo davlatlari
3. Buddaga bag'ishlangan me'morchilik kompozitsiyalarda nimalar o'z ifodasini topgan?
  - A) An'analar, xalq mifologiyalari, afsonalar
  - V) Davr qahramonlari
  - S) Jang tasvirlari
  - D) Afsonalar
4. Qadimgi Hind so'nggi taraqqiyotidagi guptalar sulolasini davri qaysi yillarga to'g'ri keladi?
  - A) 350-420 yillar
  - V) 320-450 yillar
  - S) 300-450 yillar
  - D) Barcha javob noto'g'ri

**2-asosiy masala bo'yicha darsning maqsadi:** talabalarni Qadimgi Xitoy san'ati bilan tanishtirish.

#### **Identiv o'quv maqsadlari:**

- 1.2 Qadimgi Xitoy san'ati haqida gapirib beradilar.
- 2.2. Qadimgi Xitoy san'atining eng rivojlangan davri va o'sha davri asarlari haqida tushuncha beradilar.

#### **2-asosiy masalaning bayoni:**

Qadimgi Xitoy san'ati.

Eramizdan avvalgi 4-3 minginchi yillarda Xitoyda loydan ishlangan odam haykallari, odam boshini eslatuvchi ko'zalar, toshdan ishlangan turli badiiy buyum va haykallar uchraydi. Bular Qadimgi Xitoy madaniyatining boy va rang-barang bo'lganligidan dalolat beradi.

Eramizdan avvalgi 2 minginchi yillarda Xuanxe daryosi vohasida Xitoyda birinchi bor davlat paydo bo'ldi. Bu davlatni Shan dinastiyasi boshqardi. Sinfiy quldorchilik jamiyati shakllanib, rivojlanib bordi. Birinchi shaharlar yuzaga keldi. Ular aniq rejalashtirish asosida qurildi. Dehqonchilik, hunarmandchilik rivojlandi. Savdo-sotiq ishlari jonlandi. Shan davridan bizgacha saqlanib kelgan yodgorlik An'yan rayonidan topilgan katta shahar qoldiqlari hisoblanadi.

Qadimgi Xitoyning muhim yodgorligi Buyuk Xitoy devoridir. Eramizdan

avvalgi IV-III asrlarda qurila boshlagan bu devor dastlabki paytda Xitoyning shimoliy chegaralarini ko'chmanchi qabilalardan saqlash uchun xizmat qilgan va 750 km.ni tashkil etgan. Devor tepasida yul mavjud bo'lib, har 100 m.da katta minoralar ishlangan. Buyuk Xitoy devori kishilarning kuch-shijoati va katta irodasini aks ettiruvchi, o'z xarakteri jihatidan Misr ehromlari bilan tenglashuvchi va odamlar birlashsa, buyuk mujizalar yarata olishini ko'rsatuvchi yodgorlik tarzida hamon kishini hayratlantiradi.

Qadimgi Xitoy san'ati va madaniyatining eng rivojlangan bosqichi eramizdan avvalgi III asrdan eramizning III asrigacha bo'lgan davrga to'g'ri keladi. Bu davrda mamlakat yagona markazlashgan yirik davlatga aylandi. Tsin (er.av.221-206 yillar) va Xan (er.av.206- yangi eraning 220 yili) sulolasi hukmronlik qilgan paytida avvallari mustaqil bo'lgan qator davlat va qabilalar Xitoy imperiyasiga qo'shildi. Xitoy O'rta Osiyo, Eron, Suriya, Rim imperiyalari bilan savdo-sotiq ishlarini jonlantirdi. Xitoyning tasviriy, amaliy va me'morchilik san'ati ham nihoyatda rivojlandi.

Sichuandagi maqbara releflari bir muncha dinamik xarakterga ega bo'lib, u erda ov manzaralari, yig'im-terim ko'rinishlari tasvirlangan. Xan davri maqbaralarida ko'plab devoriy surat namunalari uchraydi. Ular yorqin bo'yoqlarda ishlangan, voqeа va hodisalarning hayotiy va ifodali bo'lishiga e'tibor berilgan. Xan davrida portret rassomchiligi ham rivojlandi. Maqbara va saroy devorlariga portretlar ishslash keng odat tusiga kirdi. Devorga ishlangan shunday portretlardan biri Loyan yaqinidagi Xan davri maqbarasida saqlanib qolgan. Shunday portret ishlashda tanilgan rassomlardan biri eramizdan avvalgi I asr oxirlarini o'ziga juda o'xshatishga, xatto ideallashtirishga usta bo'lgan. Uning portretlarida tasvirlanuvchi odamning yoshi va hatto. xulqini bilish mumkin bo'lgan.

Kulolchilikda rang keng qo'llanilgan. Badiiy kashtachilik va to'qimachilik G'arbiy Osiyo va Evropa mamlakatlarida yuqori baholandi. Nefritdan ishlangan turli buyum va haykalchalar ko'pchilikka manzur.

Qadimgi Xitoy san'ati Xan davlatining inqirozga yuz tutishi bilan o'z umrini tugatdi. Lekin Qadimgi davrlarda, ayniqsa, Xan davri san'atida paydo bo'lgan an'analar Xitoy san'ati va madaniyati taraqqiyotiga katta ta'sir qildi, uning xarakterli tomonini belgilashda muhim o'rinni egalladi.

### **Nazorat topshiriqlari:**

1. Eramizdan avvalgi 2 minginchchi yillarda Xitoyda birinchi bor paydo bo'lgan davlatni kim boshqardi?  
A) Shan dinastiyasi  
V) Harbiylar.  
S) Feodallar.  
D) Zobitlar
2. Qadimgi Xitoyning muhim yodgorligi qaysi bandda ko'rsatilgan?  
A) Kulolchilik asarlari  
V) Buyuk Xitoy devori  
S) Rangtasvir asarlari.

D) Barcha javoblar noto'g'ri

3. Qadimgi Xitoy san'ati va madaniyatining eng rivojlangan bosqichi qaysi davrga to'g'ri keladi?

A) Er.av. II asrdan er.av. I asrgacha

V) Er.av.III asrdan er.av. VI asrgacha

S) Er.av. III asrdan eramizning III asrigacha.

D) Er.av. I asrdan eramizning II asrigacha.

4. Sichuandagi maqbara releflarida qanday tasvirlar mavjud bo'lган?

A) Ov manzaralari, yig'im-terim ko'rinishlari

V) Ov manzaralari

S) Yig'im-terim ko'rinishlari.

D) Barcha javob noto'g'ri

### **Mustaqil ish topshiriqlari**

1. Qadimgi Hindiston san'atida me'morchilikning ravnaqi haqida so'zlang.

2. Xitoy san'atida hunarmandchilikning roli.

### **Mavzuga oid xulosalar**

Qadimgi Hindiston va Xitoy san'ati ham bir qator bosqichlarni bosib o'tgan, goh grek san'atining ta'sirida bo'lган. Lekin shunga qaramay, uning san'atida o'ziga xoslik mavjud bo'lib u asosan, xalq san'ati, ayniqsa, hunarmandchilik ta'sirida bo'ldi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Isskusstvo stran i narodov mira, Kratkaya xudojestvennaya entsiklopediya. M., 1964. Tom - 2 (48-53).

2. Dmitrieva I. «Kratkaya istoriya iskusstva». Ocherki.

Vo'p. 1.(97-101)

## **MAVZU: №9 QADIMGI GRETSIYa SAN'ATI.**

### **Mashg'ulot turi – ma'ruza.**

**Mashg'ulot shakli:** Obrazli-ma`ruza tushunib olish, esda qolishi kerak bo`lgan bilimlar zahirasini talabalarga ilmiy ma'lumotlarni bayon etish va tushuntirishga qaratilgan.

### **Asosiy masalalar**

Qadimgi Gretsiya san'atining jahon madaniyati tarixida tutgan o'rni. Me'morchilik va haykaltaroshlikning o'ziga xos tomonlari.

**Tayanch tushuncha va iboralar:** Garmoniya - (grek. harmonia - bog'liq bo'lish, munosiblik, muvofiqlik) badiiy asar qismlarining mutanosibligi.

### **Mavzuga oid muammolar**

1. Qadimgi Gretsya san'ati rivojlanishining asosiy bosqichlari nimalardan iborat deb o'ylaysiz?
2. Gretsya me'morchiligi, haykaltaroshligi o'ziga xos xususiyatlari bormi? Sizning fikringiz?
3. Gomer va Arxaika san'ati haqida qanday fikrdasiz?

**1-asosiy masala bo'yicha darsning maqsadi:** Qadimgi Gretsya san'ati va uning rivojlanishining asosiy bosqichlari haqida talabalarga umumiyl tushuncha beradilar.

### **Identiv o'quv maqsadlari:**

Gretsya san'atining bosqichlari haqida gapirib beradilar.  
Gomer va Arxaika san'atiga tushuncha beradilar.

### **1-asosiy masalaning bayoni:**

Odatda Qadimgi Gretsya san'ati tarixi Mikenaning qulashi va doriylar tomonidan Peloponnes, uning janubida joylashgan orollar, Kritning bosib olinishi bilan boshlanadi va eramizdan avvalgi XI asrdan I asrgacha bo'lган davrni o'z ichiga oladi. Bu tarixiy-badiiy davr to'rt bosqichdan iborat.

Gomer davri (er.av. XI-VIII asrlar);

Arxaika davri (er.av. VII-VI asrlar);

Klassika davri (er.av. V-IV asrlarning dastlabki uch choragi).

Ellinizm davri (er.av. IV - I asrlar).

Greklar birinchi bor badiiy ijodda insoniyatning asriy muammolarini echishga urindilar. Ular botirlik, jasorat, Vatan mehri va hur insonning qudratini ulug'ladilar, uning jismoniy go'zalligi va ma'naviy barkamolligini ifodalab, ideal, yuksak kamol topgan inson obrazini yaratishga intildilar. Buyuk Sofoklning «Tabiatda insondan kuchli zot yo'q», - degan fikri davr etikasi, dunyoqarashini o'zida mujassamlashtirgan. Qadimgi Gretsiyada faoliyatli, davlat manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'yadigan insonni ulug'ladilar. Irodali, Vatanni sevadigan va uning uchun kurasha oladigan inson obrazini ideal inson, deb biladilar.

Har to'rt yilda o'tkaziladigan Olimpiya musobaqalari esa, erkin Ellinning jismoniy va ma'naviy shavkatini namoyon etuvchi bayramga aylandi, g'oliblarga haykallar o'rnatildi. Darhaqiqat, grek san'ati insonning real his-tuygularini badiiy ifoda etishi bilan hamon kishiga zavq-shavq baxsh etmoqda; inson aql-idroki, zakovatini tarannum etib, unga kuch bag'ishlamoqda. Grek san'atining shu jihatni evropaliklar tomonidan ham, Sharq xalqlari tomonidan ham e'zozlanadi.

Mamlakatimiz san'atkorlari ham bu san'at namunalariga murojaat qilib, o'zlarining mahoratlarini oshirganlar.

### Gomer davri san'ati.

Qadimgi Gretsya tarixinining eramizdan avvalgi XI - VII asrlari Gomer davri deb ataladi. Bu davr san'ati va madaniyatini o'rganishda Gomerning «Iliada» va «Odisseya» dostonlari qimmatli manba hisoblanadi. Mikena yozuvlarining o'qilishi

shu davrga oid ma'lumotlarning kengayishiga yordam berdi. Gomer davrida hunarmandchilik, ayniqsa, kulolchilik va u bilan bog'liq bo'lgan ko'zaga gul solish san'ati ravnaq topdi. Dastlabki ishlangan kulolchilik buyumlari - ko'zalarda Qadimgi Grek amaliy-dekorativ san'atining o'ziga xos xususiyatlari namoyon bo'ladi. Bu ko'zalar yuzasiga geometrik naqshlar ishlangan bo'lib, ularning shakli ko'rkmam naqshlar kompozitsiyasi aniq, siluetlari qat'iy. Bu xususiyatlar buyumga o'zgacha latofat kiritadi.

Diniy marosimlar bilan bog'liq bo'lgan katta hajmdagi Dipilok ko'zalari (Afrika yaqinidagi Dipilon darvozasi yaqinidan topilgani uchun shunday deb nomlangan) shunday xarakterda ishlangan. Gomer asari kulolchilik buyumlari, ko'zalarida geometrik naqshlardan tashqari o'simliklardan ishlangan naqshlar, hayotiy voqealarni sxematik talqin etuvchi tasvirlar uchraydi.

### ARXAIK GRETSIYA SAN'ATI.

Eramizdan avvalgi VIII asr oxirlaridan boshlab, ilk sinfiy jamiyat tashkil topa boshlagan. Eramizdan oldingi VII - VI asrlarda arxaik, ya'ni qadimgi (grekcha «arxeyos»- «qadimgi» demakdir) davr deb nomlanadi. Arxaika davrida Gretsiyada ilmiy fikrlar rivojlanadi. Tibbiyot, astronomiya, tarix, geografiya, matematika taraqqiy qildi, poeziya, adabiyot, tetr kamol topdi, grek yozuvi paydo bo'ldi. Greklar o'zlaridan avvalgi xalqlar, Sharq mamlakatlari - Bobil, Misrning fan va madaniyat borasidagi yutuqlarini chuqur o'rganib, o'zlarining betakror san'at va madaniyatlarini yaratishga tuyassar bo'ldilar.

Me'morlik. Arxaika davri me'morchilik san'ati shaharlarning rivojlanishi va qurilishi bilan bog'liq.

Grek ibodatxonalari bir nechta tipda bo'lib, bularning ichida eng keng tarqalgan tipi peripter hisoblangan. Bu tipda qurilgan binoning markaziy qismi muqaddas er - tsella bo'lib, atrofi esa ustunlar bilan o'ralgan. Grek me'morchiliginining bu tipi faqat grek me'morchiligidagina emas, balki jahon san'ati me'morchiligidagi ham katta rol o'ynadi. Ilk arxaika ibodatxonalari birmuncha past va uzunroq qilib qurilgan. Ularning ko'rinishi vazmin va salobatli. Pestumdagagi (Italiya) Gera ibodatxonasi (er.av. VI asr o'talarida) shu jihatdan ibratli. Korinfdagagi Appolon ibodatxonasi (er.av. VI asrning ikkinchi yarmida qurilgan) periter tipidagi doriy orderida ishlangan bo'lib, uning old tomonida 6, yon tomonida 15 ustun o'rnatilgan. Bu ibodatxonada ham arxaika me'morchiliginining xarakterli tomonlari ochildi.

### **Nazorat topshiriqlari:**

1. Eramizdan avvalgi XI asrdan I asrgacha bo'lgan davrdagi Gretsiya san'ati necha bosqichdan iborat?  
A) 4      V) 3      S) 5      D) 6
2. Gomer davri san'ati qaysi asrlarni o'z ichiga oladi?  
A) er.av. XI-Y  
B) er.av. XI-VIII  
S) er.av. X-XYI  
D) er. av. X-XI
3. Arxaik grekcha «arxeyos» degan so'zdan olingan bo'lib qanday ma'noni

anglatadi?

- A) Bo'lajak.
- V) Qadimgi
- S) Me'morchilik
- D) Barcha javob noto'g'ri

**2-asosiy masala bo'yicha darsning maqsadi:** me'morchilik, haykaltaroshlik va yuqori klassikaning Gretsiya san'atidagi o'rni haqida tushuncha beradi.

### **Identiv o'quv maqsadlari:**

- 2.1. Grek ibodatxonalari haqida tushuncha beradilar.
- 2.2. Ko'zaga surat solish san'atining dastlabki namoyandalarini sanab o'tadilar.

### **2-asosiy masalaning bayoni:**

Haykaltaroshlik. Arxaika davrida grek monumental haykaltaroshligi kamol topa boshladi. Toshdan yaratilgan haykallar namunasi esa eramizdan avvalgi VII asrlarga to'g'ri keladi. Haykaltaroshlikning rivojlanishida Krit san'atkorlarining ta'siri sezilarli bo'lган. Arxaika davri haykaltaroshligida odam gavdasini alohida tasvirlash bilan birga, voqealarni aks ettiruvchi kompozitsiyalar, masalan, olishuvlar ko'rsatiladi. Persey va Gerakl qahramonligiga, xudolar va gigantlar jangiga bag'ishlangan kompozitsiyalar shu davr haykaltaroshligi mahsulidir. Arxaika davrining ko'zaga surat solish san'ati dastlab qora figurali vazalarda namoyon bo'ldi. Bunday vazalarga qora lak bilan turli tasvirlar ishlangan. Ayniqsa, qora figurali vazalar ishlash san'ati VI asrning II-III choragida rivojlanib, bu sohada antiqali qurollar va rasmlar chiqarishgan. Shunday mashhur ustalardan biri, rassom Klitiy bo'lган. U jahonga mashhur bo'lган «Fransua vazas» ni bezatgan. Er.av. 540-530 yillarda qizil figurali vazalar ishlash keng tarqaladi. Bu vazaga gul solish san'atida realistik tendeniyalarning ortib borishi sabab bo'ldi. Qizil figuralarda tasvirlangan obrazlar, tasvirlar ko'zaning tabiiy rangi - pishirilgan loy rangida (qizg'ish, qizg'ish jigarrang) qoldirib, fon, qolgan bo'shliq esa qora lak bilan bo'yab chiqilgan. Bu uslub voqealikni real tasvirlashda katta imkoniyatga ega bo'lib, eramizdan avvalgi VI asrning uchinchi choragidan IV asrgacha davom etdi. Eramizdan avvalgi V asrga kelib, Gretsiya o'zining siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotining eng yuksak bosqichiga ko'tarildi.

Yuqori klassika. Eramizdan avvalgi V asrning ikkinchi yarmidan boshlab, Gretsiya siyosiy, iqtisodiy va madaniy ravnaqining oltin davrini boshladi. San'atning hamma tur va janrlari rivojlanib, yuqori klassika davri kishilarining estetik ideal haqidagi tushunchalarini mukammal badiiy obrazlarda ko'rsatadi. Bu taraqqiyotda, so'zsiz, shu davrning yirik davlat arbobi Perikl muhim rol uynadi. Yuqori klassika davrida Afina akropoli o'zining tugal ko'rinishini egalladi. Perikl tashabbusi bilan Afinaning ichki qal'asi - Akropol qayta tiklandi. Bu qal'a Eron - Grek urushidan vayron bo'lган edi. Eramizdan avvalgi V asrning uchinchi choragida bu erda oq marmardan yasalgan grek me'morchiligining nodir durdonalari bo'lган Parfenon, katta darvozaxona - Propiley, qanotsiz g'alaba ma'budasi Nikaga atab qurilgan Niki

Apteros qad ko'tardi. Bu binolar badiiy bezakka boy bo'lgan. Masalan, Propiley devorlari davlatning jangovor o'tmishini tasvirlovchi suratlar bilan bezatilgan. Akropolning ochiq maydonida Afina davlatining kuch-qudratini va ulug'ligini o'zida ifodalab, grek tarixida birinchi bor umumellin birligini namoyish etuvchi me'morchilik ansamqli edi. Akropol tepaligining yon bag'irlarida qurilgan ibodatxona va tomoshaxonalar esa uni yanada mo'tabar, muqaddas dargoh darajasiga ko'targan. Grek klassikasi me'morchiligining beqiyos namunasi, yuksak aql-zakovat mevasi va afinaliklar homiysi bo'lgan Afina ma'budasiga bag'ishlangan Porfenon ibodatxonasi hisoblanadi. Eramizdan avvalgi 447 - 438 yillarda me'morchilik Iktin va Kallikrat tomonidan qurilgan bu ibodatxona afinaliklarning xazinasini saqlash uchun xizmat qilgan. Parfenon ibodatxonasining bezak va haykallari esa davrning buyuk haykaltaroshi, Periklning yaqin safdoshi Fidiy rahbarligida bajarilgan. Bu davrga kelib, haykaltaroshlik yuksak kamolot davriga qadam qo'ydi. Haykaltaroshlar endilikda odam qomati va yuz tuzilishini to'g'ri tasvirlabgina qolmasdan, o'z asarlarida murakkab harakatlarni ham ifodalashga, kompozitsiya echimining hayotiy bo'lishiga alohida e'tibor bera boshladilar. Shunday masala bilan shug'ullangan yirik haykaltaroshlardan biri Miron hisoblanadi. Uning mashhur asarlaridan biri «Diskobal» (Disk otuvchi) haykalida jismoniy go'zal, ma'naviy kuchli, ideal inson obrazi yaratiladi. So'nggi klassika davri haykaltaroshligi realistik tendentsiyaning kuchayishi bilan xarakterlanadi. Haykaltaroshlar o'z qobiliyati, dunyoqarashi, imkoniyatlaridan kelib chiqib, inson ma'naviy olamining turli qirralarini yorita boshlaydilar. Bu xususiyat so'nggi klassikaning buyuk haykaltaroshlari Skopos, Praksitel, Lisipp ijodida sezilarli edi. Davr ziddiyatlari, san'atda sodir bo'layotgan o'zgarishlar so'nggi klassika davrining yirik haykaltaroshi Skopos ijodida o'z ifodasini topdi. U yuqori klassika an'analarini davom ettirib, monumental, qahramonlik ruhi bilan sug'orilgan haykaltaroshlik kompozitsiyalarini ishladi, lekin asarlarida yuqori klassikaga xos xotirjamlik, ulug'vorlik, vazminlik emas, balki serg'ayrat, kuch-quvvatga to'lib-toshgan kishilarning ko'rinishi, ma'naviy ichki dunyosi ochib ko'rsatiladi. Skopasning mashhur asarlaridan biri «Menada» (Vakanka, Dionisning umr yo'ldoshi) haykalidir. Unda raqs dunyosiga cho'mgan, maftun bo'lgan Menada holati tasvirlanadi.

Menadaning berilib raqsga tushayotgan holati orqali tashlangan bosh harakati, spiralsimon buralgan gavda orqali ochib berilgan. Obrazning har tomonlama idrok etilishini hisobga olish ham Skopos ijodini avvalgi davr san'atidan farqlaydi.

### **Nazorat topshiriqlari:**

1. Grek ibodatxonalarining eng keng tarqalgan tipi qaysi bandda to'g'ri ko'rsatilgan?
  - A) Periptix
  - V) Peripter
  - S) Gumbazli
  - D) Arkali
2. Arxaika davrining ko'zaga surat solish san'ati dastlab nimada namoyon bo'ladi?
  - A) Ichimlik idishlarida

- V) Uy-ro'zg'or idishlarida  
 S) Qora figurali vazalarda  
 D) Ko'zalarda  
 3. Afinaning ichki qismi – Akropol kimning tashabbusi bilan qayta tiklandi?  
 A) Kallikrat  
 V) Perikl  
 S) Iktin  
 D) To'g'ri javob yo'q

### **Mustaqil ish topshiriqlari**

1. Gretsiya san'ati rivojlanishining asosiy bosqichlari.
2. Gomer davri san'ati haqida so'zlang.
3. Klassik davrda Gretsiya san'atining o'rni.

### **Mavzuga oid xulosalar**

Greklar birinchi bor tasviriy san'atda insonni ulug'ladi. Va bu urinishlar ularning jismoniy go'zalligi va ma'naviy barkamolligini ifodalab, ideal kamol topgan inson obrazini yaratishga intildilar.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Abdullaev N. U. «San'at tarixi», Tom - 1. –T.: O'qituvchi. 1986. 69 – 78-b.
2. Vipper B. R. «Iskusstvo drevney Gretsii» -M.: 1972. 10-23 s.

## **MAVZU: №9. QADIMGI ITALIYA SAN'ATI**

**Mashg'ulot turi** – ma'ruza.

**Mashg'ulot shakli:** Obrazli-ma`ruza tushunib olish, esda qolishi kerak bo`lgan bilimlar zahirasini talabalarga ilmiy ma'lumotlarni bayon etish va tushuntirishga qaratilgan.

**Asosiy masalalar:**

Qadimgi Italiya san'ati, uning geografik o'rni, davlat chegarasi.

Qadimgi Rim san'ati, tasviriy san'at va haykaltaroshlik. Rim san'ati va madaniyatining ahamiyati haqida ma'lumot.

**Tayanch tushuncha va iboralar:** Arxitrav (grek."arche" -boshlanishi, lotin."trabs"-tusin) kolonna kapitellarida yotgan birlashtiruvchi to'sin.

### **Mavzuga oid muammolar**

1. Qadimgi Italiya san'ati va uning mohiyati nimada deb o'ylaysiz?
2. Rim rassomlik va amaliy san'ati, haykaltaroshligi haqida qanday fikr bildirasiz?

**1-asosiy masala bo'yicha darsning maqsadi:** Qadimgi Italiya san'ati va

uning mazmun-mohiyati haqida bilim berish.

### **Identiv o'quv maqsadlari:**

Qadimgi Rim me'morchiligi haqida axborot beradilar.  
Rim san'ati va madaniyati ahamiyati haqida gapiradilar.

#### **1- asosiy masalaning bayoni :**

Eramizdan avvalgi VII asrning to yangi eraning V asriga qadar bo'lган о'n ikki asr mobaynida italiyaliklar san'ati va badiiy madaniyati gullagan davrni boshidan kechirdi. Qadimgi dunyoning yirik davlatlaridan hisoblangan Rim imperiyasi paytida katta hajmdagi me'morchilik ansamblari vujudga keldi. Me'morchilikning yangi tiplari paydo bo'ldi. Italiyaliklar qadimgi Gretsiya san'ati va madanyatiga zo'r hurmat bilan qaradilar. Uni ijodiy o'zlashtirdilar, nazariyasini yangi bilimlar bilan boyitdilar. Realistik portret tarixiy mavzudagi mozaika borasidagi novatorlik namunalarini ko'rsatdilar. Qadimgi Italiya xalqlari ichida etrusklar bo'lган. Ular eramizdan avvalgi VII-VI asrlarda Italiyaning o'rta va g'arbiy-janubiy qismini egallaganlar. Etruskler qurish san'atida katta muvaffaqiyatlarga erishdilar. Ular toshlardan katta-katta imoratlar solganlar, birinchi bo'lib toshdan gumbaz va arkalar ishlaganlar. Etruriya shaharlari (Kere, Tarkvini, Veym, Klezium) baland, qalin, mustahkam devorlar bilan o'ralgan keng yo'llar, kanallar qurilgan. Etrusk haykaltaroshlardan biri Vulka hisoblanadi. U Rimga Kapitoliydagи Jupiter ibodatxonasini bezashga taklif etilgan. Vulka Veyidagi Apollon ibodatxonasining dekorativ haykallarini ham ishlagan. Apollon (Veym Apollon deb yuritiladi ) san'atkor ijodining o'ziga xos tomonini xarakterlaydi. Unda san'at va nur xudosi bo'lган Apollonning shaxdam qadamlar bilan odimlab ketaetgan vaqtin tasvirlangan. Shaffof, engil libos ostidan uning rivojlangan muskuli va kuchli qomati ko'rinib turibdi. Etruriya jamiyatining eng gullagan davri eramizdan avvalgi VII-VI asrlarga to'g'ri keladi. Eramizdan avvalgi VI asrdan boshlab, Etrusk grek alfavitini, teatr va mifologiyasini qabul qildilar. Greklar singari ular ham yuzasiga bareleflar tushurilgan oltin tangalar chiqara boshladilar.

#### **QADIMGI RIM SAN'ATI.**

Qadimgi Rim san'ati Apenin yarim orollaridagi ko'pgina xalqlar, jumladan, etrusklar, keyinroq Rim bosib olgan erlardagi boshqa xalqlar san'ati ta'sirida rivoj topdi. Rim imperiyasining birinchi imperatori Oktavian Avgust hukmronlik qilgan yillar «Oltin asr» hisoblangan. Bu davrda nazariyotchi me'mor Vitruviy, tarixchi Tit Liviy, shoirlardan Vergiliy va Goratsiolar yashab ijod etdilar. Me'morchilik rivojlandi, shahar qurilishi avj oldi.

Qadimgi Rimning eng katta binolaridan biri Kolizey amfiteatridir. Planda Kalizey gigant oval bo'lib, uning asosi 188x156 metr, devorlarining balandligi 48,5 metrga yaqin. Gladiatorlar jangi uchun mo'ljallangan bu qurilmaga bir vaqtning o'zida 55 ming tomoshabin siqqan. Rim me'morchiligining yana muhim yodgorligi "Hamma xudolar», «Gladiatorlarning qasri» - Panteon hisoblanadi. Me'mor Apollodor Domashokiy to 118-125 yillarda respublika davrida realistik portret rivojlandi va antik dunyo san'atida etakchi o'rinni egallaydi.

## RASSOMLIK VA AMALIY SAN'AT.

Rimning gullagan shaharlari Pompey va Gerkulanumdag'i boy, zodagonlarning uylari devorlariga ishlangan suratlar Rim rassomlig'i haqida ma'lumot beradi. Devoriy suratlarda qadimgi grek ustalari ishlangan nusxalardan ko'chirmalar, turli naqshlar ham keng uchraydi. Bu uylarning pollari mozaika bilan bezatilgan. Ularda sayyor aktyorlar, dengiz osti manzaralari, o'xshash voqealar tasvirlangan. Shunday mozaikalardan biri Favna uyidagi Aleksandr Makedonskiyning Eron shohi Doro bilan jangi tasviridir.

### **Nazorat topshiriqlar**

1. Italiyaliklar san'ati va badiiy madaniyati gullagan davri bo'lgan o'n ikki asr qaysi asrlarni o'z ichiga oladi?  
A) Er.av. XII asr – er.av. I asr  
V) Er.av. YII asr – yangi Y asr.  
S) X asr – XII asr  
D) Barchasi to'g'ri
2. Veyidagi Appolon ibodatxonasining dekorativ haykallarini ishlangan haykaltarosh qaysi bandda to'g'ri ko'rsatilgan?  
A) Leonardo da Vinchi  
V) Rafael  
S) Vulka  
D) Dyurer
3. Qadimgi Rimning eng katta binolaridan biri bo'lgan Kolizey amfiteatrining asosi qancha?  
A) 188 x 156  
V) 120 x 130  
S) 156 x 120  
D) 100 x 110

### **Mustaqil ish topshiriqlari**

1. Italiya san'ati rivojlanishining asosiy bosqichlari.
2. Etrudiya san'ati va madaniyati.
3. Qadimgi Rimda me'morchilik.

### **Mavzuga oid xulosalar**

Italiyaliklar Qadimgi Gretsija va madaniyatiga zo'r hurmat bilan qarab, uni ijodiy o'zlashtirdilar, nazariyasini yangi bilimlar bilan boyitdilar. Portret, tarixiy mavzudagi relief, mozaika, amaliy san'at borasidagi ajoyib asarlar yaratildi va bugungi kungacha insoniyat uning durdonalaridan hayratlanmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdullaev N.U."San'at tarixi" Tom-1. -T.: O'qituvchi. 1986. 96-103-b.
2. "Isskustvo stran i narodov mira". Kratkaya xudojestvennaya entsiklopediya. -M.:

## **MAVZU: № 10. O'RTA ASRLAR SAN'ATI**

**Mashg'ulot turi – ma'ruza.**

**Mashg'ulot shakli:** Obrazli-ma`ruza tushunib olish, esda qolishi kerak bo`lgan bilimlar zahirasini talabalarga ilmiy ma'lumotlarni bayon etish va tushuntirishga qaratilgan.

**Asosiy masalalar:**

Sharq va G'arbda O'rta asrlar tarixining davriy chegarasi, rivojlanishidagi asosiy bosqichlar. Vizantiya, Sharqiy Evropa va Kavkaz orti san'ati.

**Tayanch tushuncha va iboralar:** Axill qalqoni - Gefest tomonidan ishlangan, yuzasiga daladagi ishlar, raqs va shunga o'xshash voqealar tasvirlangan qalqon.

**Mavzuga oid muammolar:**

1. O'rta asrlar tasviriy san'atining birinchi namoyandalaridan kimlarni bilasiz? Ularning yutuqlari nimada deb o'ylaysiz?
2. Vizantiya me'morchiligi o'ziga xos xususiyatlari haqida nima deb o'ylaysiz?
3. Bolgariya san'ati va madaniyatida antik an'analarning saqlanish sababi nimada deb o'ylaysiz?

**1-asosiy masala bo'yicha darsning maqsadi:** Talabalarga Sharq va G'arbda O'rta asrlar tarixining davriy rivojlanishi to'g'risida tushuncha berish.

**Identiv o'quv maqsadlari:**

Konstantinopol ibodatxonalarining bir-biridan farqi haqida gapirib beradilar. O'rta asrlar rangtasvirning birinchi namoyondalarini yoritib beradilar.

**1-asosiy masalaning bayoni:**

Er yuzida feodalizm formatsiyasining paydo bo'lishidan tortib, to uning rivojlanishi va nihoyat, uning inqirozidan keyingi formatsiyaga o'rmini bo'shatib berguncha bo'lgan davrdagi san'at, odatda, O'rta asrlar san'ati deyiladi. Bu san'at turli mamlakatlarda turli vaqtida boshlangan va davom etgan. Jumladan, Evropada u Buyuk Konstantin podsholik davridan boshlanadi. Uning dastlabki inqirozi esa XIII-XIV asrlardagi Italiyadagi shahar-davlatlarning vujudga kelishi bilan tezlashadi. Evropadagi ayrim mamlakatlarda feodalizm VII - VIII asrlar va undan kech ham boshlanib, XVII asrlarning so'ngigacha davom etgan (masalan, Vizantiya, Qadimgi Rus). Aksincha, Sharq mamlakatlarida (masalan, Xitoy, Hindistonda) O'rta asrchilik birmuncha erta boshlangan. Lekin uning inqirozi cho'zilib ketib, XIX asrgacha va undan keyinroq ham davom etgan.

O'rta asrlarda me'morchilik etakchi o'rinni egalladi. Bizgacha O'rta asrlar

me'morchilik san'atining juda ko'p nodir yodgorliklari saqlanib qolgan. Bu yodgorliklar, ayniqsa, monumental me'morchilik san'ati O'rta asrlar ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotini o'rganishda muhim o'rinni egallaydi. Bu davrda ko'rilgan Evropadagi ibodatxonalar, musulmon sharqidagi hashamatli machitlar, buddizm yodgorliklari o'rta asr tafakkurining mahsuli sifatida bizning qalbimizni to'lqinlashtiradi. Buyuk inson aql-zakovati qudratiga ta'zim etishga davat etadi.

Vizantiya san'atining o'ziga xos tomonlari IV asrda uning maydoniga xristian dinining kirib kela boshlagan davridan shakllana bordi. Bu xususiyat Vizantiyaning dastlabki gullagan davri VI-VII asrlarda yakqol namoyon bo'ldi. Konstantinopal bu davrda katta Vizantiya imperiyasining faqat siesiy markazi emas, balki madaniy o'chog'iga ham aylandi.

Vizantiya me'morchiligi uslubi grek va rim me'morchiligi an'analarining mahalliy an'analar bilan uygunlashishdan vujudga kelgan. Jumladan, Konstantinopoldagi Sofiya ibodatxonasi konstruktsiyasiga o'xshab ketadi, lekin bu o'xhashlik birmuncha yashiringan holda talqin etilishi bilan xarakterlanadi. Vizantiya rangtasvirining nodir namunasi XII asr birinchi yarmida konstantinopolik usta tomonidan ishlangan "Vladimir Bibi Maryami" ikonasi hisoblanadi. Vizantiya san'ati madaniyati, jahon xalqlari san'ati va madaniyatining rivojlanishiga katta ta'sir o'tkazdi. Bu madaniyat janubiy slavyanlarga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Qadimgi rus san'ati va madaniyati taraqqiyotida muhim rol uynadi. Vizantiya me'morligi amaliy san'at namunalari ko'pgina xalq san'atkorlari uchun namuna maktabi vazifasini o'tadi.

VI-VII asrlarda slavyan qabilalarining Bolqon yarim oroli tomon ommaviy ko'chishi Vizantiya imperiyasida feudal munosabatlarning tezlashishiga, quidorlik formatsiyasining tugashiga olib keldi. Shu bilan birga, slavyan qabilalarining Vizantiya bilan tuqnashishi ularning ijtimoiy va siyosiy rivojlanishida asta-sekin ilk feudal davlatlarning paydo bo'lishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bu erda ular Bolqon qabilalari bilan assimilyatsiyashib ketishdi. Bolqon yarim orolida yirik davlatlar galma-galdan maydonga chiqdi va inqirozga uchradi. Ana shular ichida Bolgariya podsholigi, Serbiya va Xorvatiya davlatlari yirik bo'lib, taraqqiyotida ham sezilarli iz qoldirdilar.

Bolgariya san'ati va madaniyatining birinchi taraqqiyoti IX -X asrlarga to'g'ri keldi. Bu davrda slavyan yozuvi va bolgar adabiyoti paydo bo'ldi. Bolgar san'atiga xos bo'lgan xususiyatlardan biri, antik an'analarining unda uzoq yashashidadir. Jumladan, uning me'morchiligidagi tekis yoyilgan tomi va yon tomonlaridagi binolar uzoq vaqt saqlangan. Bunga Avliyo Sofiya ibodatxonasi misol bo'la oladi. XI asrdan boshlab, bud - gumbaz tipidagi binolar qurila boshlandi. Shu tipda qurilgan dastlabki ibodatxonalar Presp ko'li atrofidagi German cherkovi (1066 y.) bo'lib, u o'zining nozik nisbati, konstruktiv tuzilishining aniqligi bilan xarakterlanadi. Bino juda sodda bezatilgan. 1187 yili Bulgariya mustaqil davlatga aylandi. Tarixchilar ikkinchi Bulgariya podsholigi davrini shu yildan boshlab hisoblaydilar.

Feodolizmning yangi bosqichi bo'lgan bu davr savdo-sotiq, madaniyat va san'atning jonlanishi bilan xarakterlanadi. Me'morchilik bezagiga e'tibor berish Bulgariyada keng o'rinni egalladi. Bu davrda miniatyura, ayniqsa, yog'och

o'ymakorligi juda rivojlandi. Bu o'ymakorlikning qadimgi namunasi Oxirddagi Nikolay cherkovi uchun ishlangan eshik yuzasidagi turli qush, hayvon va o'simliklar dunyosidan olingan obrazlar tasviridir. Yozuv manbalari Bolgariyada zargarlik san'ati ham yuksak bo'lganligidan dalolat beradi. XIV asrning ikkinchi yarmida turklar tomonidan bosib olinishin uning san'at va madaniyatiga salbiy ta'sir qildi. Uning monumental san'at taraqqiyoti deyarli to'xtadi.

XII - XIV asrlarda Serbiya Bolqon yarim orolidagi yirik davlat markazlaridan biriga aylandi. Serbiya, Vizantiya va Italiya bilan yaqin munosabatda rivojlandi, ularning san'atidan ta'sirlandi. Vizantiya san'ati taraqqiyotida muhim o'rinni egalladi. Me'morchilik san'atida esa G'arbiy Evropa an'analarining ta'siri seziladi. Serb san'atining ilk namunalari bizgacha kam etib kelgan va ularda ko'proq Evropa roman davri san'ati an'analarini ta'siri bo'lgan. Bu davr me'morchilik namunalari plan jihatdan sodda, bazilikka tiplarga yaqin, ravoqli cherkovlar bo'lib, ularning eshik va darchalari atrofi sodda bo'rtma tasvirlar bilan bezatilgan. Serb san'atining G'arbiy Evropa bilan aloqasi XI asrdan rivojlana boshlagani san'atida ham namoyon bo'ldi. Serb me'morchiligining o'ziga xos xususiyatlaridan biri, uning dekorativ xarakterdaligidir. Bu xususda Studennitsadagi Bibi Maryam cherkovi diqqatga sazavordir. Binoning tashqi ko'rinishiga alohida e'tibor bergenlar, u oq va kul rang marmar bilan pardozlanib, arkatura frizi bilan bezatilgan. Konsollarda odam va hayvon niqoblari ishlangan, g'arbiy va janubiy peshtoqlar, mehrob darchalari o'yma naqqoshlik bilan bezatilgan. Naqsh uchun o'simliklar dunyosi, qush, hayvon va odamlar shakli olingan. Nerezedagi (Makedoniya) Panteleyman ibodatxonasi devoriy suratlari Serb monumental rangtasviri to'g'risida tasavvur beradi. "Butdan tushirish" mavzusiga bag'ishlangan suratlarda kuchli hayajon va motam, iztirob, qayg'urish ishonarli va ifodali tasvirlangan. Bu tasvirlarda butdan tushirilgan, Isoga aza tutayotgan, chuqur qayg'u va motam bilan uni quchoqlayotgan Bibi Maryam, Iso tomon chuqur qayg'u va motam bilan engashib qarab turgan Ioan obrazlari ta'sirli ishlangan. Yosh avliyolar obrazi ham ta'sirli va xarakterlidir. Bu tasvirlarda rassom kontur chiziqlardan folga, oltin, ko'k va moviy ranglar gammasi o'zaro nisbatda asarning emotsional tomonini oshirib, uning ko'rimli bo'lishiga yordam beradi. Serb O'rta asrlar san'ati uchun progressiv ahamiyatga ega bo'ldi. XIII - XIV asrlar me'morchilik san'ati Sharqiy Evropa san'ati uchun muhim ahamiyat kasb etdi. Serb rassomlari insonning his-tuyg'u, ehtiroslarini badiiy ifoda etgan holda real dunyonni keng va to'laqonli tasvirlashga erishdilar. Serb san'atkori Rumiya, Bolgariya, Qadimgi Rus san'atiga o'z ta'sirlarini o'tkazdilar. O'rta asrlar san'ati va madaniyatida Kavkaz xalqlari, jumladan, Armaniston, Gruziya, Ozarbayjon xalqlari san'ati ham alohida o'rinni egallaydi. Bu xalqlar san'ati Qadimgi mahalliy san'at an'analariga ega bo'lgan, O'rta asrlarning muhim madaniyat o'choklaridan hisoblanadi. Ular Vizantiya va Eronning yutuq xazinasini boyitdilar. Kavkaz xalqlari san'ati X-XIII asrlarda eng gullagan davrini boshidan kechirdi. Gruziya va Armaniston O'rta asrlar monumental me'morlik san'atida hajmiy - plastik echilishi xarakteri bilan farq qiladi. Markaziy qubbali Zakavkaze ibodatxonalari zinasi balandlashib boradi. Cherkov binosining to'rt tomoni o'ziga xos frantonlar bilan tugallanadi.

Arman me'morchiligining o'ziga xos tomonlari Echmiadzin yaqinidagi Gijima ibodatxonasida yakqol seziladi. Bu ibodatxona plani asosida hamma tomoni teng bo'lgan but olingan. Binoning tashqi qismi yaxlit qilib ishlanganligi bilan xarakterlanadi. Bu bino yaxlit va aniq tuzilishi bilan xotirada yaxshi saqlanadi. Ibodatxona sakkiz qirrali baraban bilan tugallangan. Arablar tomonidan VII asrda Armaniston erlarining zabit etilishi san'at taraqqiyotiga to'siq bo'lib, bu hol qariyb 200 yil davom etadi. Faqat arab halifaliginning parchalanishi va Armanistonning chet el istilosidan qutilishi iqtisodiy, siyosiy hayotda jonlanishni boshladi. Yirik feodal er xo'jaligi mustahkamlanib, kengayib bordi. IX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, yagona davlat yaratishga intilish sezila boshladi.

Gruziyada ilk xristian dini bilan bog'liq binolar (V - VI asrlar) bazilikadir. Ular Kichik Osiyo, Albaniya, Suriya, Armanistondagi bazilika binolariga o'xshash. Lekin u mahalliy an'analar bilan boyitilgan bo'lib, uch qavatlari zinali supacha ustiga qurilgan bu bino tashqi tomongan sodda va past, og'ir ko'rinishga ega. Lekin asosiy diqqat intererga qaratilgan. Keng xona devorlaridagi aniq, yaxlit shakllar uning ichki emotsiyonal imkoniyatlarini oshiradi. Bino intererlarini bezashda toshdan yaratilgan kapitel va plastrlar muhim o'rinni egallaydi. Bo'rtma tasvirlarda Eron va Gruziya xalq yog'och o'ymakorligi an'analari uyg'unlashgan. VI asrning oxiri va VII asrda markaziy qubbali qurilish keng o'rinni egallay boshladi va uning turli variantlari ishlab chiqildi. Mtsxetidagi Djvari ibodatxonasi gruzin me'morchiligining xarakterli tomonini o'zida mujassamlashtirgan. Hajmi jihatidan monumental ko'rinishga ega bo'lgan bu bino va tabiat manzarasi bir-biri bilan uyg'unlashib ketgan va uning bir bo'lagi sifatida idrok etiladi. Bino kompozitsiyasi sakkiz qirrali baland bo'limgan baraban bilan tugallangan. Tashqi devor bo'rtma tasvir va naqshlar bilan bezatilgan. Gruzin san'atining eng gullagan davri XI-XIII asrlarga to'g'ri keladi. Bu davrga kelib, Gruziya Yaqin Sharqdagi eng yirik davlatlardan biriga aylandi, moddiy va ma'naviy hayotida rivojlanish sodir bo'ldi.

Bu davr san'atining muhim mafkuraviy maqsadi - mamlakat kuchlarini birlashtirish va davlatni mustahkamlashga qaratilgandir. Insonning ruhiy olamga qiziqishi va e'tibori kuchaydi. Monumenta me'morchilikda katta, ulugvor, hashamatli binolar yaratish, ularning ichki va tashqi tomoni badiiy bezagiga alohida e'tibor berish tendentsiyasi sezildi. Me'morchilik elementlarining dekorativligiga e'tibor ortdi. Gruzin san'atida ancha rivojlangan mozaika monumental xususiyatga ega bo'lib, jonli va ta'sirlidir. Monumental rangtasvir san'ati XII-XIII asrlar chegarasida jiddiy yutuqlarni qo'lga kiritdi. Bu davrda gruzin monumental rangtasvirining nodir yodgorliklari yaratildi. Bu xususda Vardzi suratlari, Betaniy va ayniqsa, Kintsvisi ibodatxonalaridagi devoriy suratlar obrazlarning erkin talqin etilishi, vogelikning poetik tasvirlanishi bilan xarakterlanadi.

XVI asr monumental rangtasvirida Vizantiya rangtasvirining Konstantinopol maktabi ta'siri seziladi. Bu davr suratlari ta'sirchan, ifodali chiqqan bo'lsa ham, obrazlardagi garmonik barkamollik va tasvirlanuvchilarning xarakterini to'liq yoritish bir muncha buzila boshlaganligi, sun'iylik ko'rindi.

Gruzin miniatyura san'atining ilk namunasi IX-X asrlarga to'g'ri keladi. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, bu san'at V asrlardayoq rivojlangan va keng tarqalgan.

Miniatyura san'atida ellistik san'atning ta'siri seziladi. Bu davr miniatyuralari o'zining o'tkir qalami, real va yorqin caloriti bilan ajralib turadi. Unda diniy mavzudan tashqari, dunyoviy voqealar ham o'z ifodasini topgan. XIV-XVII asrlar gruzin xalqining chet el bosqinchilariga qarshi kurashi davridir. Bu uning iqtisodiy ravnaqiga o'z ta'sirini o'tkazdi. Monumental rangtasvir, miniatyura, me'morchilik san'ati birmuncha orqaga ketishi bilan xarakterlanadi. Lekin xalq amaliy san'ati, yog'och va tosh o'ymakorligi san'ati rivojlanishda davom etib, davr o'zgarishlarini o'zida ifodaladi.

#### **Nazorat topshiriqlari:**

1. Konstantinopoldagi Sofiya ibodatxonasi o'z konstruktiv tuzilishi jihatidan qaysi ibodatxona konstruktsiyasiga o'xshab ketadi?  
A) Vizantiya  
V) Panteon  
S) Vladimir  
D) Barcha javob to'g'ri
2. XII asr birinchi yarmida konstantinopolik usta tomonidan ishlangan qaysi asar Vizantiya rangtasvirining nodir namunasi hisoblanadi?  
A) «Sekstin Madonnasi»  
V) «Djakonda»  
S) «Vladimir Bibi Mariyami»  
D) Barcha javob noto'g'ri
2. Qachon Serbiya Bolqon yarim orolidagi yirik davlatlardan biriga aylandi?  
A) XII-XIY asrlarda  
V) X-XII asrlarda  
S) XII-XIII asrlarda  
D) XI-XIII asrlarda

**2-asosiy masala bo'yicha darsning maqsadi:** Evropada O'rta asrlar san'ati, Gotika, Roman va Romandan oldingi Varvaralar san'ati haqida talabalarda tushuncha hosil qilish.

#### **Identiv o'quv maqsadlari:**

Vizantiya san'atining mazmun va mohiyatini tushuntirib beradilar.  
«Rim» uslubi haqida fikr yuritadilar.

#### **2-asosiy masalaning bayoni:**

O'rta asrlarda G'arbiy Evropa "Varvarlar" qirolligi va franklar imperiyasi davrida "Varvarlar"ning surunkali harbiy yurishlari va quyllarning tez-tez ko'tarilib turgan ko'zg'olonlari III asrlarga kelib quldorlik davrining inqirozga yuz tutishiga sabab bo'ldi. Natijada quldorlik davri tuzum sifatida o'z o'mnini G'arbiy Evropa mamlakatlarida asta-sekin feodalizmga bo'shatib bera boshladi. Rim imperiyasi qulashi bilan bu jarayon yanada tezlashdi. Bu voqealar G'arbiy Evropa madaniyati va san'atiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. "Varvarlar" san'ati va antik san'at an'analarining o'zaro ta'sirida Evropada O'rta asr san'atini boshidan kechirdi. Bu ta'sir, ayniqsa,

hajm forma dinamikasi, ekspressiyasi, kompozitsiya va naqqoshlikda yakqol namoyon bo'ldi.

G'arbiy Evropadagi ko'pgina mamlakatlarda ibridoiy tuzumdan so'ng o'z boshlaridan quzdorlik davrini kechirmay turib, feudal tuzumiga o'tishlari muhim voqeа bo'ldi. "Varvarlar" san'atidagi ibridoiy tuzumga xos folkloriy tushunchalar bilan antik san'at an'analari qo'shilib o'ziga xos yangi san'at rivojlana boshladi.

"Varvarlar" tomonidan istilo qilingan Rim imperiyasida feudal munosabatlar rivojlana boshlagan edi, istilo natijasida Rimda xristian dini ta'sirida qoldi. Din odamlar ongi, ruhiyatiga chuqurroq kirib bordi. Vizatiya san'ati o'z mohiyati jihatidan aristokratlashdan cho'chimaydi. Bu davrga kelib asosan yog'och o'ymakorligi, naqqoshlik va dekorativ bezak san'ati turlari rivojlandi. Uchinchi asr oxiri IX asr boshlarida Buyuk Karl birinchi kuchli imperiyaga asos soldi. Bu davr san'ati "Korolinglar san'ati» deb nom oldi. Bu san'at, hunarmandlar, Sharq xalqlari, ayniqsa Shom san'atidan ta'sirlangan va unga taqlid qilgan.

Roman san'ati. Buyuk Karl imperiyasi uzoqqa cho'zilmay, tez inqirozga uchradi. Faqat X asr oxirlaridan boshlab Evropada hayot izga tusha boshladi. X-XII asrlarni o'z ichiga olgan taraqqiyot davri roman san'ati deb nom oldi. "Roman" iborasi shartli bo'lib, u lotincha "roma" degan so'zdan olingen bo'lib, "rim" uslubi degan ma'noni bildiradi. Bu davrda me'morchilikka alohida e'tibor berildi.

Roman davri san'atida me'morchilik assosiy o'ringa chiqadi. Bu davr me'morchiligining xarakterli tomoni shundaki, unda binolar birmuncha past, jiddiy va og'ir ko'rinishga ega. Devorlari qalin va mustahkam, eshik, derazalar ensiz. Me'morchilikning bunday ko'rinishi harbiy maqsadlarni ko'zda tutadi. Bu davrda asosan me'morchilik bilan bog'liq bo'lган san'at turlari rivojlanadi. Bular mahobatli rangtasvir, haykaltaroshlshik, vitraj san'ati.

Bu davrga kelib o'ziga xos feudal qasrlar paydo bo'la boshlashi muhim o'rinni tutadi. Rangdor suratlar bilan bino shiftlari va devorlarini bezashga katta e'tibor beriladi. Bu binolar asosan ibodatxonalar bo'lганligi sababli unda suratlar mavzusi ham diniy bo'lib, bu o'sha Bibi Maryam va Iso hayotidan olingen lavhalar edi. Bu davr haykaltaroshligida ham shu yuqoridagi holatni ko'ramiz.

Gotika san'ati. Feodalizm tuzumi ichidagi yangi o'zgarishlar undan keyin kelishi kerak bo'lган tuzumning shart -sharoitlarini yaratishga zamin hozirlashga kirisha boshladi. Bu esa shaharlarning taraqqiy etishiga, bunda savdogar va hunarmandlar rolining ortib borishiga sabab bo'ldi. Evropa markazlarida XII asr boshlarida fanning roli ortdi va birinchi ilmiy markazlar - universitetlar tashkil qilindi. Materialistik dunyoqarashning ilk belgilari paydo bo'la boshladi. Bunda Ibn Sino va uning shog'irdi Ibn Rushd (Averros) ta'siri katta bo'ldi.

San'at va madaniyatda ham katta o'zgarishlar yuz berdi, hayotiy mavzudagi asarlar paydo bo'la boshladi. Ruhoniylar hayotidagi ikkiyuzlamachilikni fosh etuvchi teatrлar, ya'ni komediatlar, maskaradlar yuzaga keldi. G'arbiy Evropa san'ati Vizantiya san'ati ta'siridan qutula boshladi. Keyinchalik bu davrdagi san'atga «Gotika san'ati» deb nom berildi. Bu iboraning lugaviy ma'nosi italyancha so'zdan olingen bo'lib, "gotlarniki" degan mazmunni bildiradi.

Gotika uslubi XII-XIII asrlarda o'zining gullagan davrini boshidan kechirdi.

Bu uslub turli mamlakatlarda turlicha kechdi va uning ichki strukturasi umumiy ko'rinish tusini oldi.

Roman uslubida bo'lgani kabi gotika uslubida ham asosiy o'rinn serhasham va ulug'vor, kattaligi bilan ajralib turadi. Dinning kuchi orta bordi va soborlar oldida nafaqat diniy marosimlar balki, shahar majlislari, har xil munozara va bahslar, universitet ma'ruzalari va xalq sayllari o'tkazilar edi. Shu sababdan bu ibodatxonalar shahar markazlarida ko'rildi. Gotika davri arxitekturasining xarakterli tomonlaridan biri bino ko'tarilgan sari torayib boradi va oxiri shpil bilan, ya'ni nayzasimon tarzda tugaydi. Uning uchiga xo'roz eki boshqacha bir tasvirlar qo'yiladi.

Arxitekturaning yutuqlari ortib bordi. Bularidan biri karkasdan foydalanish bo'lsa, ikkinchisi, bu davrga kelib ularning darchalari kengayib derazalari ko'paydi, bino ichini nurga boyitish istagi kuchayib bordi. Bu esa binolarning ulug'vor, baland bo'lishini ta'minlabgina qolmasdan, ularning engil bir ruhiy holat kasb etishini ta'minlaydi. Me'morchilikda ham o'z ifodasini topadi.

Tasviriy san'atda esa devoriy suratlar ishlanadigan yuzalar binoda yo'qligi sababli, uning o'rnini vitraj egallaydi.

Me'morchilik bilan bog'liq bo'lgan haykaltaroshlik tasviriy san'atda etakchi o'rinni egallaydi.

Gotika davrida dekorativ-amaliy san'at yaxshi rivojlandi. XII - XV asrlarda gotika uslubini Evropaning deyarli barcha mamlakatlar san'ati o'z boshidan kechirdi. Gotika uslubining vatani Frantsiya bo'lib, Parij shahrining ziynati Bibi Maryam sobori (Notrdam de Pari) 1163-1314 yy. qurildi. Reyms Sobori, Amendagi sobor, Keln soborlari (1248 - 1880) kad ko'tardi.

### **Nazorat topshiriqlari:**

1. Vizantiya san'ati o'z mohiyati jihatidan qanday xarakterga ega?  
A) Diniy  
V) Arestokratik  
S) Optimistik  
D) Barcha javob noto'g'ri
2. Uchinchi asr oxiri IX asr boshlarida Buyuk Karl I kuchli imperiyaga asos solgan davr san'ati qanday nom oldi?  
A) «Buyuk Karl»  
V) «Karolitlar»  
S) «Karl»  
D) «Karl I»
3. «Shom» «Roman» iborasi qanday tushunchani o'z ichiga oladi?  
A) «Rim» uslubi  
V) «Romanizm»  
S) «Me'morchilik»  
D) Barcha javob to'g'ri

### **Mustaqil ish topshiriqlari**

1. O'rta asrlar san'ati deganda qanday san'atni tushunasiz?

2. O'rta asr me'morchilik san'ati.
3. Varvarlar san'ati bilan gotika san'atining farqini tushuntirib bering.

### **Mavzuga oid xulosalar**

Evropada o'rta asrlar san'atida gotika, roman va varvarlar san'ati alohida ahamiyatga ega. Rim imperiyasi qulashi bilan G'arbiy Evropa mamlakatlarida madaniyat va san'at antik san'at an'analarining ta'sirida Evropada o'rta asrlar san'atini boshdan kechirdi.

### **Foydalilanilgan adabietlar.**

- 1.Nesselshtaus "Istoriya zarubejnogo iskusstva".-M.: Iskusstvo. 1982. 30 –69 s.
- 2.Chegodaev, Alpatov "Vsemirnaya istoriya iskusstv".-M.: Iskusstvo. 1948. II tom 23-56 s.

## **MAVZU: № 16. UYG'ONISH DAVRI SAN'ATI.**

### **Mashg'ulot turi – ma'ruza.**

**Mashg'ulot shakli:** Obrazli-ma`ruza tushunib olish, esda qolishi kerak bo`lgan bilimlar zahirasini talabalarga ilmiy ma'lumotlarni bayon etish va tushuntirishga qaratilgan.

### **Asosiy masalalar:**

- 1.Talabalarni uyg'onish davri san'ati bilan va shu davrda yashagan yirik san'atkorlar ijodi va hayoti bilan tanishtirish

**Tayanch tushuncha va iborlar:** Garmoniya – nafislik. "David"- afsonaviy qahramon. Gattamelatta - shu davrning jangchi qahramoni. "Madonna"- Bibi Maryam. Grafika - san'atining keng tarqalgan turlaridan biri.

### **Mavzuga oid muammolar**

1. Uyg'onish davri san'atining mislsiz darajada rivojlanishiga nima sabab bo'ldi?
2. Renessans davri san'atkorlarining san'at taraqqiyotiga qo'shgan hissalari nimada?

**1-asosiy masala bo'yicha darsning maqsadi:** Talabalarni uyg'onish davri san'ati bilan va shu davrda yashagan yirik san'atkorlar ijodi va hayoti bilan tanishtirish.

### **Identiv o'quv maqsadlari:**

- 1.1. Uyg'onish davri iborasi haqida fikr yuritadilar.
- 1.2. Uyg'onish davri bosqichlarini sanab o'tadilar.

### **1-asosiy masalaning bayoni:**

Uyg'onish davrida G'arbiy Evropa san'ati. Feodalizm jamiyati qo'ynida ilk kapitalistik munosabatlarning tarkib topishi va rivojlanishi Evropa hayotida yangi va muhim o'zgarishlarga olib keldi. Din asta-sekin o'z mavqeini yo'qota bordi. Omma dindan uzoqlasha bordi, shaharlar kengaya bordi. Ularning shiddat bilan o'sib,

rivojlanishi mayda hunarmandchilikdan manufakturaga o'tishga sabab bo'ldi. Bu shaharlarda savdo-sotiq qilishga tabal kuchaydi. Yangi ixtiolar kashf qilindi. Bu davrdagi taraqqiyot jarayoni shiddat bilan o'sdi, uning natijasida yangi san'at va yangi madaniyat dunyoga keldi. Mamlakatlar orsida madaniy hayotdagi yangiliklar tez tug'ildi. Bu taraqqiyot davri Evropa madaniyati tarixida "Uyg'onish davri" deb nom oldi. Bu iborani ilk bor italyan rassomi va san'atshunos Jorjo Vazare tomonidan, Votto ijodiga nisbat berib aytilgan edi. O'rta asrlar davridan so'ng san'at va adabiyotdagi markaziy e'tibor insonga uning "uyg'onishligining" belgisi edi. Keyinchalik keng mazmun kasb etgan bu ibora Italiyadan tashqari Evropaning boshqa mamlakatlariga, ularning feodalizm davridagi keyingi san'at va madaniyatlarini ta'riflashda boshlandi.

Uyg'onish davrida Italiya san'ati va madaniyati uzoq davom etgan, o'z harakatlarini to'liq namoyon etib, qator taraqqiyot bosqichlarini boshidan kechirdi. Bu quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Uyg'onish davri arafasi - protorensans (XIII-XIV asrlar)
2. Ilk uyg'onish davri - (XV)
3. Yuqori uyg'onish davri-(XV asrning 90 yillari-XVI asrning 20-30 yillari)
4. So'nggi uyg'onish davri-(XVI asrning II yarmi)

Albatta, bu davr barcha Evropa mamlakatlarida turlicha kechdi. Masalan, Germaniya so'nggi uyg'onish, Nederlandiya esa yuqori uyg'onishni boshlaridan kechirgan. Natijada ular chin ma'noda xalqchil asarlar yaratdilar, xalq ommasining orzu- istaklarini, his-tuyg'ularini ifodalab chiqdilar, ilg'or gumanistik goyalarni ko'tarib chiqdilar. Shu boisdan ham bu davr «gumanizm asri» deb nom oldi. Bu lotinchada insoniylik, insonparvarlik, degan ma'nolarni bildiradi. Uyg'onish madaniyati antik dunyo madanitidan ilhomlandi. Antik dunyo yodgorliklarini qunt bilan o'rgandi, ulardan ta'sirlandi. Antik dunyo yodgorliklarining Italiyada ko'plab saqlanib qolganligi bunga juda yaxshi imkon yaratdi. Lekin antik san'atdan farqli ravishda ular qullar sajda qilgan xudolar deb ulardan shu yusinda emas, balki o'z fikrlarini, his-tuyg'ularini, tushunchalarini ifodalashda foydalandilar. Go'zallik va garmoniyani real voqelikdan qidirish, real voqelikdan keng foydalanish shu davr taraqqiyotining mezonini belgiladi. Hayot real hodisa deb tan olindi. San'atkorlar real voqelikni tasvirlashda yangi qonun va qoida izladilar. Asarlar ta'sirchanligini oshirish maqsadi ko'p sohalar bilan hamkorlikda ishlashni taqozo etdi. Perkpestiva, rangshunoslik, soya va yorug', odam anatomiyasi va shunga o'xshash sohalarda katta yutuqlar qo'lga kiritildi.

Me'morchilik va amaliy san'atda yangi tendentsiyalar rivojlandi. Shu bilan birga, qadimgi an'analar o'zlashtirilib, ular yangi mazmun bilan boyitildi. Unga yangi konstruktsiyalar vujudga keldi. Ibodatxonalar bilan bir qatorda ko'p qavatlari va shinam binolar qad ko'tara boshladi. Binolarning tashqi va ichki ko'rinishlarini bezash, ular ichidagi fazoni tashkil qilish masalasida ancha yutuqlarga erishildi. Bu qilingan ishlar keyingi Evropa san'atida ko'proq ahamiyatga ega bo'ldi. Uyg'onish davrining o'ziga xos tomonlari protoreneseans davrida dastlab Italiya rangtasvirida o'zini namoyon qildi. Ijodkorlar diniy mavzuda ishlangan devoriy suratlarda realistik

mazmunni ilgari sura boshladilar. Insonlar orasidagi munosabatlar, muhabbat, olivjanoblik asosiy mavzu bo'lib qoldi. Insonni o'z asarlarida shunday kuylagan san'atkorlardan biri ilk uyg'onish davrining yirik vakili Donatello bo'lди. Uning "David" deb nomlangan haykali uyg'onish davrida birinchi marta libossiz holda tasvirlangan haykal bo'lди. "Otdagi Gettamellatti" haykali esa jamoatchilikka manzur bo'lган. insonni ulug'lash yulidagi birinchi otliq haykal edi. Insonni kuylash, portret san'atining qaytadan tug'ilishiga olib keldi. Portret san'ati bilan uyg'onish davrining buyuk san'atkorlari Leonardo da Vinchi, Rafael Santi, Mikelanjelo, Titsian, Djordjone ijodida o'z ifodasini topdi. Ona, onalik mehri ulug'landi. Bu o'rinda Leonardo da Vinchining "Madonna"si va mashhur "Mono Liza" portretini, Rafael Santining "Sikstin Madonnasi", Mikelangelonning haykallari va devoriy suratlarini, Titsianning inson jismoniy go'zalligini tarannum etuvchi polotnolarini eslatmay o'tish mumkin emas. Bu asarlar renessans davri kishilarining idealida o'zining to'liq obrazli talqinini topdi. Uyg'onish davri me'morchilik va dekorativ amaliy san'at borasida ham katta yutuqlarga erishildi. Shu davrning yirik me'morlari F.Berunelleski, Leon Alberti ijodida o'z ifodasini topdi. Ular yaratgan asarlar Evropa me'morligi san'atining rivojlanishida muhim ahamiyatga egadirlar. Shu bilan birga Germaniyada ham bu davrlarda renessans davri san'atining yirik vakillari yashab ijod qilishgan. Bular ichida Albrecht Dyurer ijodi alohida o'rinn tutadi. U ajoyib grafik, gravyura ustasi, manzara, portret, va boshqa janrlarda ajoyib asarlar yaratdi. Germaniya san'atida Dyurer bilan bir qatorda Lukas Kranax, Mattis Gryudvand, Gans Golbeyn kabi yirik rassomlar ijod qildi. Gollandiya (Niderland) esa tasviriy san'atning yirik vakillari Rog'irvan der Veyzen, Guyu van der Gus, Piter Breygel, Isronim Bosx Gollandiya san'atini yanada yuqori pag'onaga ko'tardilar.

### **Nazorat topshiriqlari:**

1. «Uyg'onish davri» degan iborani ilk bor italyan rassomi va san'atshunosi... tomonidan aytilgan?  
A) Jorjo Vazare  
V) Leonardo da Vinchi  
S) Jotto  
D) Rafael
2. Uyg'onish davri Italian san'ati necha bosqichdan iborat?  
A) 3  
V) 4  
S) 5  
D) 6
3. Uyg'onish davrida birinchi marta libossiz holda tasvirlangan «David» haykali kim tomonidan yaratilgan?  
A) Dyurer  
V) Rafael Santi  
S) Donatello  
D) L. Da Vinchi

### **Mustaqil ish topshiriqlari**

1. Uyg'onish davri san'ti haqida nimalarni bilasiz?
2. Renessans davrining yirik rassom va haykaltaroshlari.

### **Mavzuga oid xulosalar.**

Evropada fan ixtrolari va boshqa o'lkalarga sayohat natijasida ko'pchilik davlatlarda iqtisod rivoj topdi. Uning tasirida san'at sohasida ham yuksalish ro'y berdi, gumanistik g'oyalar vujudga keldi. Tasviriy san'atning qonuniyatları ishlab chiqildi.

### **Foydalanilgan adabietlar:**

1. Alpatov M.V. Xudojestvenno'e problemo' italyanskogo Vozrojdeniya. -M.: 1975. 50-58 s.
2. Rotenberg E.I. Isskustvo Italii epoxi Vozrojdeniya. -M.: 1974. 40-43 s.
3. Libman M.Ya. Iskusstvo Germanii XV i XVI vv. -M.: Isskustvo. 1964. 8-12 s.
4. Alpatov M.V. Piter Breygel. Vozrajdenie Niderlandskogo isskustva -M.: Isskustvo. 1933. 73-76 s.
5. Nessilshtraus Ts.G. Iстория зарубежного искусства -M.: 1982. 161-310 s.

## **II-QISM**

### **MAVZU: № 12. XVII - XVIII ASRLARDA EVROPA SAN'ATI**

#### **Mashg'ulot turi – ma'ruza.**

**Mashg`ulot shakli:** Obrazli-ma`ruza tushunib olish, esda qolishi kerak bo`lgan bilimlar zahirasini talabalarga ilmiy ma'lumotlarni bayon etish va tushuntirishga qaratilgan.

#### **Asosiy masalalar:**

- 1.Talabalarni XVII -XVIII asr Evropa san'ati bilan va uning yirik vakillari bilan tanishtirish.
2. Shu davrda kirib kelgan oqimlar va ularning farqini tushuntirish.

**Tayanch tushuncha va iboralar:** Gollandiya, Finlandiya, Italiya, Ispaniya rassomlarining hayoti va ijodi. Shu davrda yangi kirib kelgan oqimlar klassitsizm, barokko, rokoko.

#### **Mavzuga oid muamolar**

1. XYII-XYIII asr Evropa rassomlarining ijodida o'sishni nima bilan izohlaysiz.
2. Shu davrdagi oqimlarning farqini izohlang.

**1-asosiy masala bo'yicha darsning maqsadi:** Talabalarni XVII-XVIII asr Evropa san'ati va uning yirik vakillari bilan tanishtirish.

#### **Identiv o'quv maqsadlari:**

- 1.1 Barokko va klassitsizm uslubida ijod qilgan rasomlar asarlari haqida gapiradilar.

1.2. Rembrandtning oxirgi asarlari mazmunini tushuntirib beradilar.

### **1-asosiy masalaning bayoni:**

XVII-XVIII asr Evropada kapitalistik munosabatlarning avj olishi va feodolizmdan kapitalizmga o'tish jarayonining tugashida so'nggi bosqich bo'ladi. Ijtimoiy hayotdagi bu o'zgarishlar bevosita san'at taraqqiyotiga o'z ta'sirini o'tkazdi. Fan, san'at va madaniyat gurkirab o'sa boshladi. San'atda real hayotni tasvirlash rivojlandi. Ozodlik g'oyalari, shakllanib kelayotgan burjua parokandalagini feodalizm kirdikorlarini ochib tashlash bu davrda ko'pgina san'atkorlar asarlarining goyaviy mazmunini belgilaydi. San'at majmuasining kengayishi uning yangi tur va janrlarini maydonga keltirdi. Portret, manzara, natyurmort, maishiy san'at ko'p san'atkorlarni o'ziga torta boshladi. Haykaltaroshlikning yangi ifoda vositalariniizlab topdilar, gravyura san'ati shakllandi. Sotsial kuchlarning o'zaro kurashining rivojlanishi esa san'atda turli g'oyaviy-badiiy oqimlarni vujudga keltirdi. Shunday uslublardan biri barokko oqimidir. Italiyalik rassom L.Bernini haykallarida, me'mor Borromining binolarida, flandriyalik rossom P.Rubens kartinalarida barokko uslubining o'ziga xos tomoni namoyon bo'lgan. Klassitsizm oqimida esa hamma narsa xotirjam va ulug'lashiga harakat qiladilar. Lekin shu bilan birga klassitsizm vakillari o'tmishtan badiiy shakl va obrazlarini o'zlari yashab turgan davr mazmuni bilan to'ldirishga, boyitishga harakat qildilar. Bu o'rinda Nikola Pussen asarlari, Klod Lorren manzaralari, Jak Sufflo binolari diqqatga sazovordir. Klassitsizm oqimi XVII asr oxiri XIX asrning birinchi yarimigacha davom etdi va o'zida davr ruhini ifodaladi. XVII-XVIII asr realistik san'atining etakchi o'rniga chiqishi bilan izohlanadi. Bu davrda yaratilgan asarlarda inson o'zining butun borlig'i bilan namoyon bo'la boshladi. Ispaniyalik rassom Diego Velaskes, Gollandiya rossomlari Rembrant va Frants Hals, italiyalik rassom Sharden va boshqalar ijodida bu o'zgarishlar yakqol ko'zga tashlanadi. Inson go'zalligi, uning olivjanobligi va yuksak ma'naviyigli Rembrandt asarlarining mohiyatini tashkil etadi. Uning asarlaridagi chuqur falsafiy mazmun kishi qalbiga quvonch baxsh etadi. Rembrandt rangtasvir va ofort sohasida, qanday mavzuda ishlashdan qat'iy nazar insonni ulug'laydi. Insonlar orasidagi nozik munosabatlarni yaratgan "Oqpadarning qaytishi" asarida hayot va inson to'g'risida o'g'il obrazi orqali hayotning murakkabligi, uni bilish va unga to'g'ri yo'l topa olish nechog'liq og'ir ekanligini ochib beradi. Boshiga og'ir kun va tashvishlarini solishga qaramay o'z o'g'lini bag'rige bosgan mo''tabar inson qiyofasi gavdalananadi. Bu asrlardan boshlab inson mehnati go'zalligi san'atkorning diqqatini torta boshladi. San'atkorlar mehnat mavzusida yirik asarlar yarata boshladilar. Evropa san'atida Diego Valaskes birinchi bo'lib mehnat go'zalligini shoirona, ko'tarinki ruhda talqin etdi. Uning "Gilam to'quvchilar» deb nomlangan asari orqali ularning baxt haqidagi orzularini ko'ra oldi. XVII-XVIII asrda ijtimoiy hayotda sodir bo'lgan o'zgarishlar me'morchilik oldiga ham qator muammolarni qo'ydi. Bu davrdan boshlab cherkov qurilishi kamaydi. U bilan birga dekorativ haykaltaroshlik ham rivoj topdi.

### **Nazorat topshiriqlari:**

1. Barokko uslubida ijod qilgan rassomlar qaysi bandda to'g'ri ko'rsatilgan?  
 A) Rubens, Repin  
 V) Bernini, Rubens, Barrom.  
 S) Bernini, Rubens, Karovadjo.  
 D) Barchasi to'g'ri
2. Klassitsizm uslubida ijod etgan rassomlar qaysi bandda to'g'ri ko'rsatilgan?  
 A) Lorren, N.Pussen, Velaskes.  
 V) Rubins, Pussen, Repin.  
 S) Repin, Shishkin, Velaskes.  
 D) Repin, Velaskes
3. Rembrandt umrining oxirgi yillarida o'zining qaysi mashhur asarlarni yaratadi?  
 A) «Avtoportret»  
 V) «Oqpadarning qaytishi»  
 S) «Danaya»  
 D) Barchasi to'g'ri

### **Mustaqil topshiriqlar**

1. Barokko, klassitsizm va boshqa uslublar, ularning bir-biridan farqi.

### **Mavzuga oid xulosalar**

Shu davrda Evropada kapitalistik munosabatlarning avj olishi san'at taraqqiyotiga o'z ta'sirini o'tkazdi. San'at va madaniyat gurkirab o'sa boshladи. San'atda turli oqimlar paydo bo'ldi.

### **Foydalangan adabiyotlar:**

1. Pruch I.E. Zapad. Evropeyskoe iskusstvo 17 v.-M.: Iskusstvo. 1974. (Malaya istoriya iskusstva) 16-28 s.
2. Rotenberg E.I.Zap. Evropeyskoe iskustvo 17 v.-M.: Iskusstvo. 1871.
3. Ilina «Istoriya Russkogo iskusstva», -M.: 1979 y. 34-76 s.

## **MAVZU: № 13. XVIII ASR OXIRI VA XIX BOSHLARIDAGI CHET EL SAN'ATI.**

### **Mashg'ulot turi – ma'ruza.**

**Mashg`ulot shakli:** Obrazli-ma`ruza tushunib olish, esda qolishi kerak bo`lgan bilimlar zahirasini talabalarga ilmiy ma'lumotlarni bayon etish va tushuntirishga qaratilgan.

### **Asosiy masalalar:**

1. Talabalarni XVIII-XIX asr chet el san'ati bilan tanishtirish.
2. Buyuk rassomlar hayoti va ijodi bilan tanishtirish.

**Tayanch tushuncha va iboralar:** Goratsiyalar – Qadimgi Rim davridagi xalq qahramonlari.

## **Mavzuga oid muammolar**

XVIII-XIX asr chet el san'atida g'oyaviy badiiy mazmunning o'zgarishida demokrat rassomlarning ta'siri nimada?

**1-asosiy masala bo'yicha darsning maqsadi:** Talabalarni XVIII-XIX asr chet el san'ati bilan tanishtirish.

### **Identiv o'quv maqsadlari:**

Jak Lui Davidning klassitsizm oqimiga xos asarlarini sanab o'tadilar. Romantizm va klassitsizmning bir-biridan farqini tushuntirib beradilar.

### **1-asosiy masalaning bayoni:**

XVIII asrning oxiri XIX asrning boshlarida ijtimoiy hayotda sodir bo'lgan o'zgarishlar san'atda g'oyaviy badiiy mazmunning o'zgarishiga olib keldi. Ba'zi demokrat rassomlar ijodida proletariatning revolyutsiyasi bilan bog'liq bo'lgan asarlar paydo bo'la boshladi, san'at asarlarining tarbiyaviy imkoniyatiga alohida e'tibor berila boshlandi. Tanqidiy realizm rivojlandi. Rassomlar o'z asarlari bilan idealistik san'atga qarshi chiqib, aristokratiya parokandaliklarini tanqid qila boshladilar. Bu o'rinda angliyalik rassom Uilyam Xogartning satirik kartina va gravyuralarini, germaniyalik rassom D.Xodorning suratlarini eslab o'tish mumkin. XVII asrning oxirgi choragida Evropa tasviriy san'atidagi asosiy oqim klassitsizm oqimi bo'lib qoladi. Bu oqim o'zining to'liq mohiyatini, ayniqsa, Frantsiya san'atida namoyon qildi. Bu erda u revolyutsion mazmun bilan sug'orilib burjuaziya revolyutsiyasi g'oyalarini targ'ib etdi. Bu revolyutsion klassitsizmning yirik vakili va yulboshchisi Jak Lui David ijodida yakqol sezadi. Uning "Goratsiyalar qasami" asri revolyutsion klassitsizm oqimning xarakterli namunasidir. Bu kartinaning syujeti Rim respublikasi tarixidan olingan. Bu asar otaning o'z o'g'llarin dushsanlardan qo'rmaslikka va Vatan uchun qurban bo'lishdan ham qo'rmaslikka da'vat etadi David ijodining eng cho'qqisi "Maratning o'limi" nomli asarida namoyon bo'ldi. Bu asar XVIII asr Evropa tasvirlangan san'atning eng nodir asari hisoblanib, unda frantsuz revolyutsiyasining dohiysi Maratning o'ldirilishi tasvirlangan .Bu asarida David konkret voqeasida yuksak badiiy obraz yaratadi. "Maratning o'limi " revolyutsiya qurbanlari uchun yaratilgan asar sifatida, ommani revolyutsion ruhda tarbiyalashga xizmat qildi, ularni kurashga chorladi. David revolyutsiya yillarida potret janriga ham murojaat qildi. Oddiy kishilarning portretlarini yaratdi Ularning bo'ysunmas xarakteri, psixologik holatini ochib beradi. Bu o'rinda uning «Ayol» portreti diqqatga sozvordir.

Evropa san'atida XVIII asrning oxirida vujudga kelgan yana bir yirik oqimlardan biri Romantizm bo'ldi. Bu oqimning eng gullagan davri 1820 -30 yillarga to'g'ri keladi. Bu davrda romantizm oqimi Teodor Jeriko ijodida o'z ifodasini topdi. Uning «Meduza soli» polotnosida bo'lib o'tgan voqeas "Meduza" kemasining Atlantik okeanida halokatga uchrashi tasvirlanadi. Ochiq okeanda "Meduza" kemasi suv osti qoyasiga urilib, parchalanib ketadi. Kemada qutqarish uchun hech qanday vositalar yo'q edi. Shu boisdan kema a'zolari kema qoldiqlaridan sol yasab olishadi va uning

ustiga 149 kishi chiqib oladi. Tasodifan o'tib ketayotgan kema odamlari tomonidan bu qolgan odamlar qutqarilib qolinadi. Bu asarda rassom ana shu voqeani soldagi odamlarni uzoqda suzib borayotgan kemani ko'rib, undan yordam surayotgan vaqtini ko'rsatadi. Romantizm oqimining yana bir vakili Ejen Delakruadir. Uning «Barrikadalardagi ozodlik» polotnosi ham bevosita konkret voqeani aks ettirishga qaratilgan. Bu revolyutsiya ta'sirida yaratilgan bo'lib, tarixiy voqeani aks ettirdi, revolyutsiyada qatnashgan xalq obrazini yaratdi. Rassom bu asrda bo'layotgan jangning shiddatini, qizg'inligini, bu revolyutsiyada xalqning hamma tabaqasi qatnashganini ko'rsata oldi. Qo'lida bayroq ushlagan ayol obrazi ozodlik ramzi sifatida tasvirlangan. Qolganlar esa unga intilgan. Ularni ozodlikka olg'a boshlamoqda. XVIII asr oxirlaridan boshlab Evropa san'atida Realistik oqim asosiy oqimlardan biriga aylanib qoldi. Voqelikka murojaat qilish, hayotda sodir bo'layotgan voqealari va hodisalarining mohiyatini ruy – rost ko'rsatish ko'pgina san'atkorlar diqqatini o'ziga jalb eta boshladi. Bu printsip ispan rassomi Fransisko Goyya ijodida alohida o'rinn egallaydi. Uning asarlari va satirik ofortlarida ispan hayotida sodir bo'lgan voqealar o'zining to'liq badiiy ifodasini topdi. Uning «2 maydan 3 mayga o'tar kechasidagi qotillik» asari XIX asr xalqlarining ozodlik va mustaqillik uchun olib borgan kurashini aks ettiruvchi buyuk asarlardan biridir. Asarda ko'zg'olon ko'targanlarni tundagi otish payti tasvirlanadi. Kompozitsiya quolsiz omma va qurollangan jallodlarni qarama-qarshi qo'yish printsipida tuzilgan. Asar markazida oq ko'ylakli qo'zg'olonchi tasvirlangan bo'lib, u orqali rassom bo'ysunmas ispan xalqi timsolini gavdalantiradi. Goyya o'zining mashhur ofordlar turkumida Ispaniyadagi monarxiya tuzumini, ma'naviy qashshoq ruhoniylarni, bag'ritosh inkvizitorlarni qattiq qoralaydi.

XIX asrdan boshlab G'arbiy Evropa san'atida realistik oqim asosiy o'rinni egallab oldi. Buning boisi bor edi, albatta. Ko'pgina ijodkorlar ijtimoiy hayotda bo'layotgan revolyutsion harakatlarda qatnashib, shu voqealarni o'z asarlarda tasvirlab, shu bilan birga o'zlarini ham shu mamlakatning faol fuqarosi ekanini chuqurroq his eta boshladilar. Ular o'z xalqlarining orzu–istaklari, intilishlari bilan yashay boshladilar. XIX asrdan boshlab manzarachi rassomlar ko'zga ko'rinarli yutuqlarni qo'lga kiritish boshlaydilar. Ular jonajon o'lkalari manzarasini chizish orqali kishilarda o'z yurtiga muhabbat uyg'otish, ularda vatanparvarlik tuyg'ularini oshirishga harakat qildilar. Manzara janriga bo'lgan bunday munosabat angliyalik rassom J. Konstebli va frantsiyalik Barbizon maktabining yirik vakillari Teodor Russo, Sharl Dobini va boshqalar ijodida yakqol ko'zga tashlanadi. Ular erta bahorgi maysazorlarni, suv, havo, nur go'zalligini kuylaydilar. Jamiatning ilg'or ijodkorlari shu mavjud hayotda sodir bo'layotgan voqealarni tasvirlash bilan chegaralanmasdan, shu bilan birga. voqelikni ideal taraqqiyot yuliga burish, dunyonni go'zallik qonunlari asosida qayta qurish ishtiyoqi bilan yondashadilar. O'z asarlarini shu maqsadga bo'ysundirishga harakat qiladilar. Bu davr san'atkorlarining asarlari ko'proq tanqidiy xarakterga ega bo'lib, sotsial tengsizlik, og'ir mehnat va boshqa jamiat illatlarini ro'y–rost ko'rsatishga intilish bilan xarakterlanadi. Buni ko'rsatishda, ayniqsa, mehnat mavzusi ko'pchilik ijodkorlar diqqatini o'ziga jalb qildi. Dehqon, hunarmand va ishchilar hayoti, mehnati ko'pgina san'atkorlar

asarlarining bosh mavzusi bo'lib qoldi. Shunday mavzuda ijod qilgan san'atkorlardan biri frantsiyalik Onore Domedir. U o'z asarlarida bo'layotgan voqealarni tasvirlar ekan, shu voqealarga o'z munosabatini bildiradi, insonlar orasidagi samimiy muhabbatni kuylaydi. Burjua illatlarini, ikkiyuzlamachilikni tanqid qiladi. Hayotiy voqealarga befarqlikni qoralaydi. Domening ana shunday mavzularga bag'ishlangan asarlaridan biri «Qonun chiqaruvchilar uyasi» asaridir. Bu asarda rassom deputatlarni palata majlisi vaqtida tasvirlaydi, har bir obrazning individual xarakterini ochib berishga harakat qiladi. Lekin shu bilan birga bu obrazlarning hammasida umumiy o'xhashlik – atrofqa befarqlik: ma'naviy tubanlik, aqliy notavonlik yakqol seziladi. Davlat arbobi degan oliy nomga bo'larning xech qanday daxli yo'qligini ko'rsatadi. Domening ta'sirchan asrلaridan biri «Transonen ko'chasi» asaridir. Bu asarda ishchi kvartallaridagi qo'zg'olonchilarning qirg'in qilinishi juda ta'sirchan qilib, ko'rsatilgan. Polda o'lib yotgan ishchi, uning tagida ezilib, o'lib qolgan go'dak, qariyani tasvirlash orqali fojeaning nixoyatda og'ir ekanligini ko'rsatishga harakat qilgan. Dome o'z ijodida ijobiy obrazlarga ham murojaat qiladi. Oddiy mehnatkash xalq obrazini mehr bilan tasvirlaydi. Ularga o'z xayrixohligini bildiradi. Uning «Kir yuvuvchi», «III klass vagoni passajirlari» degan asari shular jumlasidandir. Oddiy xalq hayoti va mehnatini tasvirlagan yirik frantsuz rassomlari J. F. Mille va G. Kurbe asarlarining mazmunini tashkil etadi. Millening mashhur asarlaridan biri «Boshoq teruvchi ayol» kartinasidir. Bu asarda dehqon ayollari, o'rimdan keyingi dalada qolgan bug'doy boshoqlarini yigayotganlarni tasvirlash orqali dehqonlar turmushining nixoyatda og'ir ekanligini ko'rsatdi. G. Kube o'z asarlarida ijtimoiy hayotda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni ochib berishga intildi. «Demokratik san'at realizmdir» - degan san'atkor bu fikriga umrining oxirigacha sodiq qoldi. Kurbe o'zi bilgan va uni o'rabi turgan voqealarni tasvirlar ekan, ularning ulug'vor, badiiy bo'lishiga harakat qildi. Uning kartinalari ichida «Ornandagi dafn marosimi» kartinasini diqqatga sazavordir. Bu kartina bevosita ma'lum voqealarni ishlangan bo'lib, unda tasvirlangan har bir obraz rassomga tanish va ular qaytarilmas xarakterga, o'z dunyoqarashiga ega bo'lgan shaxslardir. Rassom har bir shaxsning xarakterini, bo'layotgan voqeaga munosabatini ko'rsatish orqali asar g'oyasi hisoblangan inson qadrining so'nib borayotganligini ochib berishga muvaffaq bo'ldi.

### **Nazorat topshiriqlari:**

1. Jak Lui David ijodida revolyutsion klassitsizm oqimining xarakterli namunasi bo'lgan asari qaysi bandda to'g'ri ko'rsatilgan?  
A) «Sirli kecha»  
V) «Goratsiyalar qasami»  
S) «Maratning o'limi»  
D) Barchasi to'g'ri
2. Romantizim oqimi ijodkorlari klassitsizm vakillariga nisbatan nimaga ko'proq e'tibor beradilar?  
A) Real voqelikka  
V) Tarixga  
S) Monumental san'atga

D) Dastgohli san'atga

3. Qadimgi davrdagi xalq qahramonlarini nima deb atashganlar?

A) «Ahmoniyalar»

V) «Spartakchilar»

S) «Goratsiyalar»

D) Barchasi to'g'ri

### **Mustaqil topshiriqlar**

1. Revalyutson klassitsizm nima?

2. «Barbizon maktabi» deganda nimani tushinasiz

### **Mavzuga oid xulosalar**

Bu davrning rassomlari ijodlarida proletariatning revolyutsiyasi bilan bog'liq asarlar paydo bo'ldi. Realistik oqim asosiy oqimlardan biriga aylandi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ilina «Istoriya Russkogo iskusstva». -M.: Iskusstvo. 1979.

34-76 s.

2. A. D. Chegodeev, M. V. Alpatov «Vsemirnaya istoriya iskusstva», T-4. -M.: 1949. 40-45 s.

3. M. V. Alpatov «Russkoe iskusstvo XVIII–XIX vekov» -M.: Iskusstvo. 1958. T-2. 22- 45 s.

3. Rotenberg E.I.Zap. Evropeyskoe iskustvo 17 v. –M. 1871.

## **MAVZU: № 14. XIX ASRNING I YARMIDA RUS SAN'ATI.**

**Mashg'ulot turi – ma'ruza.**

**Mashg`ulot shakli:** Klaster tehnologiyasi asosida ishslashga mo'ljallangan ma'ruza mashg'uloti.

**Asosiy masalalar:**

1. Talabalarni shu davr rus san'ati bilan to'liq tanishtirish.

2. Rossiyaga Evropadan kirib kelgan oqimlar va uning yirik vakillari bilan tanishtirish.

**Tayanch tushuncha va iboralar:** Peterburg, «Samson», Dekabristlar qo'zg'oloni.

### **Mavzuga oid muammolar**

1. Evropadan Rassiyaga kirib kelgan oqimlarning san'atga ta'sirini izohlang.

2. Pyotr I reformalarining rus san'atiga ta'sirini izohlang.

**1-asosiy masala bo'yicha darsning maqsadi:** Talabalarni shu davr rus san'ati bilan to'liq tanishtirish. Rossiyaga Evropadan kirib kelgan oqimlar va uning yirik

vakillari bilan tanishtirish.

### **Identiv o'quv maqsadlari:**

XIX asr I yarmida faol ijod qilgan rassomlarni sanab o'tadilar. Pyotr I ning san'at rivojiga qo'shgan hissasini izohlab beradilar.

### **1-asosiy masalaning bayoni**

Rus san'atining keyingi rivojlanishi XVIII asr boshlarida Pyotr I reformalari bilan uzviy bog'liqdir. Pyotr I rus san'ati va madaniyatini ko'tarish uchun xaqiqiy jonbozlik ko'rsatdi. Shu davrda Pyotr I Peturburg shahriga asos soldi. Shahar qurilishi uchun chekkadan ko'plab me'mor, quruvchi – injenerlar, rassomlar jalg etdi. Shu bilan birga milliy san'atkorlarni tayyorlash muhim vazifalar qatoriga qo'yildi. Kobiliyatli rus yoshlari chet ellarga o'qishga yuborildi, ularga shaxsiy homiylik qilindi. Bu esa rus badiiy mакtabining rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatdi. Bu davrda etakchi o'rinni me'morchilik san'ati egalladi. Uning tur va janrlari kengaydi, yangi tiplari, jumladan, teatr, kutubxona, saroylar, o'quv dargohlari, maydon va bog-parklar vujudga keldi. Haykaltaroshlik borasida katta yutuqlarga erishildi. Bu o'rinda Pyotr I ga o'rnatgan yodgorlik, «Mis chavandoz», V. Kozlovskiyning «Samson», A. Suvorov haykali F. I. Shubinning portretlari, Martosning «Minin va Pojarskiy» haykallarini eslab o'tish mumkin. Bu asarlar Evropa klassik san'atining an'analarini chuqur egallagan, uni yangi davr mazmuni bilan tuldira olgan etuk ijodkorlar mavjudligidan, rus san'atining ilg'or vakillari Evropa san'ati bilan uzviy bog'liqligi va aloqadorligidan dalolat beradi. Bu davrda rangtasvir sohasida ham sezilarli rivojlanish bo'ldi. Portretchi rassom I. N. Nikitin, A. G. Antropov, I. P. Argunov, F. S. Rokotov, D. G. Levitskiy, V. L. Borovikovskiylar rus realistik rangtasvirining rivojiga samarali ta'sir ko'rsatdilar. Shu davr ijodkorlari san'at tarixida birinchi bo'lib, xalqning ulug'vorligini to'laqonli, ko'p figurali kompozitsiyalar orqali yoritib, o'z davrining haqiqiy obrazli panoramasini yaratishdi. Portret, maishiy, tarixiy va manzara janrlarida yaratilgan asarlar yuksak mahorat bilan ishlanganligi, o'zining chuqur psixologizmi, kompozitsion tugalligi va mazmundorligi bilan hamon kishilarga estetik va ma'naviy ozuqa baxsh etib kelmoqda. XIX asr Rus san'ati taraqqiyotidagi dastlabki bosqich bevosita 1812 yil Vatan urushi bilan bog'liqdir. Urushning rus xalqi uchun g'alaba bilan tugallanishi milliy g'ururning o'sishi, insonga nisbatan yangi munosabat, hurmat bilan qarashning paydo bo'lishiga olib keldi, hamon hukm surayotgan krepostnoy tuzumining jamiyat taraqqiyotiga to'siq ekanligini aniqroq ko'rsatib berdi. Rossiyaning ilg'or kishilari bu tuzumning bekor qilinishini talab qilib, Chor Samoderjaviyasiga karshi kurash boshladilar. Bu kurash bo'lib o'tgan Dekabristlar qo'zg'olonida yaqqol namoyon bo'ldi. Ijtimoiy hayotdagि kayfiyatlar san'at va adabiyotga o'z ta'sirini o'tkaza boshladidi. San'atkorlar inson qadr-qimmatini ulug'lovchi asarlar yaratishga alohida e'tibor bera boshladilar. Insoniy burch, vatanparvarlik mavzularida asarlar yaratdilar. San'atkorlar o'z asarlarida ommani tarbiyalash, ular orasida ma'rifat tarqatishag harakat qildilar. Bu davrning ilg'or vakillari portret ustasi O. A. Kigrenkiy, V. A. Tropinin, A. G. Venitsianovlar edi. Ular hayotni jon dili bilan sevuvchi inson obrazlarini yaratdilar;

hayotni to'laqonli tasvirlab, inson va tabiat uyg'unligini kuyladilar. Insonlarning mehnatsevarligini, ichki go'zalligini, uning jasurligini o'z asarlarida ko'rsatdilar. Bu rassomlar mohir pedagog sifatida ham mashhurdirlar. XIX asrdan boshlab, rassomlar qaysi mavzuga murojaat qilishmasin, qaysi janrda asar yaratishmasin, dastlab o'z zamondoshlarining his-tuyg'u, fikr va o'ylarini ifodalashga, davrning dolzARB masalalarini xalq orasida yoyishga harakat qildilar. Bu o'rinda K. P. Bryullovning «Pompeyning so'nggi kuni», A. A. Ivanovning «Isoning xalqqa ko'rinishi» kabi polotnolari xarakterlidir. «Pompeyning so'nggi kuni» da rassom o'tmish voqeasini tasvirlash bilan chegaralanmaydi, balki shu fakt asosida o'sha davr uchun zarur bo'lgan axloq, burch masalalarini kuylaydi. Rassom odamiylik va xudbinlikni qarama-qarshi qo'yari ekan, shu bilan birga, insoniylikni hamma narsadan yuksak qo'yadi. Bu hol odamlarning xatti-harakati, hissiy kechinmalaridan yaqqol ko'rindi. Bryullov olivjanoblikni, insoniylikni ulug'laydi, inson manfaatini shaxsiy manfaatdan yuqori qo'yadi. A. Ivanovning «Isoning xalqqa ko'rinishi» asari diniy mavzuda bo'lsa ham, rassomning xalq hayoti masalalari to'g'risidagi fikr-o'ylari unda etakchi o'rinni egallaydi va natijada asr davr mazmuni va kayfiyatini aks ettiruvchi realistik asar darajasiga ko'tarildi. Xalqning haqiqatga, ozodlikka bo'lgan intilishi va ichki kechinmalari bu asar mazmunini tashkil etadi.

Rus rangtasvirida yaratilgan bu asarlar keyingi rassomlar tomonidan yana rivojlanтирildи, mavzulari kengaytirildi.

### **Nazorat topshiriqlari:**

1. XIX asrning I yarmida rus realistik rangtasvirning rivojiga samarali ta'sir ko'rsatgan portretchi rassomlar qaysilar?  
A) I. Shishkin, D. Levitskiy  
V) D. Levitskiy, I. Nikitin, A. Antropov  
S) I. Repin, I. Nikitin  
D) I. Nikitin, A. Antropov
2. «Pompeyning so'nggi kuni» asarining muallifi kim?  
A) I. Repin  
V) I. Shishkin  
S) K. Bryullov  
D) Barchasi to'g'ri
3. Petr I reformalarining rus san'atining rivojlanishiga ko'rsatgan ta'siri nimada?  
A) San'at rivojiga homiylik qildi.  
V) Yoshlarning chet ellarda ilm olishlariga yul ochib berdi.  
S) A va V to'g'ri  
D) A va S to'g'ri

### **Mustaqil ish topshiriqlari**

1. XIX asr tarixida rus san'atini tutgan o'rni

### **Mavzuga oid xulosalar**

Shu davrda qobilyatli rus yoshlari chet ellarda o'qib, rus badiiy maktabining

rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsadi. Tasviriy san'atning tur va janrlari kengaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ilina «Istoriya russkogo iskusstva», -M.: Iskusstvo. 1979.  
34-76 s.
2. A. D. Chegodeev, M. V. Alpatov «Vsemirnaya istoriya iskusstva», T-4. -M.: 1949.  
49 s.
3. M. V. Alpatov «Russkoe iskusstvo XVIII–XIX vekov» -M.: 1958. T-2. 22- 45 s.

## **MAVZU: № 15. XIX ASRNING OXIRI XX ASRNING BOSHLARIDAGI RUS SAN'ATI.**

**Mashg'ulot turi – ma'ruza.**

**Mashg'ulot shakli:** Klaster tehnologiyasi asosida ishlashga mo'ljallangan ma'ruza mashg'uloti.

**Asosiy masalalar;**

**Tayanch tushuncha va iboralar:** «Ko'chma ko'rgazmalar birodarligi», revolitsonerlar.

### **Mavzuga oid muammolar**

1. San'atning rus revolitsion harakati bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatib bering.
2. «Sayyor rassomlar» ijodi muvaffaqiyatining sababini ko'rsatib bering.

**1-asosiy masala bo'yicha o'qituvchining maqsadi:** Talabalarni ushbu mavzu bilan tanishtirish. Bu davrda yangi kirib kelgan oqimlar va ularning farqini tushuntirish. XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida rus san'atida yangi kirib kelgan oqimlar va ularning farqini tushuntirib berish.

### **Identiv o'quv maqsadlari:**

«Kuchma ko'rgazmalar birodarligi» a'zolari haqida so'zlaydilar.

Birodarlikning yulboshchisi I.Kramskoy va manzarachi rassomlarni sanab o'tadilar.

### **1-asosiy masalaning bayoni:**

Bu davr tasviriy san'at taraqqiyoti va xarakteri bevosita rus revolyutsion harakati bilan chambarchas bog'liqdir. Rassom va haykaltaroshlar o'z ijodlarida bevosita revolyutsion demokratlar V. G. Belinskiy, N. G. Chernishevskiy, N. A. Dobrolyubovlarning g'oyaviy-estetik printsiplariga murojaat qildilar. San'atkorlar o'z ijodlarida xalq hayotining mohiyatini ochib berishga, xalqning buyuk qudratini kuylashga harakat qildilar. Inson huquqini paymol etuvchilarga qarshi isyon ko'tardilar, ijtimoiy tuzum kirdikorlarini fosh etdilar.

San'atda sodir bo'lgan bu xususiyatlar rangtasvirning maishiy va portret janrlarida yaqqol namoyon bo'ldi. Bu sohada etuk, g'oyaviy pishiq asarlar yaratildi. San'atda sodir bo'lgan bu yo'naliishlarning ravnaqi bevosita XIX asrning II yarmida tashkil

etilgan "Kuchma ko'rgazmalar birodarligi" birlashmasining faoliyati bilan bog'liqdir. Unda mashhur rus tanqidchisi V. A. Stasov hamda san'at homiysi P. M. Tretyakovlarning roli katta bo'ldi. "Ko'chma ko'rgazmalar birodarligi" o'z tevaragiga ilg'or san'atkorlarni birlashtirdi, xalq hayotini aks ettiradigan realistik san'atni rivojlantirish va targ'ib etishni o'zining asosiy maqsadi deb bildi. Bu birlashmaga a'zo bo'lган, uning g'oyaviy platformasini tan olgan va ko'rgazmalarida qatnashgan rassomlar "sayyor rassomlar" deb nom oldilar. Bularning yo'lboshchisi va tashkilotchilaridan biri Ivan Nikiforovich Kramskoydir. U portretchi san'atkor sifatida taniqli bo'lib, uning asarlari o'zining chuqur psixologizmi bilan ajralib turadi. Uning ko'pgina portretlari chuqur talqin etildi, ya'ni tasvirlanayotgan obraz biron bir narsa bilan shug'ullanayotgan paytda, tevarak-atrof ko'rinishi bilan bog'liq tarzda tasvirlanadi. Ayniqsa, uning "Nekrasov", "Notanish ayol" asarlari juda mashhurdir.

"Sayer rassomlar" a'zosi, taniqli rassomlardan biri V. G. Perovdir. U o'zining butun ijodiy faoliyatida xalq hayotini tasvirlashga, mavjud tuzum kamchiliklarini ochib tashlashga intiladi. Uning bu intilishlari "Uchoylon", "Marhumni kuzatish", "Chegaradagi mayxona" kabi qator asarlarida o'z ifodasini topgan. XIX asrning II yarmidan boshlab rus badiiy hayotida faol ishtirok eta boshlagan buyuk rus rassomi I.E. Repin o'zining butun umrini rus san'atining ravnaqiga bag'ishladi. Repin tarixiy, maishiy va portret janrlarida samarali mehnat qilgan. Uning asarlari o'zining chuqur psixologizmi, badiiy tilining soddaligi va tushunarligi hamda yuksak professional mahoratda ishlanganligi bilan kishini hayratlantiradi. U yirik, ko'p figurali asarlar yaratdi, "Kursk guberniyasidagi yurish», «Zaporojeliklar maktubi", "Volgadagi burlaklar», «Ivan Grozniy va uning o'g'li Ivan", "Kutmagan edilar" kabi buyuk asarlar shular jumlasidandir. Shu bilan birga, u mashhur zamondoshlarining portretlari galeriyasini ham yaratib qoldirdi. Bular ichida M. P. Musorgskiy, M. V. Glinka, L. N. Tolstoy, A. M. Gorkiy, V. V. Stasov portretlari diqqatga sazovardir. XIX asrning ikkinchi yarmida samarali ijod qilgan V. M. Vasnetsov o'z ijodida xalq doston va ertaklardan olingan syujetlar asosida asarlar yaratdi. Uning "Pahlavonlar", "Alyonushka", "Bo'ri mingan shahzoda", "Kanizey podsho huzurida", "Uyqudag'i malika", "Uchar gilam" asarlari mashhurdir. Bu asarlarda xalqning baxt -saodat va adolat haqidagi orzu-umidlari kuylanadi. Bu davr dunyoga mashhur yirik san'atkorlarni etkazib berdi. Ular ichida portret ustalari V. A. Serov, K. Korovin, K. Makovskiy, buyuk rus tarixiy janrchisi V. I. Surikov, N. A. Yaroshenko, I. M. Pryanishnikov, teatr rassomi M. A. Vrubel, N. A. Kasatkin. A. E. Arxipov. Bu davrda haqiqiy rus milliy manzara rangtasviri maydonga keldi. Manzarachi rassomlar rus o'lkasining go'zalligi, bepoyonligini ko'rsatish orqali kishilarda vatanparvarlik hislarini o'stirishga, oddiy tabiat ko'rinishidagi go'zallikni to'laqonli ifodalashga harakat qildilar. Tabiatning turli holatlarini raal tasvirladilar. A.K. Savrasov ana shunday birinchi rassomlardandir. Uning "Qora qarg'alar uchib kelishdi" deb nomlangan suratida qish qaytishi, tabiatning jonlanishi tushunarli va jonli talqin etilgan. Shu davrda yashagan I. I. Shishkin, F. A. Vasilev, V. D. Polenov kabi rassomlar ham manzara tasviri namunalarini yaratib qoldirdilar. Shu davrda yashab ijod etgan yirik rus rassomi I. P. Levitanning mavzusi ham rus tabiatini

kuylashga qaratilgan. U o'z asarlarida tabiat go'zalligi va ulug'vorligini ko'rsatish bilan birga, asarlarida davr kishilarining ruhini ifodalashga, o'zining hayot to'g'risidagi falsafiy fikrlarini bayon etishga harakat qildi. Uning "Vladimirka", "Qabr ustida", "Mangu sukunat" kabi asarlari shular jumlasidandir.

### **Nazorat topshiriqlari;**

1. «Ko'chma ko'rgazmalar birodarligi» ga a'zo bo'lган va unda ijod etgan rassomlar qanday nom olgan?  
A) « Revolyutsion rassomlar»  
V) « Ko'chmanchi rassomlar»  
S) « Sayyor rassomlar»  
D) Barcha javoblar to'g'ri
2. «Sayyor rassomlar» yo'lboshchisi va tashkilotchisi kim?  
A) I.Repin  
V) I. Kramskiy  
S) I.Shishkin  
D) To'g'ri javob yo'q
3. «Qabr ustida», «Mangu sukunat», «Oltin kuz» kabi asarlar muallifi kim?  
A) I.Levitan  
V) I.Shishkin  
S) A.Savrasov  
D) I. Kramskoy

### **Mustaqil ish topshiriqlari**

1. «Ko'chma ko'rgazmalar birodarligi» ning mohiyati.
2. Rus manzara janri vakillari.

### **Mavzuga oid xulosalar**

Rus san'atining bu davrda rivojlanishi Pyotr I islohotlari bilan bog'liqdir. Qobiliyatli rus yoshlari chet elga yuborildi, va ularning samarali mehnatlari rus badiiy mакtabining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi. Bu davrda tasviriylar san'atning tur va janrlari kengaydi.

### **Foydalanilgan adabietlar:**

1. Vseobhaya istoriya iskusstv -M.: 1960. Tom - 4. 191 – 207 s.
2. A. D. Chegodeev, M. V. Alpatov «Vsemirnaya istoriya iskusstva», T-4. -M.: Iskusstvo. 1949.
3. M. V. Alpatov «Russkoe iskusstvo XVIII–XIX vekov» -M.: Iskusstvo. 1958. T-2. 22- 45 s.

## **MAVZU: № 16. XX ASR SOBIQ SOVET DAVRIDAGI SAN'AT**

**Mashg'ulot turi – ma'ruza.**

**Mashg`ulot shakli:** Klaster tehnologiyasi asosida ishlashga mo`ljallangan ma`ruza mashg`uloti.

### **Asosiy masalalar**

1. Talabalarni XX asr san`ati bilan tanishtirish.

**Tayanch tushuncha va iboralar:** "Petrograd mudofaasi", yangi davr, proletariat, ishchi sinf, yangi tarix, tasviriy san`atda oqimlar.

### **Mavzuga oid muammolar**

«San`ting bosh qahramoni - xalq» degan iborani izohlang.

#### **1-asosiy masala bo'yicha darsning maqsadi:**

Talabalarni XX asr san`ati bilan tanishtirish.

#### **Identiv o'quv maqsadlari:**

XX asr yangi janrlari bilan tanishtiradilar.

S.Gerasimov asarlarini va maishiy janrda ijod qiluvchi rassomlarni sanab o'tadilar.

#### **1-asosiy masalaning bayoni**

XX asrning boshlarida insoniyat tarixida yangi davr boshlandi. Bu san`at chin ma'noda ommani orzu-istikclarini, his-tuyg'u, fikr-o'ylarini ifodalovchi san`atga aylandi. Xalqning o'zi esa uning ijodkori bo'lib, maydonga chiqdi.

San`atning bosh qahramoni xalq edi. Uning olivjanob mehnati, er yuzida tinchlik, demokratiya uchun olib borayotgan kurashi, hayotga bo'lgan chuqur muhabbatni san`atkorlarning asosiy mavzusidir. Bu davrda san`atning mavzusi kengaydi, uning yangi tur va janrlari maydonga keldi. Bu tarixiy sobiq inqilob janridir. Bu janrning mazmuni bevosita sho'rolar inqilobi, fuqarolar urushi yillari bilan bog'liqdir. Rassom va haykaltaroshlar bu janrga murojaat qilar ekanlar, dastlab xalqning ulug'vorligi va qudratini ohib berishga harakat qildilar. Bu davr ajoyib ustalarni etkazib berdi. Bular ichida Isak Izrailevich Brodskiy edi. U bir necha yirik monumental asarlar yaratdi. Bularidan tashqari shu davrning yirik rassomlaridan G. Ryajskiy, B. V. Ioganson, K. S. Malevich, A. V. Lentulov, A. A. Deyneka, A. A. Plastov, M. Serov, A. Samoxvalov kabi rassomlar yashab ijod qilganlar. Inqilob mavzusidan tashqari manzara janri ham katta yutuqlarga erishdi. Manzara janrida ishlagan rassomlardan biri bu A. A. Rilov edi. Uning asari go'zal va ulug'vor. U asarlarini davr kishilari ruhi bilan to'ldirishga harakat qiladi. Oktyabr to'ntarishi va fuqarolar urushini aks ettiruvchi asarlar, insonlarning mardligi va jasoratiga bag'ishlangan polotnolar ham o'sha davr tarixida faxrli o'rinni egallaydi. Bu mavzudagi asarlar o'zining ishlanishi va uslubining rang-barangligi bilan ajralib turadi. A. A. Deynekaning "Petrograd mudofaasi" deb nomlangan polotnosi 1928 yil yaratilgan. M. B. Grekovning "Budyoniy otryadi", N.M. Shuxminning "Maydonga chiqish haqida buyruq", G. K. Savitskiyning "Eski armiyaning 1918 yil stixiyali qaytishi", K. S. Petrov-Vodkinning "Komissarning o'limi", 1919 y. "Trevoga", I. D. Shadrning "Tosh - proletariat quroli" kabi asarlarida sobiq inqilob va fuqarolar

urushi yillaridagi kishilarning kayfiyati o'zining badiiy ifodasini topgan.

Shu bilan birga, kishilarning dushmanga bo'lgan nafrati, o'z yurti va xalqiga bo'lgan chuqur muhabbatni san'atkorlarning II jahon urushi mavzusida ishlagan asarlarida o'zining badiiy ifodasini topdi. A. Deynekaning "Sevastopol mudofaasi" (1943), S. A. Gerasimovning "Partizanning onasi" (1942), F. D. Favoyrskiyning "O'limdan kuchli" (1951), I. Toidzening "Ona Vatan da'vati" (1941), asarlari shular qatoridandir.

Bu davrda maishiy janr ham yangi mazmun kasb etdi. Bu mavzuda yaratilgan asarlarda shu davr kishilarining kundalik turmushi, mehnati, yoshlarning tarbiyasi aks ettirildi. N. B. Terpsixorovning «Birinchi shoir», E. M. Cheptsovning "Qishloq yacheysining majlisi" deb nomlangan suratlarda kechagi dehqonning bugungi kunda jamiyat ishlarida faol ishtirok etayotganini sodda, lekin ishonarli talqin etiladi. Maishiy janr taraqqiyoti jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq holda rivojlanadi. II jahon urushi yillari o'sha davr kishilari uchun haqiqiy sinov yillari bo'ldi. Bu yillarda ularning front ortidagi qahramonligi, rassomlarning maishiy mavzudagi asarlarida o'z ifodasini topdi. Bu janrning keng rivojlanishi urushdan keyingi yillarga to'g'ri keldi. Bu yillarda u etakchi janr qatoridan o'rinni olib, xalq hayotining hamma tomonlarini qamrab oluvchi san'at darajasiga ko'tarildi. Rassomlar asarlarida tinch mehnat, farovon hayot go'zalligini kuyladilar. Insonlar orasidagi mehribonlik, oliyjanoblik, do'stlik kabi fazilatlarni ulug'ladilar. Bu davr san'atida yoshlar hayotiga bag'ishlangan juda ko'p asarlar ham yaratilgan. Bu asarlarda sobiq sovet yoshlarning san'atga, ma'rifatga qiziqishi tarannum etiladi. Bolalar hayotiga bag'ishlangan asarlar ham yaratildi. F. P. Reshetnikov tomonidan yaratilgan "Yana ikki oldingmi?", "Kanikulga qaytdi" kabi asarlarida bolalarga xos bo'lgan xislatlar ishonarli talqin etiladi.

### **Nazorat topshiriqlari:**

1. Bu davrda qanday janrlar vujudga keldi?

- A) Tarixiy janr
- V) Portret janri
- S) Manzara janri
- D) Barchasi to'g'ri

2. S.A Gerasimovning «Partizanning onasi» asari nechanchi yil yaratilgan?

- A) 1941
- V) 1942
- S) 1948
- D) 1945

3. Sobiq sovet davrida maishiy janrda ijod qilgan rassomlar qaysi bandda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) N.Terjixorov, E.Cheptsov
- V) E.Cheptsov, S.Gerasimov
- S) S.Gerasimov, N.Terjixorov
- D) Barchasi noto'g'ri

## **Mustaqil ish topshiriqlar**

1. Sobiq sovet san'atining vakillari.
2. Portret janrida sodir bo'lgan o'zgarishlar.

## **Mavzuga oid xulosalar**

Bu davrda san'atning bosh qahramoni xalq edi. Uning mehnati, er yuzida olib boryotgan tinchlik uchun kurashi ijodkorlarning asosiy mavzui edi. Tasviriy san'atning tur va janrlari kengaydi. Portret va manzara janrida o'zgarishlar sodir bo'ldi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Yuon K. F. "Iskusstvo" -M.: 1957. 3 – 9 s.
2. Kalminskiy Yu. D. "Iskusstvo" M. 1957 y. 4-6 s.
3. M. V. Alpatov «Russkoe iskusstvo XVIII–XIX vekov» -M.: 1958. T-2. 22- 45 s.

## **MAVZU: № 17. XIX -XX ASR CHET EL SAN'ATI.**

**Mashg'ulot turi** – ma'ruza.

**Mashg'ulot shakli:** Klaster tehnologiyasi asosida ishslashga mo'ljallangan ma'ruza mashg'uloti.

### **Asosiy masalalar**

1. XIX-XX asr chet el san'ati bilan talabalarni tanishtirish.
2. Impressionizm vakillari va ularning ijodi.
3. XVII - XVIII va XIX - XX asr san'ati va ularning ijodi.

**Tayanch tushuncha va iboralar:** Impressionizm, proletar revolyutsiya, Parij kommunasi, demokratik madaniyat, realistik burjua madaniyati.

## **Mavzuga oid muammolar**

1. Impressionizm vakillari va ular ijodining yutuqlari sababini ko'rsating.

**1-asosiy masala bo'yicha darsning maqsadi:** XIX-XX asr chet el san'ati bilan talabalarni atroflicha tanishtirish.

### **Identiv o'quv maqsadlari:**

XIX-XX asr ijodiy izlanishlar ahamiyati haqida gapiradilar.  
Impressionizm vakillari va ularning ijodi haqida axborot beradilar.

### **1-asosiy masalaning bayoni:**

Imperializm ko'pgina mamlakatlarda ijtimoiy va madaniy hayotda katta o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Birinchi proletar revolyutsiyasi - Parij kommunasi va

uning tor-mor etilishi burjua madaniyatining inqirozga yuz tutishini tezlatdi. Burjua falsafasi, estetikasi va san'atida reaktsion idealistik tendentsiyalar kuchaydi. Shu bilan birga, revolyutsion demokratik va milliy ozodlik harakatlari bilan bog'liq bo'lган ilg'or demokratik madaniyat realistik burjua madaniyatiga qarama-qarshi o'laroq o'z yulida davom etdi. XIX asr II yarmi va XX asr boshlaridagi san'at taraqqiyoti murakkab yo'lni bosib o'tdi. Bu davrda ham san'at avalgi davrlardagidek reaktsion hamda progressiv oqim va tendentsiyalarning kurashi davom etdi. Tasviriy san'atda «simvolik» deganda oqimlar turli "izm" lar tez-tez almashib turdi. Parij kommunasi tor-mor etilishi revolyutsion harakatlarni oz bo'lsa-da, to'xtatib turdi. Lekin ilg'or san'atkorlar ta'sirchan asarlar yaratish borasida mehnat qilishda davom etilar. Yangi ta'sirchan ifoda vositasini topish, san'at tilini yangilashga intilish ko'pgina san'atkorlarning ijodida o'z ifodasini topdi. Bu izlanishlar, o'z navbatida, samarali natijalar bergen bo'lsa-da, lekin san'atda turli oqim va yo'nalishlarni keltirib chiqardi.

Realizm taraqqiyotida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Realistik san'atda sodir bo'lган o'zgarishlar Eduard Mane ijodida yaqqol namoyon bo'ldi. Uning ijodi keyingi realistik san'at taraqqiyotiga katta tas'ir o'tkazdi. Mane asarlarida Parij ko'chalari, xiyobon va kafelari, odamlarning hayoti tasvirlanadi. Bir qarashda juda sodda syujetlarda rassom go'zallikni ko'rsata oldi. Shu go'zallikni tasviriy san'at tili bilan tomoshabinga etkazdi. Uning hajm jihatidan katta bo'limgan, syujeti jihatidan sodda asarlari o'zining voqelikni to'laqonli, butun borlig'i bilan aks ettirishi orqali kishi qalbiga quvonch baxsh etadi. Tabiatning rangdorligi, shakllarning rang-barangligi esa bu lavhalarga yanada go'zallik kiritadi. Shu boisdan ham tezda ko'pchilik diqqatiga sazovor bo'ldi. 1860 yilning rassomlari uning ishiga, ishlash usubi va syujet tanlashiga taqlid qila boshladilar. Qator yoshlar esa uni ustoz deb bildilar va uning atrofiga yig'ildilar. Uning izlanishlarini davom etirib jahon san'ati tarixida yangi oqim - impressionizm oqimiga asos soldilar. Impressionizm so'zining lug'aviy ma'nosi «taassurot» bo'lib, rasomlar o'z asarlarida zamонавиј voqealarni turli ko'rinishda tasvirlash va eng muhimi, shu voqelikdan olgan ta'surotlarni tasvirlashga harakat qildilar. Kenglik va havoni, nur va rang jozibasini xolstda jonlantirish masalasi ular uchun muhim masalalardan bo'lib qoldi. Impressionizm oqimining o'ziga xos tomoni shu oqimning asoschilaridan biri Klod Monening "Pichan g'arami", "Ko'knori dalasi", Onore Renuarning "Madam Samari", "Yalang'och ayol", Edgar Deganing "Havorang libosli raqqosalari", "Balet sinfi", Kamil Pissaroning "Parij ko'chalari" kabi suratlarida yaqqol namoyon bo'ldi.

### Nazorat topshiriqlari:

1. XIX asr II yarmi va XX asr boshlaridagi san'at taraqqiyoti qanday yulni bosib o'tdi?  
A) Murakkab  
V) Yuksak  
S) Go'zal  
D) Engil
2. 1860 yilning rassomlari kimning ishlash uslubiga taqlid qila boshladi?

A) Eduard Mone

V) Klod Mone

S) Onore Renuar

D) Anri Matis

3. «Madam Samari», «Yalang'och ayol» qaysi rassom tomonidan yaratilgan?

A) Klod Mone

V) Onore Renuar

S) Edgar Dega.

D) Pol Sezan

### **Mustaqil topshiriqlar**

1. Imperssionizm nima va ularning vakillari kimlar?

2. XX asr boshlarida ijodiy izlanishlarning ahamiyati.

### **Mavzuga oid xulosalar**

XX asr fan texnika rivojlanishiga qaramay tasviriy san'atda bu davrga kelib, uning yangi oqimlari, janrlari vujudga keldi. Impresionizm, syurealizm, abstroktzionizm kabi yo'naliishlar.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Vseobhaya istoriya iskusstv. 1964. T – 5. -M. 1965.
2. Pugachenkova G.A. L. N. Rempel. "Istoriya iskusstv Uzbekistana" M., "Iskustvo " 1965.
3. Yuon K. F. "Iskusstvo" -M.: 1957. 3 – 9 s.
4. Kalminskiy Yu. D. "Iskusstvo" -M. 1957. 4-6 s.

## **MAVZU № 18 : XX ASR BOSHLARIDA O'ZBEKISTON SAN'ATI.**

### **Mashg'ulot turi – ma'ruza.**

#### **Asosiy masalalar**

1. XX asr O'zbekiston san'ati bilan talabalarni tanishtirish.
2. Impressionizm vakillari va ularning ijodi.

**Tayanch tushuncha va iboralar:** Dekorativ amaliy san'at, o'zbek me'morchilik san'ati, o'zbek tasviriy san'at maktabi.

### **Mavzuga oid muammolar**

XX asr boshlarida o'zbek san'atidagi o'zgarishlarning sababini ko'rsating.

**1-asosiy masala bo'yicha darsning maqsadi:** XX asr O'zbekiston san'ati bilan talabalarni atroflicha tanishtirish.

#### **Identiv o'quv maqsadlari:**

XX asr O'zbekiston san'atida ijodiy izlanishlar ahamiyati haqida gapiradilar. Impressionizm vakillari va ularning ijodi haqida axborot beradi. Talabalarga ushbu

mavzuni tushuntirish va tanishtirish. Etakchi rassomlar ijodi bilan tanishtirish

### **1-asosiy masalaning bayoni:**

XX asr boshlarida O'rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi san'atda ham o'z ifodasini topdi. Buni dekorativ amaliy san'at asarlaridagi kompozitsiyalarda, ularning syujet va motivlarida real hayotning tasvirlanishida, voqelikni ustalar tomonidan real tasvirlashga intilishlarida ko'rish mumkin. Bunday o'zgarishlar rus va o'zbek me'morchilik san'ati an'analarining bir-biriga yaqinlashishi va qo'shilishi natijasida paydo bo'lgan yangi uslublarda ham namoyon bo'la boshladi. Realistik dastgoh san'ati maydonga keldi. Buni birinchi bo'lib, XIX asrning 40-yillaridan boshlab O'rta Osiyoga kela boshlagan rus badiiy matabining talabalari boshlab berdilar. Bu borada rus rassomlari A. Karazin, I. Kazakov, S.P. Yudin, R.Zommer, 1886 yilgi ko'rgazmada toshkentlik To'xta-Sodiq Xo'jaevning alebastrdan yasagan ot va kiyik haykalchalarining qo'yilishi, 1915 yil bosmadan chiqqan S.Siddiqiyning "Ko'ro'g'li" epik poemasiga ishlangan grafik illyustratsiyalarining yuzaga kelishi davr taqozosi edi. O'zbekistonda san'atni targ'ib etish, ko'rgazmalar uyushtirish, muzeylarni milliylashtirish kabi ishlar amalga oshirildi. 1918-20 yillarda Toshkent, Samarqand shaharlari badiiy maktablar ochildi. Ularga ko'plab mahalliy yoshlar jalg etildi. Bunda rus va boshqa milliy rassomlar faol ishtirot etdi. Shu bilan birga, o'zbek xalq san'atini o'rganish orqali rassomlar xaqiqiy milliy san'at namunasini yaratishga, o'z asarlarida dvrning muhim voqealarini aks ettirishga harakat qildilar.

Shunday rassomlardan biri O.K.Tatevosyan bo'ldi. Korovining shogirdi bo'lган bu rassom 1915 yil birinchi bor O'zbekistonga keldi. Uning serjilo tabiatni, boy me'morchilik yodgorliklari yosh rassomni o'ziga mahliyo etdi. O'zbekistonda o'z ijodiy izlanishlari uchun katta imkoniyatlar borligini his qilgan rassom o'qishni bitirgach, O'zbekistonga butunlay ko'chib keldi va o'zining sermahsul ijodini boshladi, yosh rassomlarga murbbiylik qildi. Uning ilk ijodidagi asarlar asosan Samarqandga bag'ishlangan. Gavjum ko'chalar, noz-ne'matga boy bozorlar, choyxonalar rassomning ko'pgina asarlarining mazmunini tashkil etdi. Xalq milliy san'at namunalarini o'rgandi. Asarlarida O'zbekistonda bo'layotgan o'zgarishlar, odamlarning mehnatga bo'lgan munosabati o'zining badiiy ifodasini topa boshladi. O'sha yillari O'zbekistonda bir qator iste'dodli rassomlar yashab ijod qilganlar. Bular ichida Farg'onada tug'ilib o'sgan Aleksand Volkovning asarlari juda rang-barang va falsafiy mazmunga boy. Voronejdan kelgan va butun umr Toshkentda yashab ijod qilgan Usta Mo'min (Nikolaev) bir qator ajoyib nafis, lirik, shoirona asarlar yaratdi. Davr kayfiyati, kishilarning hayotga bo'lgan yuksak munosabati uning asarlarida o'zining xaqiqiy poetik ifodasini topdi. Uning shunday asarlari ichida "Bahor", "Bedanaboz", "Do'stlik", "Muhabbat", "Kuyov", "Choyxonachi" kabilar aloxida o'r'in olgan. O'zbekistonda samarali mehnat qilgan rus rassomlaridan biri Pavel Petrovich Benkov edi. U o'zbek san'atining rivojlanishiga, milliy qadrlar etishib chiqishiga katta hissa qo'shdi. U Buxoro, Xiva, Samarqand haqida juda ko'p polotnolar ishlangan. Bular asosan yarim manzara va yarim maishiy janrda bo'lib, ularda rassom kundalik xalq turmushini qadimgi nodir me'morchilik fonidan ustalik bilan tasvirlaydi. Ajoyib ayollar obrazini ham yaratadi. "Dugonalar", "Dutorchi qiz"

deb nomlangan asarlar do'stlik mavzusida yaratgan yirik asarlaridir. 20-30-yillardan boshlab milliy rassomlar ko'rina boshladi. Ular o'zlarining dastlabki asarlari bilan respublika badiiy ko'rgazmalarida ishtirok etib, badiiy hayotni yanada jonlantirdilar. Bu yillarga kelib san'at mavzusi kengaydi. Do'stlik, tinchlik, mehnat go'zalligini kuylovchi asarlar yaratildi. Iste'dodli yosh rassom Bahrom Hamdamiyning "Ish tugadi" deb nomlangan kartinasida shu davr kishilari ongida sodir bo'lgan o'zgarishlar o'z ifodasini topadi. Shu bilan birga Lutfulla Abdullaevning "Yosh shoir uyidagi uchrashuv" deb nomlangan asar yoshlari orasida san'at va ma'rifatga intiluvchi yoshlarning fazilatlarini ochib berishga bag'ishlangan. Bu yosh rassomlar O'zbekiston san'atining taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shdilar.

Ikkinci jahon urushi yillari o'zbek rassomlari uchun katta sinov bo'ldi. Ular g'oyaviy jihatdan chiniqdilar. Ular front g'alabasi uchun rag'batlantira oladigan asarlar yaratishga harakat qildilar. Urush yillarida O'zbekistonga evakuatsiya qilingan Moskva, Leningrad, Kiev, Xarkov badiiy instituti, ular bilan birga kelgan etuk san'atkorlar - D.Moor, V.Favorskiy va boshqalar respublika badiiy hayotini jonlantirishga ko'maklashdilar. Urush tugagach, tinchlik yillari o'zbek san'ati ham o'z rivojlanishida yangi bosqichga qadam qo'ydi. Inson go'zalligi, tabiat ulug'vorligi rassomlarimiz polotnosida o'z ifodasini topa boshladi. Bu urushdan keyingi yillarda yaratilgan A.Abdullaevning "Kahromonni kutib olish", U.Tansiqboevning "Kayroqqum GESida tong", R.Ahmedovning "Onalik o'ylari", R.Timurovning "Samarqand", Yu.Elizarovning "O'zbekiston san'atkorlar guruhi portreti", N.Karaxanning "Oltin kuz", V.Fadaevning "Sokchi ayol", M.Saidovning "Xirmonda", Ch.Ahmarovning devoriy rasmlari va boshqalar o'zbek san'ati tarixida o'zlarining munosib o'rnini egalladi. Respublikamiz rassomlari bu davrdan boshlab, barcha ko'rgazmalarda faol ishtirok etib, san'atimiz ta'sirchanligining ortib borayotganini namoyish etdilar. Bizning rassomlar ko'plab ko'rgazmalarda qatnashdilar. 60-70 yildan boshlab, o'zbek san'ati yangi pog'onaga qadam qo'ydi. Bu davrda faqat keksa rassomlar ijodidagina emas, balki yoshlari ijodida ham yangi ifoda vositalarini izlash, asarlarini talqin etishda uning emotsiyal tomoniga e'tibor berish kuchayganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Buni B. Boboev va R. Chorievlarning kartinalarida, T. Muhammedovning karikaturalarida, F. Grishchenkoning, X. Husniddinxo'jaevning haykallarida ko'rish mumkin. O'zbek san'ati zafarli yulni bosib o'tdi.

### **Nazorat savollari:**

1. B. Hamdamiyning "Ish tugadi" asari qaysi davr haqida hi-koya qiladi?
  - A) Sobiq ittifoq
  - V) Urush davri
  - S) Inqilob davri
  - D) Mustaqillik davri
2. XX asrning boshlarida o'zbek san'ati taraqqiyoti qanday yulni bosib utdi?
  - A) Murakkab

- V) Yuksak
  - S) Go'zal
  - D) A va S to'g'ri
3. 1990 yilning rassomlari kimning ishlash uslubiga taqlid qila boshladi?
- A) Klod Mone
  - V) Onore Renuar
  - S) Edgar Dega.
  - D) Barchasi to'g'ri

### **Mustaqil ish topshiriqlari**

1. P. Benkovning hayoti va ijodi.
2. B. Hamdamiyning «Ish tugadi» asarini tahlil qiling.

### **Mavzuga oid xulosalar**

O'rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi san'atda ham o'z ifodasini topdi. O'l kamizga ko'p rus rassomlari kelib ijod qildilar. Ularning samarali mehnatlari O'zbekiston san'atining taraqqiyotiga salmoqli hissa bo'ldi.

### **Foydalilanilgan adabiyotlar:**

1. Oydinov N. Tasviriy san'at tarixidan lavhalar.-T.: O'qituvchi. 1997. 53-60-b.
2. Vseobhaya istoriya iskusstv. M.1964. T. – 5. -M. 1965.
3. Pugachenkova G.A., L. N. Rempel. "Istoriya iskusstv Uzbekistana" M., "Iskusstvo " 1965. 40-48s.

## **MAVZU №19. MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTON SAN'ATI.**

### **Mashg'ulot turi – ma'ruza.**

**Mashg'ulot shakli:** Klaster tehnologiyasi asosida ishlashga mo'ljallangan ma'ruza mashg'uloti.

### **Asosiy masalalar**

1. Mustaqillik yillarda O'zbekiston san'ati bilan talabalarni tanishtirish.
2. O'zbekiston tasviriy san'ati vakillari va ularning ijodi.

**Tayanch tushuncha va iboralar:** dastgoh san'ati, bunyodkorlik, ijodkorlik, triptix.

### **Mavzuga oid muammolar**

- 1.Mustaqilik davrida yaratilgan asarlarning asosiy g'oyasini izoxlang.

**1-asosiy masala bo'yicha darsning maqsadi:** Mustaqillik davri O'zbekiston san'ati bilan talabalarni atroficha tanishtirish.

### **Identiv o'quv maqsadlari:**

O'zbekiston san'atida ijodiy izlanishlar ahamiyati haqida gapiradilar. Rassomlar ijodi haqida axborot beradi. Talabalarga ushbu mavzuni tushuntirish va tanishtirish. Etakchi rassomlar ijodi bilan tanishtirish

### **1-asosiy masalaning bayoni:**

O'zbekiston tasviriy dastgoh san'ati juda qisqa vaqtida rivojlanib katta yutuqlarga erishdi. O'zbekiston san'ati zafarli yo'lni bosib utdi. Respublikamiz rassomlari ko'pgina ko'rgazmalarda faol ishtirok etib, san'atimiz ta'sirchanligining ortib boraetganini namoyish etdilar. Bizning rassomlarimiz ko'pgina janrlarda ijod qilib kelmokdalar; manzara, natyurmort, portret va boshqa janrlarda. Natyurmortda bozorlarimizning to'lib toshgan noz-ne'matlarini, manzara janrida esa o'lkamizning go'zalligini va bepoenligini, oddiy tabiat ko'rinishidagi go'zallikni to'laqonli ifodalashga harakat qilmokdalar. Shu bilan birga qadimdan qolgan butun dunyoga taniqli ajib me'morchilikning nodir yodgorliklarini o'z asarlarida ko'rsatdilar. Portret janrida esa Vatanimizning ilg'or kishilarini, mehnatkash xalqni, shoir, rassom, musikachilarini tasvirladilar. Bizning O'zbekiston Vatanimiz ajoyib iste'dodli rassom va haykaltaroshlarni etkazib berdi. Bular ichida Iskandar Ikromov, Chingiz Axmarov, Malik Nabiev, Mannon Saidov, Damir Ro'ziboev, Ilxom Jabborov, Javlon Umarbekov, Baxodir Jalolov, Alisher Mirzaev, Akmal Ikromjonov, Ne'mat Xakimov, Osimxon Vosixonov, Temur Sa'dullaev, G'ofur Abduraxmonovlar alohida mavkega ega. O'zbekiston xalq rassomi rangtasvir ustasi Alisher Mirzaev xalqimiz an'analariga, boy va sermazmun o'tmish tasviriy san'at merosiga hurmat bilan qaraydi. Rassom o'z xalqiga xos psixologik kechinmalarni chuko'r tahlil qila oladi. Rassom ona-tabiat bag'rida o'zbekona an'analarni, to'ylarni, beg'ubor o'zbek bolalarini, kizlarni, mushtipar ona kabi obrazlarni aks ettira olishga muvaffaq bo'ldi. Jumladan, "Toshkent - tinchlik va dustlik shaxri" triptixi, "Bolaxonada", "Intizorlik", "Esh oila haqida qo'shiq" kabi unlab asarlar moybueqda yaratilgan. Umuman rassom tabiat va jamiyatda bo'laetgan o'zgarishlar e'tiborsiz qoldirmaydi. Rassom rangtasvirlarga shunday jon bag'ishlaydiki, undagi go'zallik sirlari odamlarni ezgulikka etaqlaydi. Rassom asarlari bugungi kunda xalqimiz hurmatini qozonish bilan birga, ko'pgina xorijiy davlatlarda ham ma'lum va mashhurdir.

Bahodir Jalolov ham O'zbekiston xalq rassomi bo'lib, zamonaviy rangtasvir san'ati rivojiga katta hissa qo'shib kelayotgan iste'dodli rassomlardan biridir. B.Jalolov tasviriy san'at borasida taxsilni davom ettirib, keyinchalik Ch. Axmarov, R. Choriev, E. P. Melnikov, B. D. Korolevlardan tasviriy san'at sirlarini o'rgandi. Shu sababli ham u yaratgan portretlarda yuksak maxorat aniq ko'zga tashlanib turadi. Uning ijodidagi tuyg'ular uyg'unligi tomoshabinni o'ziga maxliyo etib qo'yadi. U portret san'atida ko'p yutuqlarga erishdi. Uning to'laqonli asarlarida o'zbek xalqining sevimli farzandlari siymosi o'z ifodasini topgan. U bir katta seriya portretlarni yaratadi, bo'lar ichida akademiklar, rassom va boshqa taniqli odamlar obrazlari bor. B. Jalolov ijodida olam sirlari o'zgacha talkin etiladi. Bunga, "Gul va Rayxon afsonasi", "Nido", "Baxt kushi", "Abadiy va navkiron Hindiston", "XXI asr Madonnasi" kabi ko'plab asarlarini misol qilib keltirish mumkin. Mustaqil

O'zbekiston tarixiga bag'ishlangan O'zbekiston xalqlari tarixiy mo'zeyi devoriga ishlangan monumental ko'rinishdagi surat jiddiy va mazmunli tarixiy dalillar orqali salobatli tasvirlanishi bilan har qanday tomoshabin e'tiborini o'ziga jalb qila oladi. Polotnoni ko'zatgan tomoshabin boy tarix saxifalariga ega bo'lgan o'zbek xalqining buyuk va kudratli ekanligiga yana bir bor ishonch xosil qiladi. B. Jalolov ijodi shu jihatni bilan kadirlidir.

Haykaltaroshlik san'atining o'lkamiz hududidagi zamonaviy jihatlarini ijodkor Damir Ro'ziboev faoliyatida yakqol ko'rish mumkin. Dastlab rangtasvir va grafika san'ati bilan shugullangan D.Ro'ziboev haykaltaroshlik olamiga asosan 60 yillarda kirib keldi. San'atkori ijodida shakl va hajmlarning o'ziga xos harakatlarni tabiyilik bilan tasvirlanishi, u tanlagan mavzularning rang-barang va keng kamrovligidan ham yakqol sezish mumkin. Uning bir qancha haykallarida xalqimizning madaniy hayoti va ziyolilar qiefasini aks etirgan asarlariga duch kelamiz. Shu bilan birga u portret janrida ham ijod qiladi. San'atshunos olim R.Toktash obrazi, rassom V.Savitskiy va Saida portretlarida zamondoshlarimiz obrazlari to'laqonli o'z ifodasini topgan. D.Ro'ziboev haykaltaroshlik san'atida katta bir mакtabni o'tab kelayotir. Uning izlanishlari rang-barang uslublarga boy. Buni biz san'atkori ijodida rangli haykaltaroshlik san'atining yuzaga kelganligi orqali guvoxi bo'lishimiz mumkin. Ro'zibaev haykallardagi shakl va hajmlarga buk berish bilan ularning sexrli olamini yanada mu'jizali qila oladi. San'atkori bu bilan qoniqmasdan haykalda aks ettirilayotgan voqeani rangin sirlarini matolarda yanada to'ldiradi. Yana bir muhim tomoni D.Ro'ziboevning izlanishlari kelajak muammolarini talqin qilishga qaratilgan. San'atkori kutarinki rux bilan musiqa, rangtasvir asarlarini o'rganib, o'z haykallarida mujassamlashga intiladi. Haykaltaroshning ajoyib fazilatlaridan yana biri uning asarlarida hissiy mazmundorlik boyib borayotganligidadir. Ana shunday mazmundorlik orqali u inson ma'naviyatini tobora tularoq kamrab ifodalashga harakat qiladi. O'zbekiston tasviriy sa'ati tarixi - jahon tasviriy sa'ati tarixining ajralmas qismidir. O'zbekiston san'ati boy merosga ega. Hozirgi zamonda esa bizning rassomlarimiz va haykaltaroshlar butun dunyoga taniqli bo'lib qolgan. Dekorativ-amaliy san'atimiz esa qadim zamonlardan odamlarni zavqlantirib kelgan. Ustalarimiz ijodi nafaqatgina mustaqil O'zbekistonda, balki boshqa mamlakatlarda ham o'z obru-e'tiboriga ega.

### Nazorat savollari

1. Zamonaviy O'zbekiston haykaltaroshlaridan kimlarni bilasiz?
  - A) D.Ro'ziboev,
  - V) R. Choriev,
  - S) M. Nabiev.
  - D) Ch. Axmarov
2. Zamonaviy O'zbekiston rassomlari ijodida qanday mavzular etakchi o'rinni egallaydi?
  - A) Mustaqbillik, ozodlik, bunyodkorlik.

- V) Xech qanday;
- S) Klassik g'oyalar.
- D) Barchasi to'g'ri

### **Mustaqil topshiriqlar**

1. Xaykaltarosh D. Ro'ziboev hayoti va ijodi.
2. Zamonaviy O'zbekiston tasviriy san'ti vakillari.

### **Mavzuga oid xulosalar**

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, tasviriy san'at juda qisqa vaqt ichida rivojlanib, Respublikamiz rassomlari ko'pgina ko'rgazmalarda faol ishtirok etdilar. Vatanimiz rassomlari xorijiy davlatlarda ham ma'lum va mashhurdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIETLAR:**

- 1.Oydinov N. Tasiriy san'at tarixidan lavhalar.  
-T.: "O'qituvchi". 1997. 60-89-b.
2. Vseobshaya istoriya isskustv. Tom 5. -M.: 1965.
3. Pugachenkova G.A., L. N. Rempel "Istoriya iskustv O'zbekis tana" -M.: "Iskusstvo " 1965. 45-48s.

### **Mavzular yuzasidan yakuniy xulosalar**

1. San'at juda qadim zamonlarda mehnat jarayonida paydo bo'ldi. Mehnat jarayonida inson tafakkuri kamol topdi, go'zallik hissi ortdi, voqelikdagi go'zallik, qulaylik va qoydaviy tushunchalari kengaydi. Bugunga kelib, tasviriy san'atning tur va janrlari shakllandi. Shu bilan birga, insoniyat yaratib qoldirgan madaniy qadriyatlar oddiy boyliklar bo'lib qolmay, balki o'zida insonning hayot to'g'risidagi fikr-o'ylarini aks ettiruvchi ko'zgu bo'lib qoldi.

Tasviriy san'at asarlari hajm jihatidan manumental va dastgoh ko'rinishga ega. Manumental deylganda hajm jihatidan katta tasviriy san'at asarlari tushiniladi. Dasgoh asarlari keng tarqalgan bo'lib, maxsus matolar; karton va ramkaga tortilgan mato (xolst)larga ishlanadi.

Tasviriy san'at turlari

- Rangtasvir
- Haykaltaroshlaik
- Grafika
- Me'morchilik

Tasviriy san'at janrlari

- Portret
- Avtoportret
- Manzara

- Natyurmort
- Tarixiy
- Botal
- Animalistik
- Maishiy

3. Ibtidoiy jamoa tuzumidan bizgacha ashyoviy dalillar mehnat va ov qurollari, uy anjomlari, bezak buyumlari, odamlar yashagan uy qoldiqlari etib kelgan. Shular ibtidoiy kishisining estetik va diniy qarashlarini bilishga yordam beradi. Ibtidoiy jamoa tuzumi tarixi qurol yasash uchun ishlataladigan materiallarga qarab uch asosiy bosqichga ajraladi:

- Tosh asri-er.av. 3 ming yilikgacha bo'lgan davr.
- Mis va bronza asri er. av.3-2 ming yilllik.
- Temir asri- er.av. 1-ming yillik.

4. Qadimgi Sharqda san'at quldarlik formatsiyasi paydo bo'lishi – rivojlanishi va inqirozga yuz tutishi davrgiga to'g'ri keldi. Qadimgi Sharq iborasi shartli bo'lib, o' o'z ichiga Sharqda va Janubda joylashgan va Shimoliy Afrikada, Kavkaz tog'laridagi davlatlarni o'z ichiga oladi. Qadimgi Sharqda san'at xunarmandchilikni bir qismi sifatida qolaverdi.

5. Qadimgi Misrda tasviriy san'at me'morchilik bilan bog'liq holda rivoj topdi. Sinfiy jamiyatning yuzaga kelishi va ijtimoiy hayotning murakkablashuvi bilan tasviriy san'at boshqaruvchi sinfning kuchli g'oyaviy quroliga aylandi. Bugungi kunda Misr davlatida Xeops piramidasи, Fivadash Karnak va Luksor ibodatxonalari, ulkan Sfinks me'moriy yodgorliklari dunyoga mashhurdir.

6. Dajla va Efrot daryolari vohasida O'rta er dengizi havzasining Sharqiy sohillarida Urartu, Bobil kabi davlatlar mavjud bo'lgan. Bu davlatlarda monumental me'morchilik etakchi o'rinni egallagan, san'atning boshqa turlari u bilan bog'liq holda rivojlangan.

7. Qadimgi Eronda eramizdan avval 7 asrda mavjud bo'lgan podsholiklarda o'zining qisqa eng gullagan va kuch-quvvatga to'lган davrini boshidan kechirdilar. Qadim zamonlardan bu vohalarda hashamatli saroylar, mustahkam maqbaralar yuzaga keldi. Oltin va qimmatbaho toshu injulardan nafis uy, ov va jang buyumlari, qurol-aslahalar bugungi kunimizgacha etib kelgan. O'rta Osiyoda buddizmning tarqalishi bevosita tasviriy san'at va haykaltaroshlikda ham ifodalangan.

8. Qadimgi Hindiston va Xitoy san'ati ham bir qator bosqichlarni bosib o'tgan, goh grek san'atining ta'sirida bo'lgan. Lekin shunga qaramay, uning san'atida o'ziga xoslik mavjud bo'lib, u asosan xalq san'ati, ayniqsa, hunarmandchilik ta'sirida bo'ldi. 3-2 minginchi yillarda bu xudularda o'ziga xos va yorqin va jozibador san'at asarlari bo'lganligi bizga ma'lum. Buddha ta'limoti bilan birga tasviriy san'at gullab yashnagan.

9. Qadimgi greklar birinchi bor tasviriy san'atda insonni ulug'ladi. Va bu urinishlar ularning jismoniy go'zalligi va ma'naviy barkamolligini ifodalab, ideal kamol topgan inson obrazini yaratishga intildilar. Qadimgi Gretsya san'ati to'rt bosqichdan iborat:

1. Gomer davri (er.av. XI-VIII asrlar)
2. Arxaika davri (er. av. VII-VI asrlar)
3. Klassika davri (er. av. V-IV asrlarning dastlabki uch choragi)
4. Ellinizm davri (er. av. IV-I asrlar)

10. Italiyaliklar qadimgi Gretsya va madaniyatiga zo'r hurmat bilan qarab, uni ijodiy o'zlashtirdilar, nazariyasini yangi bilimlar bilan boyitdilar. Ularning san'ati er. av. V asriga qadar bo'lgan XII asr mobaynida gullagan davrni boshidan kechirdi. Portret, tarixiy mavzudagi relief, mozaika, amaliy san'at borasidagi ajoyib asarlar yaratildi va bugungi kungacha insoniyat uning durdonalaridan hayratlanmoqda. Ulardan bizgacha ko'pgina xaykaltaroshlik namunalari, devorga ishlangan suratlar, xashamatli uylar va ibodatxonalar bizgacha etib kelgan.

11. Evropa O'rta asrlar san'atida gotika, roman va varvarlar san'ati alohida ahamiyatga ega. Bu davrda din san'at ko'proq din bilan rivoj topdi. San'atning mavkuraviy maqsadi – mamlakat kuchlarini birlashtirish va davlatni mustahkamlashga qaratilgandir. Insonning ruhiy olamiga qiziqishi va e'tibori rassom va haykaltaroshlarning ijodida kuchaydi.

12. Uyg'oniy davrida din asta-sekin o'z mavqeyini yo'qota bordi. Shaharlar kengaydi, o'sdi va yangi qit'alar kashf qilindi. Evropada fan ixtrolari va boshqa o'lkalarga sayohat natijasida ko'pchilik davlatlarda iqtisod rivoj topdi. Uning tasirida san'at sohasida ham yuksalish ro'y berdi, gumanistik g'oyalar vujudga keldi. Tasviriy san'atning qonuniyatları ishlab chiqildi. Bu davrda Leonardo Da Vinci, Rafael Santi, Mikelanjelo, Tittsian, Albrext Dyurer, Rembrandt kabi ajoyib san'atkorlar ijod etdilar. Me'morchilik va amaliy san'atda yangi tendentsiyalar rivojlandi. San'atkorlar real voqeylekni tasvirlashga harakat qildilar. Perspektiva, rangshunoslik, soya va yorug', odam anatomiyasi va shunga o'xshash sohalarda katta yutuqlar qo'lga kiritildi.

13. XVII-XVIII asolarda Evropada kapitalistik munosabatlarning avj olishi natijasida fan, san'at va madaniyat gurkirab o'sa boshladi. San'atda turli oqimlar paydo bo'ldi. Real hayatni tasvirlash boshlandi. Bu davrda P. Rubens, N. Pusent, Diego Velaskes, L. Bernini kabi rassom va haykaltaroshlar yashab ijod etdilar.

14. Bu davrning rassomlari ijodlarida proletariatning revolyutsiyasi bilan bog'liq asarlar paydo bo'ldi. Realistik oqim asosiy oqimlardan biriga aylandi. Tanqidiy realizm rivojlandi. Rassomlar o'z asarlari bilan idealistik san'atga qarshi chiqib, aristokratiya parokandaliklarini tanqid qila boshladilar. D. Xodavedskiy, T. Jeriko, F. Goyya, T. Russo, J.Mille va G. Kurbe kabi ajoyib rassomlar o'z asarlarida shu davr hayatini tasvirladilar.

15. Shu davrda qobiliyatli rus yoshlari chet ellarda o'qib, rus badiiy maktabining rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsadi. Tasviriy san'atning tur va janrlari kengaydi. Rus san'atining bu davrda rivojlanishi Pyotr I islohotlari bilan bog'liqdir. Qobiliyatli rus yoshlari chet elga yuborildi, va ularning samarali mehnatlari rus

badiiy maktabining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi. Bu davrda tasviriy san'atning tur va janrlari kengaydi. Rangtasvir sohasida I. Nikitin, A. Antropov, I. Argunov, F. Rokotov, D. Levitskiy, O. Kiprenskiy, K. Bryulov kabi rassom va haykaltaroshlar yashab ijod etdilar.

16. Bu davrda san'atning bosh qahramoni xalq edi. Uning mehnati, er yuzida olib boryotgan tinchlik uchun kurashi ijodkorlarning asosiy mavzui edi. Tasviriy san'atning tur va janrlari kengaydi. Portret va manzara janrida o'zgarishlar sodir bo'ldi. Rassom va haykaltaroshlar o'z ijodlarida bevosita revolyutsion demokratlar V.G. Belinskiy, N.G. Chernishevskiy, N.A. Dobrolyubovlarning g'oyaviy-estetik printsiplariga murojaat qildilar. San'atkorlar o'z ijodlarida xalq hayotining mohiyatini olib berishga, xalqning buyuk qudratini olib berishga harakat qildilar. Ulardan V.A. Serov, K. Karovin, K. Makovskiy, V. Surikov, N. Yaroshenko, I. Shishkin, B. Polenov kabi rassomlar rus tasviriy san'atiga o'z hissasini qo'shdilar.

17. Bu davrda san'atning bosh qahramoni xalq edi. Uning mehnati, er yuzida olib borayotgan tinchlik uchun kurashi ijodkorlarning asosiy mavzusi edi. Tasviriy san'atning tur va janrlari kengaydi. Portret va manzara janrida o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu davrda G. Ryajskiy, B. Ioganson, K. Malevich, A. Deyneka, V. Serov, A. Plastov kabi rassosmlar yashab ijod etdilar.

18. XX asr fan texnika rivojlanishiga qaramay tasviriy san'atda bu davrga kelib, uning yangi oqimlari, janrlari vujudga keldi. Impresionizm, syurealizm, abstraktsionizm kabi yo'naliishlar vujudga keldi.

19. O'rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi san'atda ham o'z ifodasini topdi. O'lкамизга ко'п rus rassomlari kelib ijod qildilar. Ularning samarali mehnatlari O'zbekiston san'atining taraqqiyotiga salmoqli hissa bo'ldi.

20. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, tasviriy san'at juda qisqa vaqt ichida rivojlanib, Respublikamiz rassomlari ko'pgina ko'rgazmalarda faol ishtirok etdilar. Vatanimiz rassomlari xorijiy davlatlarda ham ma'lum va mashhurdir. Bular ichida Iskandar Ikromov, Chingiz Axmarov, Malik Nabiev, Mannon Saidov, Ilhom Jabborov, Akmal Ikromjonov, Ne'mat Hakimov, Temur Sa'dullaevlar alohida mavqega ega.

## Glossariy

### A

**Abris-chevara** chiziq suvratdagi tasvir, rang va tuslarni chegarasini belgilaydi.

**Abstraktsionizm**-mavhum san'at asarlarini ifodolovchi badiiy yo'naliish.

**Avtolitografiya**- yunoncha toshga chizaman ma'nosini anglatovchi rassom o'z asarini tosh ustiga ishlanib so'ngra undan qog'ozga tasvir oladi.

**Avangardizm**-XX asrda paydo bo'lgan, yangi shakl, uslub, usul va boshqa tasviriy vositalar asosida ixtiro qiluvchi, izlanuvchi ijodkorlar g'oyalalariga asoslangan tasvirchi san'atdagi badiiy yo'naliш.

**Agitplakat**-grafikaning bir turib bo'lib turli g'oyalarni targ'ibot va tashviqot qilishga mo'ljallangan plakat..

**Akademizm** –tasviiy san'atdagi akademik uslubga asoslangan badiiy yo'naliш. Ba'zida bu bilan yangi badiiy yo'naliшlarni ham atashadi. Ijodkorlardan tashqi tasviiy san'atdan topgan badiiy yo'naliш.

**Akvatinta**-metallga chuqur o'yib ishlanadigan gravyuraning bir turi. Bunda rassom metall taxtachaning ayrim joylariga avval asfal't kukuni sepib, keyin azot kislotada yuvadi.

**Aksessuar**- tasviriy ishlarda ishlatiladigan buyum, narsa.

**Akvarel'**-suvda yaxshi eriydigan va yuviladigan mayin va shaffof bo'yoq. Akvarel' tasviri nihoyatda rangli, nafis va nozik, bo'lib ular ko'pincha qog'oz ustiga ishlanadi.

**Alla prima**- xo'llangan qog'oz ustida akvvarel bo'lsa bilan tezda rasm ishlash usuli.

**Allegoriya**- yunoncha o'zgacha ifodalash, kinoyali, yo'naliшda ijodkorlar mafxum tushuncha va g'oyalarni aniq obrazlilik, badiiylik yordamida simvolik tarzda muayyan narsa, voqeа va orqali ifodalaydilar.

**Al'fresco (fresko)**- ko'rib ulguraman nam suvoq ustiga buyoq bilan ishlanadigan tasvir.

**Animal janr**-hayvonot dunyosini, jonivorlarni tasvirlovchi tasviriy san'at janri.

**Animalist**-hayvonlarni tasvirlovchi rassom, xaykaltarosh.

**Anor rang**-rang turi, anor guli rangi.

**Antik san'at**-qadimgi degan ma'noni bildiradi. Bunda taraqqiy etgan qadimgi Yunon, Rim san'ati nazarda tutilgan.

**Applikatsiya**- lotincha yopishtirish ma'nosini anglatadi. Mazkur tasvirlash texnikasi tabiiy (barg, tosh, meva-sabzovot urug' va po'choqlari), badiiy (rangli, folga qog'ozlar v.b.), va tashlandiq (gazmol parchalari, dori-darmondan bo'shagan idishlar, xo'jalikda ishlatilib, bo'shagan materiallar v.b.) iateriallar yordamida tekis ustida bajariladi.

**Axzar**-rang nomi, meditsinada ishlatiladigan zelenkaning rangi.

**Afsonaviy janr**-xalq tomonidan yaratilgan badiiy ijod namunalari asosida yaratilgan iasviriy san'at namunalarini aks etdiruvchi janr. Bunday janrda yaratilgan ishlardagi tasvirlar xam afsonaviy odam va mahluqda (xayvonlar) bo'lib, xaqiqatda ular bo'lmaydi. Masalan dev, ajdar, kentavr, rusalka, negas putti va boshqalar shular

jumlasidandir. Afsonaviy janrda yaratilgan ishlarning ko'pchiligi rangtasvir va xaykaltaroshlikda uchraydi.

## B

**Badiiy an'ana**-qadimdan inson faoliyatining adabiyot, san'at kabi soxalarida erishilgan va saqlanib qolning ilg'or yutuqlar va tajribalar.

**Barbizonliklar** –faniyadagi fontenblo yonida joylashgan Barbizon qishlog'i nomi bilan atalgan bir guruh rassomlar ijodining o'ziga xos xususylari bilan belgilanadigan badiiy maktab yo'nalishi. Bu guruhga T. Russo, J. Dyupre, Diaz, K. Troyn, Sh.F.Dobin'i va boshqa rassomlar kiradi. XIX asrning 30-60 yillarida bu guruh rassomlar ijodi o'sha davrda hukm surgan rasmiy akademizm san'atidan farqli o'laroq, XUII asr Gollandiya –manzara janri an'analariga suyangan holda o'z asarlarida tabiat manzaralarini sodda, lirik, bejirim ko'rinishlarda ifoda etgan.

**Barel'ef**-frantsuzcha past relf ma'nosini anglatadi. Xaykaltaroshlikda ishlatiladigan relf atamasining bir turi. Relfning bu turida tasvir tekis yuzidan uning yarmidan kam ko'rinishda bo'rktib chiqqan bo'ladi. Masalan tanga, medal v.b. bunga misol bo'ladi.

**Barokko**-XUII-XUIII asrning birinchi yarmida Evropaning ba'zi mamlakatlarida va Rossiya me'morchiligi, tasviriy, amaliy san'ati, kiyim-bosh, zebziynat, mebel' kabi san'at turlarida xukm surgan badiiy yo'nalish.

**Baget**- rasm, chuvrat kabilarni solishga mo'ljallangan moslama.

**Badiiy**-borliqni, insonni, uning hayotidagi voqealarni, kechinmalarni o'zaro o'xshatish, shakllantirish va rango-rang tasvirlash.

**Badiiy ko'rgazma**-san'at asarlar namoyishi,

**Badiiy buyumlar ishlab chiqarish sanoati**-masalan, chinni buyumlar yoki gilam, xonatlas to'qish va boshqa buyumlar ishlab chiqariladigan sanoat.

**Badiiy akademiya**- bu nom bilan asosan rassom, haykaltarosh, me'morlar tayyorlanadigan oliy o'quv yurtilar yuritiladi. Shuningdek bu nom bilan nafaqat tasviriy san'atga aloqador oliy o'quv yurtlariga balki ularda rahbarlik qiladigan tashkiliy ishlarni olib boradigan muassasalar ham yuritiladi. Masalan, O'zbekiston badiiy akademiyasi.

**Badiiy meros**-avlodlar uchun qadimdan qolgan san'at asarlari.

**Badiiy uslub**-san'atda qo'llaniladigan usul.

**Barikaram**-rang nomi, karam bargining nomi.

**Batal janri**-xarbiy mavzuni aks etdiruvchi tasviriy san'at janri.

**Batalist**- xarbiylar xayoti va jang lavhalarini tasvirlaydigan rassomlarga qo'yiladigan nom.

**Bezak-** narsa va joylarni rassomlar tomonidan badiiy qilib bezatish belgisi.

**Bezak haykal**-bezak sifatida qo'llaniladigan haykallar.

**Bezak** sa'natning sa'nati-amaliy bir turi.

**Bezatilgan**-bezakli, naqshin, ziynatlangan, naqshlangan, naqshinkor.

**Bezatilgan qo'lyozma**-odatda, minyatura rasmlari bilan bezatilgan qo'lyozma, degan ma'noni bildiradi.

**Binafsha**-rang, nomi, gunafsha gulining rangi.

**Blik**- narsa va tasvirlarning eng yorug' yaltiroq joy.

**B'enale**-ikki yilda bir marta bo'ladigan ko'rgazma, nomi.

**Bosh bezak**-kitoblarning ichki bezagi, kitob varag'ining eng tepe qismida beriladigan tasvir. Ular rasmi xam, naqshli xam bo'lishi mumkin.

**Bronza**- mis, qalay, alyuminiy, berilliy, qo'rg'oshin kabilar aralashmasidan hosil bo'lgan qotishma. Alyumin, kul rangiga yaqin rang nomi.

**Bucharda**- xaykaltaroshning tosh taroshlash asbobi.

**Bo'yoq**- tasviriy san'atida, shuningdek badiy-bezak ishlarida ishlatiladigan qorishma. Uning moy bo'yoq, akvarel, guash, tempera, emal, emulsiya kabi turlari bor. Rassomlar va ayrim shaxslar tomonidan rangtasvir yaratishda va badiiy bezak ishlarida ishlatiladigan maxsus qorishma.

**Byust**- frantsuzcha qabr ustiga qo'yiladigan xaykal ma'nosini anglatadi. Byust odamni ko'kragidan yuqori qismini tasvirlaydigan xaykal xisoblanadi.

## V

**Vatman**-rassomchilik va chizmachilikda ishlatiladigan qalin, oliv nav qog'oz.

**Van Deyk**-jigarrang –uni ixtiro etgan mashhur rassom Van Deyk deb ham yuritiladi.

**Valyor**-rang tusi, rang ohangi degan ma'nolarni bildiradi.

**Variant**-tarixiy, ilmiy yoki badiiy asarning o'zgartirilgan nusxasi.

**Vernisaj**-ko'rgazmaning ochilishi. Dastlab u Frantsiyada ko'rgazmadan oldin rangtasvir asarlari sathiga lok berish degan ma'noni anglatgan.

**Vin'etka** –naqshin qoshiya, bezak, naqsh.

**Vitraj**- oyna ustiga bo'yoq bilan ishlangan rangasvir. Uni ikki tomonlama ko'rish mumkin. Ular ko'pincha uy derazalari yoki eshik oynalariga, shuningdek ma'muriy, o'quv yurtlari binolariga ishlanadi. Ular rasmi yoki naqshli bo'ladi.

**Vitrina**-kitoblar, eksponatlar, turli buyumlarning namunalari qo'yilgan oynavand javon, deraza va har xil oynavand yashiklar.

**Voskovaya jivopis'** (**Mo'm nafis san'ati**)-bunda bo'yoqlarni aralashtiradigan modda sifatida mo'm foydalaniladi; mo'm nafis san'ati enkaustika deb ham yuritiladi.

## G

**Galereya**-tasviriy va amaliy san'at asrlari saqlanadigan va ko'rgazmalar o'tkaziladigan maxsus bino.

**Gamma**-rang tasvirda ishlatiladigan atama. U o'zaro uyg'un ranglar yig'indisi bo'lib, unda bironta rang etakchilik qiladi. Masalan, iliq rang gammasi, sovuq rang gammasi, yorqin rang gammasi shular jumlasidan.

**Gliptika**-qimmatbaho toshga o'yib tushirilgan tasvir, ba'zida zeb-ziynat va muhr o'rnida ham ishlatiladi.

**Gorelf**-frantsuzcha yuqori relf ma'nosini anglatadi. Xaykaltaroshlikda ishlatiladigan relf atamasining bir-turi. Relfning bu turida tasvir tekis yuzadan uning yarmida ko'p ko'rinishda bo'rtib chiqqan bo'ladi.

**Gravyura**-frantsuzcha o'yish ma'nosini bildiradi. Gravyura metall, yog'och, linoleum, tosh kabi materiallarni maxsus asboblar bilan o'yish orqali xosil qilinadigan va ulardan qog'ozga ko'chiriladigan tasvir turidir.

**Gravyor**-metal, tosh, yog'ochga o'yib rasm ishlaydigan rassom.

**Grifon**-qadimgi Sharq san'atida uchraydigan tanasi arslon, kallasi va qanoti burgutsimon afsonaviy mahluq tasviri.

**Grizayl'**-tasvir usuli birgina bo'yoq bilan ishlangan tasvir. Bunda ko'pincha qizig'ish ,qora jigarrang, zangori ranglar qo'llaniladi.

**Grunt**- tasvir ishlanadigan zamin. U karton, bo'z, devor bo'lishi mumkin. Unga tegishli qorishma surtilgan bo'ladi.

**Guash'**-suvda eriydigan bo'yoq nomi. Guash bo'yog'i akvareldan uni qog'oz yuzasiga barnelga qavat qilib turlicha qalinlikda berilishi bilan farqlanadi.

**Gulrang**-gulgul, pushti, gulnorgul , gulnoriy.

**Gulgun**-rang nomi.

**Gulgun**-rang nomi, kechki shafaq ko'rinishi rangi. Gorizon chizig'i (ufq chizig'i).

## D

**Dastgohli rangtasvir**-rangtasvirning dastgox (molbert)ga o'rnatish ishlanadigan turi. Rangtasvirning bu turida tasvirlanayotgan odam, xayvon v.b.larning o'lchovlari o'zini xaqiqiy o'lchovidan katta bo'lmasligi lozim.

**Devoriy rantasvir-** (freska, alfresco)-qurib ulgurmasdan nam suvoq ustiga (devorga) bo'yoq bilan ishlangan tasvir. Ular ko'pincha tasvirlanayotgan odam, xayvon va boshqalarning xaqiqiy o'lchovida katta o'lchovdv tasvirlanadi. U maxobatli (monumental) rangtasvir deb xam yuritiladi.

**Dekoratsiya-** teatr sahnani spektakl mazmuni bilan bog'liq xolda tasvirlanadigan ko'rinish.

**Diptix**-qo'sh tasvir, ko'pincha u bir mavzuda va bir mazmunda bo'lib yonmayon namoyish etiladigan ikki asar tushuniladi.

**Dioramma**-yoysimon yoki yoy shaklida ishlangan rangtasvir asari bo'lib umuhum tarixiy voqealar, jangu-jadallar yoki shahar va tabiat manzaralarini ifodalash maqsadida ishlatiladi.

**Dizayn**-kundalik hayot, turmushda ishlatiladigan buyumlar, kiyim-kechak, asbob-uskuna, idish-tovoq, mebel' va shunga o'xshash narsalarni qulay, chioyli shakl va rangini yaratish san'ati, yangi shakl –shamoyilni yaratish.

## Yo

**Yodgorlik xaykal**-Mashxur va tarixiy shaxslarga bag'ishlab ishlangan xaykal. U maxobatli, relfli yoki dastgoxli-yumaloq bo'lishi mumkin.

**Yorug'soya**-tasvirlanayotgan narsalarning yoki tirik mavjdotni qalamtasviri va rangtasvirini realistik va qilib ishlashda qo'llaniladigan atama. Uni yorug'soya qonuni deb ataladi. Yorug'soya qonunlari o'z ichiga yorug', soya yarimsoya, blik, refleks, shaxsiy soya, tushuvchi soyalarni ifodalaydi.

**Yoqutrang**- yoqt rangiga yaqin bo'lган rang turi.

## J

**Janr**-hayot lavhalari ko'rinishlari va mazmuniga ko'ra tasvirlovchi asar demakdir. San'at asarlarining turi. Masalan, manzara, natyurmort, turmush, portret, nyu v. b. Tasviriy san'at janrlari xisoblanadi.

**Jangnoma**-batal u harbiy mavzudagi tasviriy san'at asarlarining janri.

**Jaydarirang**-lokal rang tasvirlanayotgan narsa, buyumning asosiy rangi yoki bir rang bilan atalishi. Masalan; barg-yashil.

**Jigarrang**-rang nomi hayvonlarning jigari rangiga o'xshash rang. Ba'zilar uni "qo'ng'ir" deb ham atashadi.

## Z

**Zarhal**-rang, tillasimon rang.

**Zarg'aldoq**- rang nomi, paelsin, mandarin yoki qovoqning ichi rangiga o'xshash rang.

**Zangori**-rang nomi, to'q osmon rangi.

**Zafaron**-rang nomi, to'q sariq rangi.

**Zirxal xarf**-kitoblarning bob va fasllarining mat qismidagi bezakli va yirik qilib ishlanadigan birinchi xarfi.

**Zumrad**- rang nomi, yashil yaltiroq tosh rangiga yaqin rangi.

## I

**Ikona rangtasvir**-but rangtasvir.

**Ikonografiya**-tasvir, rasm haqida izoh yoki ma'lum shaxs, hodisa voqeа, mavzu tasvirlarini ko'satuvchi, izoh va ularni muntazam ravishda o'rganish.

**Illyustratsiya**-lotincha ko'rgazmali tasvirlash, yoritish ma'nosini anglatadi. Ular oq-qora yoki rangli rasm, suvrat, sxema, jadval, diogramma shaklida bo'lib, kitob, jurnal, gazetalarning mazmunini oson va tez idrok etishga yordam beradi.

**Iliq ranglar**-kishilarda iliqlik (issiqlik) xislarini uyg'otuvchi ranglar. Ular qizil, sariq, zarg'aldoq, malla, novvoti, qirmizi, pushti, shingab, sabza, sadaf, lolaro'y, gulgum, norangivash, somoniy, barikaram kabi ranglardir.

**Impressionizm**-franzuzcha taassurot ma'nosini anlatadi. Va XIX asr oxiri XX asr boshlarida Frantsiyada shakllangan bu oqimdagи san'at asarlarida rassomlar hayotdagi murakkab jarayonlarni tez, oson idrok etishga xarakat qildilar. Hayotdagi real borliqni xarakatda va o'zgaruvchanlikda, hayotdagi eng xarakterli daqiqalarni real, haqiqatda qanday bo'lsa shunday tasvirlashga xarakat qilganlar. Ularning asarlarida suvrat detallarining muvozanatda bo'lmasligi, kompozitsiyani birnecha bo'laklarga bo'linishi xos edi.

**Intarsiya**-instruktsiyaning bir turi har xil rangli yog'ochdan ishlanadigan naqsh, bezak.

**Inter'er**-imorat ichi, binoning ichki ko'rinishi.

**Instruktsiya**- naqsh, quroq naqsh, terma naqsh, qadama naqsh.

**Interer**-tasviriy san'at va me'morchilik, amaliy san'atda binoning ichki qismi ko'rinishini bildiradi.

## K

**Karikatura**-italiyancha so'z bo'lib, bo'rtirib tasvirlash ma'nosini anglatadi. Bunday xajviy rasmlarda ijtimoiy, siyosiy, maishiy mavzudagi mazmunlar aks etadi. Karikatura mavzusidagi rasmlarda ayrim voqeа va shaxslar tanqid qilinadi, kishilar ustidan kulinadi. Ayrim xollarda ular ba'zi kishilarni do'stona xajviy tarzda ifodalanishi ham mumkin. Karikatura jamiyatda ro'y berayotgan xo'jasizlik, isrofgarchilik, poraxo'rlik, laganbardorlik, ichkilikbozlik kabi salbiy illatlarga qarshi kurashda katta rol o'ynaydi.

**Karton**-qog'oz turi, rangtasvir asarning qoralamasi, qalam yoki ko'mir qalamda ishlangan nusxasi.

**Karmin**-qirmizi, qizil rangning bir turi.

**Katalog**- badiiy asarlar, shu qatori tasviri san'at asarlarining mualliflari va ularning nomlai, yaratilgan yili kabilar yozilgan ro'yxat.

**Klassik**-mumtoz, birinchi darajali, namunali. Qadimgi Yunonning miloddan avvalgi U-!U asrlar san'ati, dunyo san'ati tarixida eng yuksak va namunaviy hisoblanar edi.

**Klassitsizm**-qadimgi Yunon va rim san'atining an'analari talablaridan foydalanib rivoj topgan badiiy yo'naliш. Bu badiiy yo'naliш XUII asrda taraqqiy etgan.

**Klassik san'at**-mumtoz san'at.

**Kontrtitul**-kitob bezaginiн turi, sarlavhadan oldin keladigan kitob varag'inинг nomi.

**Kobal't**-ko'k bo'yoqning bir turi, och havorang, to'q havorang yoki nilobiy rang.

**Koroplastika**-haykaltaroshlik turi, sopol haykalchalar, sopalak.

**Kontrast**-frantsuzcha keskin ziddiyat ma'nosini anglatadi. Tasviri san'atda och va to'q, oq va qora, iliq va sovuq ranglarni yonma-yon turishi kontrastlikni keltirib chiqaradi.

**Konservatsiya**-saqlash, san'at san'at asarining yaxshi saqlanishiga qaratilgan chora tadbirlar.

**Konstruktsivizm**-badiiy yo'naliш nomi.

**Kolorit**-real hayotdagи ranglarni aniq aks ettiruvchi badiiy asardagi ranglar nisbati.

**Kompozitsiya**-badiiy asarlarda (adabiyot, musiqa, tasviri san'at, amaliy san'at v.b.) qo'llaniladigan atama bo'lib, u tuzilishi qurilish ma'nosini anglatadi. Badiiy obrazlar va vositalarning asarda o'z o'rnida shakl, rang, mazmun jixatdan qurilishi uning kompozitsiyasini anglatadi.

**Kontur**-chegara, chiziq.

**Kopiya**- nusxa, ko'chirma.

**Kontsovka**-kitoblarda qo'llaniladigan badiiy bezak.

**Kraplak**-bo'yoq turi, qizil lavlagi rangiga yaqin rang.

**Ksilografiya**- frantsuzcha yog'ochga o'yilgan degan ma'noni anglatadi. U grafika (gravyura)ning bir turi bo'lib, unda tasvir yog'ochda xosil qilinib, so'ngra undan qog'ozga ko'chiriladi. Bu tasviri texnologiyada grafik asar ko'p nusxada tayyorlanishi mumkin.

**Kulrang-Rang** nomi, yoqilgan o'tindan qolgan kulning rangiga yaqin bo'lgan rang nomi.

**Kumushrang-** rang nomi, kumish rangiga yaqin bo'lgan rang.

**Ko'rgazma-badiiy** asarlarni namoyish eeish.

**Ko'k axzar-axzarvash**, osmon rangiga yaqin rang.

**Ko'chma ko'rgazma**-bir joydan boshqa joy yoki shaharma-shahar ko'chirilib, ochilgan ko'rgazma. Sayyor badiiy ko'rgazmalar shirkati tashkil etgan ko'rgazmalardan hosil bo'lgan atama.

## L

**Laureat** - lavr tojdor demakdir. Lavr daraxti shoxlaridan yasalgan, gulchambar bilan taqdirlangan shaxs degani. Qadim zamonlarda lavr daraxti shon-shuxrat ramzi hisoblangan.

**Lavkas-** rangtasvir ishslash uchun tayyorlangan taglik. U mato, karton kabi materiallarni ustki qismini maxsus suyuq qorishma bilan yopib chiqish orqali tayyorlanadi.

**Lessirovka-** rangtasvirga xos bo'lib, tayyor ishni ustini pardozlash, sayqallashtirish ma'nosini anglatadi. Bunda tugallanan bo'yoqlari qurigan tasvir ustidan, yorqin yoki yoqimli ranglar berilgan bo'ladi.

**Linogravyura**-grafika (gravyura) ning bir turi bo'lib, unda tasvir linoleum pachasi ustida xosil qilinadi. So'ngra undan qog'ozga rasm ko'chiriladi. Bu tasvir texnologiyasida grafik asar ko'p nusxada tayyorlanishi mumkin.

**Lolarang**-lolagun, lola rangiga yaqin rang.

**Lolaro'y-rang** nomi, lola gulining rangiga o'xshash rang.

**Lojuvard-rang** nomi, eng to'q zangori rang.

**Lubok**-yog'och bosma tasvir turi , odatda, tasviriy sanatda xalq hayotidan olingan ertak va cho'pchaklar mavzusini ifodalaydigan sodda va hajviy rasmlar.

## M

**Mavritan sanati**- Ispaniyaning Janubida va Afrikaning shimolida o'rta asrlarda tarkib topgan arab san'atining shu erlik ispan san'ati aralashuvi natijasida hosil bo'lgan san'atdir. Ba'zan Mag'rib san'ati deb ham yuritiladi.

**Manzara**- tasviriy san'atning janrlaridan biri. Unda tabiat, shuningdek shaxar ko'rinchlari tasvirlanadi.

**Mavxum san'at**- reallikni o'ziga o'xshagan ko'rinish va shaklda ifoda etishni rad etib, ni xar xil geometrik shakllar yoki faqat ranglar majmuasi vaositalari bilan

ifodalarydigan badiiy yo'nalish. Bu yo'nalish Ovro'po va Amerika tasviriy san'atida XX asr boshidn boshlab qo'llanilgan badiiy yo'nalishlardan biri. Aslida bu yo'nalish rus san'atida Kandinskiy va K.Malevichlar ijodida dunyoga kelgan va sobiq sovet san'atida 30- yillargacha mavjud bo'lib, 70- yillarda esa yana tiklana boshlagan.

**Mazmunli asar** – biror voqea, hodisa, lavha tasvirlangan asardir. Rangtasvirda natyurmort, manzara, portret-nigor tasvir kabilar paydo bo'lgandan keyin voqealar tasvirlangan rasmlar mazmunli asar, degan shartli nomga ega bo'lган.

**Maishiy (turmush) janr** –deb kishilarning kundalik xayoti, turmush, mexnatini tasvirlovchi tasviriy san'at janriga aytiladi.

**Maket** - narsa yoki san'at asarini kichraytirib ishlangan nusxasi. Me'morchilik va amaliy san'atda ko'proq uchraydi.

**Badiiy maktab** – tasviriy san'atda bu so'z uquvi va bilimi bor, degani. San'atkorlar orasida esa bu atama san'atkorlik maktabini egallagan ma'nosida ishlatiladi.

**Manera** – tasviriy san'atda rassom yoki xaykaltaroshning ish uslubi.

**Mallarang-** rang nomi, limon mevasining rangiga o'xhash rang.

**Man'erizm** - badiiy yo'nalish.

**Marina janri** – deb dengiz, daryo ko'rinishlarini va u erdag'i voqea va xodisalarni ko'rinishlarini tasvirlovchi tasviriy sanat janriga aytiladi.

**Marvaridrang** – marvaridrang rangiga yaqin rang.

**Mastixin** –yunoncha so'z bo'lib, undan ko'pincha rang tasvirni rassomlar foydalanadilar. U shakl andovaga o'xhash shaklda yasaladi va suvratdagi noto'g'ri qo'yilgan politradagi keraksiz bo'yoq moybo'yoqlarni sidirib tashlashda ishlatiladi.

**Mato** – rangtasvir asarini ishlashda foydalaniladigan material.

**.Mahobatli rangtasvir**–tasvirlanuvchilarning xaqiqiy o'lchovidan katta qilib ishlangan suvrat.

**Mahobatli haykal** –tasvirlanuvchi odam yoki xayvonlarni o'z o'lchovlaridan katta qilib ishlangan asar.

**Mahobatli san'at** – odatda, tarixiy shaxs, voqealarga bag'ishlangan yodgorliklar, binolarni bezatuvchi haykaltaroshlik va rangtasvir asarlar degani.

**Malbert-rassomning suvrat yaratishda ishlatadigan ish asbobi.**

**Medalon** – tuxumsimon doira shaklida ishlangan naqshni nomoyon yoki tasviriy san'at asari demakdir, xotin-qizlar, bo'yniga taqib yuradigan ziynat-taqinchoq.

**Metsenat** – san'at homiysi. Qadimgi Rum davlatida imperator Avgust davrida o'tgan Metsenat imsli badavlat shaxs nomidan tashkil topgan bu atama san'atga homiylik qiladigan odam ma'nosida. San'at xomiysi.

**Miniatyura** – lotin tilida qizil rangning nomlaridan biri, odatda, qo’lyozmaga ishlangan rasmlar shunday nomlangan. Ko’pincha bu nom bezak va taqinchoqlarga tushirilgan tasvir, shuningdek, ushoq tasvir deb ham yuritiladi.

**Moy** – odatda, moybo’yoq ham shunday deyishadi.

**Moviy**-rang nomi.

**Moybo’yoq**- rangtasvirda ishlatiladigan asosiy material (buyoq) bo’lib, u maxsus qorishma moy yordamida eritib ishlatiladi.

**Model** – o’lchov, nusxa, qolip demakdir. Biror asarni yaratishda tasvir uchun nusxa, andaza, namuna vazifasini bajargan odam yoki narsa, buyum, haykalataroshlikda esa asarning loydan ishlangan nusxasi yoki undan quyilgan qolip.

**Modelirovka** – shakl berish shakllantirish, yasash.

**Modern** –franzutscha so’z bo’lib yangi eng zamonaviy degan ma’noni anglatadi. Bu oqimdagи ijodkorlari tasviriy san’atda bezakdorlikka aloxida e’tibor berib an’anaviy uslublardan voz kechdilar. Ayniqsa realistik san’atga zid bo’lgan mavxum, uningdek shakl va rangdan iborat bo’lgan mazmunsiz asarlar yaratadilar.

**Modernizm**–zamonaviy yo’nalish, oqim, keng ma’noda realistik san’at, jumladan, sotsialistik realizm san’atidan mustasno, “postimpressionizm” dan tortib, to “popart” gacha bo’lgan badiiy yo’nalishlarning barchasi shunday nomlanardi.

**Molbert** – rassom dastgohi, anjomi.

**Moviy**- rang nomi. Erta tongdagi sof osmon rangi.

**Mozaika**-rangtasvirning bir turi bo’lib qattiq materiallar xisoblangan kashin. Rangli shisha, marmar, tosh, yog’och, metall parchalarini tekis yuzaga maxsus qorishmalar yordamida yopishtirilib yaratilgan tasviriy san’at texnikasi. Bunday asarlar ko’pincha devorga, shiftga, uy poliga ishlanadi.

**Mosh rang**-rang nomi. Mosh rangiga yaqin bo’lgan rang.

**Monument** – mahobatli haykal, yodgorlik.

**Muzey**- tarixiy, tasviriy va amaliy san’at asarlari, buyumlar va hakazolar namoyish etiladiganjoy.

**Muqarnas** – naqshin, naqshlangan.

**Muqovachi** – muqovasoz, sahhob.

**Mo’yqalam** - qilqalam, rassomlar ishlatadigan yozuv va tasvir quroli. Rassomlarning jundan yoki sintetik materiallardan tayyorlanib ishlatadigan quroli.

**Mum xaykal**-asalari mumidan xaqiqatdagidek rangli qilib tasvirlanadigan xaykal. Ko’pincha mashhur shaxslar xaykali ishlanadi. Odam xaykallaridan xaqiqiy liboslarda va turli ish qurollari bilan ishlanadi.

**Mujaz rangtasvir**-tasvirlanuvchilarni kichik o'lchovda ishlangan suvrat. Ular ko'proq grafika bezagida ishlatiladi. Shuningdek ular mustaqil san'at asari sifatida qog'oz va turli quticha va guldonlar ustiga ishlanishi xam mumkin.

**Musavvir**-arabcha rassom degan ma'noni bildiradi.

## N

**Natura** – tasviri ishlanayotgan odam, xayvon, manzara va boshqalar xisoblanadi.

**Naturshchik** – mashg'ulotlar jarayonida tasviri (rasmi, xaykali) ishlanayotgan odam.

**Natyurmort** - U tasviriy san'atning janrlaridan biri bo'lib frantsuzcha jonsiz tabiat degan ma'noni anglatadi. Mazkur janrda gullar, meva va sabzavotlar, uyo'zg'or buyumlari, san'at va sport atributlari aks etdiriladi.

**Negativ** – teskari tasvir ma'nosida.

**Nim sariq** - och sariq, rang nomi.

**Nim yashil** – och yashil, rang nomi.

**Nim qo'ng'ir** – och qo'ng'ir, rang nomi.

**Nim qizil** – och qizil, rang nomi.

**Nilobi**-rang nomi.

**Nim zarg'aldoq** - och zarg'aldoq, rang nomi.

**Nim malla** –och malla, rang nomi.

**Nilgun**-rang nomi, och jigar rang.

**Nim pushti** – och pushti, rang nomi.

**Nim kulrang** –och kulrang, rang nomi.

**Nimohang** – nim tus, yorug' bilan soya o'rtasidagi tus.

**Novvoti** – rang nomi, novvot rangiga o'xhash rang.

**Novator** – novatorlik ham deyiladi, san'atda yangi yo'l, yangi usl, shakllarni izlovchi, ijod ma'nosiga ham egadir.

**Nofarmon**-rang nomi, och binafsha rang.

**Noranjvash** – Rang nomi, apelsin rangiga yaqin rang.

**Novshadil**-rang nomi, o'tkir yorqin yashil rang.

**Nursoya, yorug'soya** – narsalar ustida yorug' va soyalarni rasmda tasvirlashda ishlatiladi.

**Nyuans**-frantsuzcha so'z bo'lib narsa va xodisalardagi, tasvirdagi nozik, yaxshi ilxab bo'lmaydigan farq ma'nosini anglatadi.

**NYu**-tasviriy san'at janrlaridan bari bo'lib unda kishilar ko'pincha ayollar yalang'och tarzda tasvirlanadi.

## O

**Olachipor** – tasvirda ranglarning tartibsiz, pala partish berilishi.

**Olovrang** – otashrang, olov rangiga yaqin rang.

**Oq-rang nomi, paxta rangi.**

**Orginal** – asli, asl nusha, asl ko'rinish ma'nosini anglatadi.

**Osmoniy** – moviy, lojuvard, nilgun, rang nomi.

**Och binafsha rang** – nofarmon, rang nomi.

**Ofort** – Frantsuzcha kislota ma'nosini anglatib, grafika (gravyura)ning bu er turi xisoblanadi. Unda tasvir avval kislota yordamida metallda (mis, qo'rg'oshin) xosil qilinib, so'ngra undan rasm qog'ozga ko'chiiladi.

**Ottisk-** rus tilidan olingan bo'lib bironta tasvir yoki matnni bosmaxona sharoitida ko'p. Odatda qog'oz yoki boshqa materialga ko'chirilishi ma'nosini bildiradi.

## P

**Pavilon**- shiypon, ko'pincha doira shaklida qurilgan gumbazli shiypon degan ma'noni anglatadi.

**Palitra** – Frantsuzcha yupqa plastinka degan ma'noni anglatadi. Ular yog'ochdan ishlanadi. Politralar metall, plastmasa, chinni kabi materiallardan xam ishlanishi mumkin. Akvarel bo'yoqlarni aralashtirish uchun bir parcha qog'oz xam palitra vazifasini o'tashi xam mumkin. Umuman olgan palitralar buyoqlarni aralashtirish uchun tayyorlangan rangtasvirni rassomning ish kurash xisoblanadi.

**Panno** – lotin tilidan olingan bo'lib, mato parchasi ma'nosini anlatadi. Pannolar ko'pincha moy-bo'yoq mato ustiga ishlanadi.

Ular avval maxsus joyga mo'ljallangan bo'lib, rangtasvir, relfli (bo'rtma) tasvir shaklida bo'ladi va naqshli hoshiya bilan chegaralangan bo'ladi. Amaliy san'atdagi nomoyondalar ham pannoga kiradi.

**Panorama** – yunon tilidan olingan bo'lib, ko'rinish ma'nosini anlatadi. Panoramada suvratlar aylana shaklidagi uzun devorga gorizontal holda ishlanadi. Shuningdek unda ro'y berayotgan voqeа haqida to'liq tasavvur etish maqsadida suvrat oldiga butafor tasvirlar, uy maketlari, odam, hayvon, tabiat shakllari joylashtiriladi. Panoramalarni tomoshabin zaldagi maxsus ajratilgan joydan turib kuzatadilar.

**Pane-mishe**-frantsuz tilidan olingan bo'lib, ezilgan qog'oz ma'nosini anlatadi. Bu uslubda tasvir qog'oz, karton kabi materialarga elimli moddalar kraxmal, gips

kabilarni aralashtirish orqali xosil qilinadi. Bunday tasvirlardan o'yinchoqlar, uyro'zg'or buyumlari, ta'lim jarayonida didaktik materiallarni tayyorlashda foydalaniladi.

**Pastel** – italiyanlar tilidan olingan bo'lib, xamir ma'nosini anglatadi. Rassomlar qoralama va grafik ishlarda keng foydalanadilar. Pastellar rangli ingichka bo'r shaklida bo'lib, ularni qog'ozga yopishqoqlik xususiyatlari kuchli bo'ladi.

**Peredvijniklar** – sayyor rassomlar shirkati. 1870 yilda Rossiyada tashkil topgan “ Sayyor badiiy ko'rgazmalar shirkati”. Bu shirkat rus tasviriy san'atida hukm surgan rasmiy akademik san'atga qarshi chiqib, xalq ifoda etuvchi realistik va sotsial g'oyaviy san'at yaratish hamda uni omma orasida targ'ib etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan edi.

**Perspektiva** – lotin tilidan olingan bo'lib, ravshan ko'raman degan ma'noni anlatadi. Borliqdagi barcha narsalar ma'lum masofadan turib kuzatilganda ular kuzatuchiga o'z o'lchovlari, shakli, rangi o'zgarganlik bo'lib tuyuladi. Bu xodisani perspektiva deb yuritiladi. Tasviriy san'atni nazariy asoslaridan xisoblangan perspektiva maxsus fan darajasiga ko'tarilgan bo'lib, uning chiziqli, havo (rang) va relf perspektivasi kabi turlari bor.

**Pigment** – turli bo'yoqlar kukuni.

**Plakat** –frantsuz tilidan olingan bo'lib, e'lon ma'nosini anlatadi. U tasviriy san'atning grafika turiga kiradi. Plakatlarda kishilarni hayotdagi eng muhim bo'lgan muammolarni echimiga qaratish tashviqot va targ'ibot qilinadi. Ko'pincha ular katta o'lchovda va rangli qilib tasvirlanadi.

**Plastilin-** Xaykaltaroshlikda ishlatiladigan maxsus qorishma. U mum, loy kabi modalardan tashkil topgan bo'lib xamirsimon yumshoqlikda bo'ladi. Uni xaykaltaroshlar xaykallarini yaratishdan avval uning maketini plastilindan tayyorlab oladilar. Plastillini yumshoqligi maket yaratish qulay xisoblanadi.

**Plastika**-yunon tilidan olingan bo'lib muloyim, go'zal ma'nosini aglatadi. U xaykaltaroshlikka doir. Undagi tasviriy obrazlar bo'rtirilgan xolda ifodali xolda, uyg'unlik qonunlari asosida yaratiladi.

**Plastik anatomiya**-Rassom va xaykaltaroshlikda talabalarning o'rganadigan fanlaridan biri u kishilarning tana tuzilishi, mushaklarning shakli, o'lchovlari xamda ularning o'zaro bog'liqligini o'rgatadi. Plastik anatomiyanı bilish ayniqsa portretni rassom va xaykaltaroshlar uchun nixoyatda muxim.

**Plener**-frantsuz tilidan olingan bo'lib, ochiq joy, keng ko'rinish ma'nosini anglatadi. Ko'pincha rassomlar o'z asarlari uchun etyud, qoralama, ranglamalarni plenerda bajaradilar. Ochiq xavoda ishlangan etyud, qoralama ranglamalarda kunduzgi tabiatning va boshqa ob'ektlarni ranglari qanday bo'lishligini ko'rish mumkin bo'ladi.

**Podramnik** –rus tilidan olingan bo'lib, suvrat ishlash uchun mo'ljallangan matoni, tarang tortib turishga xizmat qiluvchi qurilma. Ular to'rtta yog'ochni bir-biriga maxkamlanishi orqali to'rtburchak (kvadrat) shaklida tayyorланади.

**Poliptix** – ko’p qisqli, ko’p lavhali bo’lakdan iborat asar, degan ma’noni beradi.

**Polotno** – bo’z matoga ishlangan rangtasvir asari.

**Portret** –frantsuz tilidan olingan bo’lib, tasvir, aniqrog’i odam tasviri ma’nosini anglatadi. U tasviriy san’atning bir janri hisoblanadi. Portretda bir yoki bir necha shaxs tasviri ishlanishi mumkin. Ularda odamlarning boshi yoki beligacha bo’lgan ko’rinishda tasvirlanishi mumkin. Xaykaltaroshlikda portretlar relf shaklida ham bo’ladi.

**Postament** –nemis tilidan olingan bo’lib, taglik ma’nosini anglatadi. Postament xaykalni ko’tarib turadigan to’rt yoqli yoki tsilindr shaklida bo’ladi. Ular muzey va ko’rgazma zallarida ham namoyish etiladigan xaykal yoki amaliy san’at buyumlarini tagiga qo’yiladi.

**Postimpressionizm** – imperessionizmdan keyingi badiiy oqim. Tasviriy san’atda rivojlangan kubizm, futurizm, ekspressionizm, primitivizm singari badiiy uslub yo’nalishlarini o’z ichiga olgan yo’nalish.

**Proportsiya**-lotin tilidan olingan bo’lib, munosabat degan ma’noin anglatadi. U tasvirdagi o’lchovlar (bo’yi, eni, qalinligi, och-to’qligi, katta-kichikligi v.b.) o’rtasidagi nisbatlarni nazarda tutadi. Masalan, tinchlik, ekologiya, muammolari ishlar jumlasidandir.

**Primitivism** – primitivlik, ya’ni soddalashtirish, jo’nlashtirishni ifodalovchi badiiy yo’nalish. Ibtidoiy tasvirlardan,bolalar rasmlariga o’xshatib ishslash yo’li. Ibtidoiy odam nuqtai nazaridan dunyoni idrok etish va uni tasvirlash.

**Prototip** – tasvirga asos bo’lgan ma’lum shaxs qiyofasi tasvirlangan ko’rinishi.

**Putti** – Ko’pincha Evropa rangtasviri va xaykaltaroshlikda parishtalar ramzi sifatida tasvirlanadigan qanotli go’daklar tasviri.

**Pushti**-rang nomi, pista mag’zining rangi.

**P’edestal** – haykal yoki yodgorlik tagiga, qo’yiladigan taglik supa. Ular kub, prizma, tsilindr. Kesik konus shaklida bo’lishi mumkin.

**Pistoqi rang** – pista rangiga yaqin rangi.

## R

**Ravoq** - bog’ot, tokcha yoki arkning mehrob shaklida birlashgan yuqori qismi.

**Rakurs** – odam, xayvon, manzara va boshqa narsalarning ufq chizig’idan ancha yuqori yoki pastdan turib ishlangan tasviri. Bunda tasvir keskin qisqarib ko’ringan bo’ladi.

**Rang majmuasi** – bir necha o’xhash ranglar majmuasi.

**Ranglama** – buyoqlar bilan qisqa vaqtida buyoqlar bilan ishlanadigan xomaki rasm.

**Rapport** - taqsim, ulgi, naqqoshlikda matoga gul bosish, chitgarlik, abrbandlik singari naqshni mato, gilam, paloslar tasvirini beruvchi naqshning aosisi bo’lagi.

**Rassom** – rangtasvir va grafika turida ijod qiluvchi mutaxassis.

**Rasmxona** – suratxona. Ba’zi G’arbiy Ovro’po san’ati muzeylar, xususan, qadimgi san’at asarlari saqlanadigan muzeylar ham shunday ataladi.

**Realizm** – tasviriy san’atda narsalar hayotda qanday ko’rinsa, shundayligicha tasvirlanishiga asoslangan oqim.

**Rekonstruktsiya** - qayta qurish, tuzatish, ta’mirlash.

**Relief** – lotin tilidan olingan bo’lib xaykaltaroshlikda ishlatiladi. Unda tasvir tekislik yuzasidan qisman bo’rtib chiqqan bo’ladi. Uni birelf va gorelf turlari bo’ladi.

**Renessans** – uyg’onish.

**Reproduktsiya** – lotin tilidan olingan bo’lib xosil qilish ma’nosini anglatadi. Tasviriy san’atda u suvrat, grafik ish va xaykaltaroshlik asarlarini bosmaxonalar sharoitida ko’p nusxalarda qog’ozda ko’paytirilgan tasvirlariga aytildi.

**Restavratsiya** – san’at asarlarini ta’mirlash ma’nosini anglatadi.

**Restavrator** – ta’mirlovchi, ta’mirchi.

**Retush** – frantsuz tilidan olingan bo’lib, tasvirni tuzatmoq ma’nosini anglatadi. Retush qalam shaklida bo’lib, uning tarkibi oddiy qalamdan farq qiladi. Unda turli grafik ishlarni tuzatishda foydalaniлади.

**Retushyor** – tuzatuvchi, fotosuratlarni to’ldiruvchi, pardozlovchi.

**Refleks** – yonma yon qo’yilgan narsalar va ularning tasviridagi rang yoki tus jixatidan bir birlariga ko’rsatadigan aks ta’siridir.

**Rokoko** – chig’anoq so’zidan hosil bo’lgan chig’anoqsimon, chig’anoqqa o’xhash jimjimador, o’ynoqi degan ma’nolarni beradi.

**Romantizm** - XIX asrning 20-30 yillarida Ovro’po san’atida paydo bo’lgan badiiy yo’nalish. Klassitsizmdagi antik san’at davridan olingan tarixiy va afsonaviy voqeа va obrazlar o’rniga romantizm san’atida zamonaviy hayotdan olingan mavzu, shaxslarni, ularning his tuyg’ularini oshkora va ko’tarinki ruhda ifoda etadi. Bu yo’nalishga mansub asarlarda ko’pincha o’z ozodligi, mustaqilligi uchun kurashgan halqlar tarixidan lavhalar, inqilobiy voqealar tasvirlanadi. Romantizm Sharq xalqlari san’ati va madaniyatiga ham xos, yorqin xususiyatlardan biri bo’lib, afsonalar, ertaklar, tarixiy voqealar, sevgi va muhabbat mavzularini ifoda etishda o’zini namoyon etadi.

**Sabza**- rang nomi, erat bahorda yangi o'sib chiqqan rang nomi.

**Sayqallash** – pardozlash.

**Salon** – tasviriy va amaliy san'atga doir materiallar, ish qurollari, san'at asarlari sotiladigan do'kon.

**San'at** – arabcha atama bo'lib, hayotdagi narsa va hodisalarni badiiy obrazli tarzda aks ettiruvchi ma'naviy madaniyatning tarkibiy qismi. U tasviriy san'at, amaliy san'at, musiqa, me'morchilik, teatr, kino, badiiy adabiyot, televidenieni o'z ichiga oladi.

**San'atnamo** – san'atkorona, san'at sifat, san'atga o'xshash.

**San'atshunos** – san'at tarixi, nazariyasi va uning taraqqiyoti bo'yicha tadqiqot olib boruvchi mutaxassis.

**San'atshunoslik** – san'at tarixi, uning muammolari bilan shug'ullanuvchi fan yo'nalishi.

**Samoviy** – rang nomi, somon rangi, tillasimon rang.

**Sanat tarixi** – san'atning tarixi bilan shug'ullanuvchi soha.

**San'at sintezi** – birlashish, qo'shilish, uyg'un degani, san'at asarlarining me'morchilik bilan uzviy bog'lanishi, uyg'unlashuvi natijasida san'at sintezi hosil bo'ladi.

**Sangina** – lotin tilidan olingan bo'lib, qondek ma'nosini anglatadi. Ular qalam shaklida, yog'ochsiz temir oksidli tuproqsimon moddalardan tayyorlanadi. Ularni qog'ozga yopishqoqlik xususiyatlari kuchli bo'ladi. Rasomlar ularda xomaki rasm ishslash jarayonlarida keng foydalanadilar.

**Sanoat grafikasi**-sanoatda qo'llaniladigan reklama, yorliq, emblema, blanka, konvert, tovar belgilari, etiketka, upakovka va boshqalar bilan bog'liq grafika turi.

**Sariq**-rang nomi, momaqaymoq (qoqi o't) rangining nomi.

**Sadaf**-rang nomi, och sarg'ish rang.

**Sgrafitto** - qirma va shu uslubda ishlangan asar. Oq ganch suvoq ustidan rangli suvoq qilinib, ustidagi suvoqni zamingacha qirib, naqsh yoki tasvir hosil qilish. Bu qadimdag'i ustalar ishlatgan usullardan biridir.

**Sepiya**- jigar rang bo'yoq bilan ishlangan rasm, tasvir.

**Serrang** – rang-baranglilik, ko'p ranglilik, xilma-xil ranglilik, turfa ranglilik.

**Siluet** – bir rangd, xajmsiz qilib ishlangan rasm Uni sharpa tasvir desa ham bo'ladi.

**Simvol** – ramziy belgi, timsol.

**Siybob**-rang nomi, simob rangi.

**Simvolizm** – ramziy ma'noda bo'lib, hayot, borliq, moddiy dunyoning aql-idrok eta olmaydigan mavhum sifat va xususiyatlarini san'at kuchi bilan ramziy

obrazlarda o'xshatish, qiyoslash orqali ifodalash yo'llarini izlagan badiiy yo'naliш bo'lib, u Germaniyada XIX asrning 90- yillarida paydo bo'lган. So'ng Frantsiya, Rossiya san'atida ko'ringan edi. Misol uchun P.Kuznetsov, M.Vrubel, N.Rerix singari rassomlar ijodida namoyon bo'lган.

**Slayd** – diapozitiv, fotoplyonkaga tushirilgan suvrat tasviri.

**Slepok** - qolip, ko'chirish, ko'chirma.

**Sovuq rang** – yashil, zangori, binafsha ranglarni shunday deb ataladi.

**Soya** – narsalarning yorug'lik tushmaydigan qismida xosil bo'lган tus. Soyalarning ikki xili bo'ladi. Ular shaxsiy soya va tushuvchi soyalardir.

**Sous** - qalam shaklidagi rassomning ish quroli. U yog'ochsiz bir rangda bo'lib, o'lchovi 4-5 smdan oshmaydi. Sousdan rassomlar ko'proq xomaki ishlar jarayonida foydalanadilar.

**Somoniy-rang** nomi.

**Sotsialistik realizm** – bu badiiy uslub san'atkordan borliqni ro'y-rost, tarixan aniq va inqilobiy rivojlanish holatida tasvirlash talab qilingan. Ushbu uslub sotsialistik jamiyat san'ati va adabiyotini asosiy uslubiy yo'naliши deb qabul qilingan edi va sotsialistik dalatlar san'atida 30- yillardan boshlab rasmiy san'atining yagona yo'li sifatida foydalanilgan.

**Stek** – xaykaltaroshlik asbobi. Ular yog'och yoki plastmassa materiallardan tayyorlanadi. Ularni turli shakl va o'lchovlari bo'ladi. Loy va plastilin bilan xaykal ishlashda qo'llaniladi.

**Stil** – ulub, yo'l.

**Supermuqova** – kitob badiiy bezagida ishlatiladigan qog'ozga ishlangan tasvir. Ular bezakli va rangli holda kitoblarni tashqi ta'sirdan saqlash maqsadida kitob ustiga kiydiriladi. Supermuqovani sarmuqova ham deyishadi.

**Suvrat** – yuksak badiiy saviyada ishlangan rangtasvir yoki grafik tasvir.

**Suratxona** – san'at asarlari saqlanadigan va namoyish etiladigan bino.

**Suyultirgich** – bo'yoqni eritish uchun ishlatiladigan suyuq modda.

**Sfumato** - g'ira- shira ko'rinish, g'ira-shira tasvir. Havoning g'ira-shira holati va shu holatni tasvirlash.

**Surrealizm** – o'ta realizm. Bu atama XX asr adabiyoti va san'atida paydo bo'lган. U Frantsiyada vujudga kelgan bo'lib, olim Freyd g'oyasi va nazariyasiga suyanganlar. Ya'ni san'atkolar o'z asarlariда tabiiy tuyg'u, hayol va tushlarni aks ettirib, narsalar, hodisalarning shakl holatlarini mavhum tarzda ko'rsatishga alohida ahamiyat berishardi.

**Tanqidiy realizm** – bu yo’nalish Rossiya adabiyoti va san’atida XIX asrning 40- yillardan boshlab taraqqiy etgan va birinchi galda rassom Pavel Fedotov ijodida shakllana boshlagan, so’ng tanqidiy realizm xususiyatlari rus tasviriy san’atining demokratik oqimi bo’lmish “Sayyor rassomlar” ning ijodida qo’llanilgan. Bu yo’nalish asosiy xususiyatlari san’atkordan voqealikka tanqidiy nuqtai nazaridan yondashish va uni idrok etishni talab etadi.

**Tarixiy janr** –tarixiy voqealarni tasvirlovchi tasviriy san’at janri.

**Tasviriy san’at** – borliqda mavjud va mavjud bo’lmagan mavjudot, narsa va xodisalarni tasvirlovchi san’at turi.

**Tempra**-italyanlar tilidan olingan bo’lib, bo’yoq qorishtirish ma’nosini anglatadi. Bu bo’yoq suv bilan eritilib ishlatiladi. U ko’proq binolarni bezagida, rangtasvir ishlarda keng qo’llaniladi. Tarkibida maxsus moddalar bo’lganligi sababli qo’yosh va yorug’lik ta’sirida o’z rangini o’zgartirmaydi, uzoq vaqtgacha o’z tusini saqlab qoladi.

**Terrakota** –sopol, sopol buyumlar, sopol haykalchalar, sopalak, tuprog’i kulolarnikiga o’xshamaydi.

**Tosh tasvir** - qoya toshlardi rasmlar demakdir. Ibtidoiy odamlar qurbanlik qiladigan yoki sajdagoh g’orlar va tog’ yon bag’irlarida uchraydigan qoya toshlardi tasvirlar.

**Tush** - qora siyoh. Shu vosita bilan ishlagan asar ham tush deyilgan.

**Tus**- ohang, ranglarga nisbatan ishlatiladi.

**To’tiyo**-rang nomi, yorqin yaltiroq yashil rang.

**To’tigiy**-rang nomi, zangori va yashil ranglarning qo’shilishidan olingan rang nomi.

**Tulum**-xayvon, qush, baliq kabilarni maxsus materiallar yordamida o’ziga o’xshatib tayyorlangan nusxasi.

**Titul**-lotin tilidan olingan bo’lib, yozuv ma’nosini anglatadi. Titul varroq kitoblarda muqovadan keyin keladi. Ularda kitob muallifi kitob nomi, kitob nashr etilgan shaxar, nashriyot nashr etilgan yil yozilgan bo’ladi.

**Tors**-italyanlar tilidan olingan bo’lib, inson tanasi ma’nosini anglatadi. Qadimda badiiy o’quv yurtlarida boshsiz, qo’lsiz, oyoqsiz gipsdan ishlangan odam tanasini o’rganish maqsadida rasmini ishlaganlar.

**Triptix**-yunon tilidan olingan bo’lib, un buklangan degan ma’noni anglatadi. Aslida yagona umumiylazmun va g’oyani ifodalaydigan uch bo’lakli rangtasviri, grafika asari xisoblanadi.

## U

**Uyg'onish davri**—XIU-XU Ovro'po tasviriy san'ati rivojidagi davr.

**Upakovka**-san'oat grafikasining bir turi bo'lib sanoatda ishlab chiqaradigan mollarni maxsus jixozlarga joylashtirib, jixoz ustiga yozib qo'yiladigan ma'lumotlar.

**Ufq chizig'i-yunon** tilidan olingan bo'lib, chegaralash ma'nosini anglatadi. U kuzatuvchining ko'z balandligida tasavvur etiladigan gorizontal (yopiq) chiziq. Keng ochiq kengliklarda kuzatuvchi tasavvuridagi osmon bilan erni kesishgan joyidagi chiziqni bildiradi.

## F

**Faktura** – lotin tilidan olingan bo'lib tuzilishi ishlovi ma'nosini anglatadi. Unda asosan narsalarni ustki qismining tuzilishi nazarda tutiladi. Faktura-silliq, g'adir-budir, tekis bo'lishi mumkin.

**Fas** – tasviriy san'atdan rasmi ihlanayotgan mavjudot va narsalarning oldi ko'rinishidir.

**Fleyts** – katta o'lchovdagi va kenglikdagi mo'yqalam. Ular ko'pincha bino va maxobatli rangtasvir ishlarini bajarishda ishlatiladi.

**Fon** –lotin tilidan olingan bo'lib, tubi asosi zamin ma'nosini anglatadi. Tasviriy san'atda fon rasmining orqa qismidagi tasvir yoki tekis bo'yalgan qismidiryu.

**Firuza**-rang nomi, zangori yorqin tosh rangi.

**Forzats** – kitob muqovasining astari.

**Formalizm** – asarning mazmuniga nisbatan, shakliga, badiiy va tasviriy vositalariga e'tibor berish.

**Formovka** - qoliplash, shakl berish, quyish, qolipdan chiqarish.

**Friz**- araqi, navo.

**Fresco** – devoriy rangtasvir turi.

**Frontispis** – lotin tilidan olingan bo'lib oldi, ko'raman ma'nosini anglatadi. U kitob titul varag'ining chap tomoni muqova orqa tomonidagi bezakli saxifasi xisoblanadi. Frontispisda kitob muallifining rasmi yoki u xaqda ma'lumot, kitob mazmuni, g'oyasi bilan bog'liq illyustratsiya berilishi mumkin.

**Futurizm** – futurizm kelajak so'zidan olingan bo'lib, yangi zamon yoki yangi kelajak san'ati ma'nosini anglatuvchi badiiy yo'nalishdir.

## X

**Xalq rassomi** – rassomchilikda katta yutuqlarga erishganlarga beriladigan unvon.

**Havo rang**-rang nomi, osmon rangi.

## Sh

**Shaxsiy soya**-Tasvirlanayotgan mavjudotlar tanasidagi va ularning tasviridagi soya.

**Shaxsiy ko'rgazma**– birgina ijodkor asarlarining namoyish etilishi.

**Shingob**-rang nomi, tilla rangiga o'xhash rang.

**Shlifovka** – silliqlash,pardozlash.

**Shmutstitul** –nemis tilidan olingan bo'lib, ifloslanish, sarlavxa, titul so'zlarini ifodalaydi va titul ifloslanishidan saqlashga xizmat qiladi. U kitobning titul varag'i yoki kitob bobidan oldin qo'yiladigan qog'oz varaq.Shumtstitulda kitob nomi yoki bob nomi barobar xolda kitob va nashriyot nomi badiiy bezaklar xam ifodalanadi.

**Shtrixlash**- qalam yoki shu kabi ish qurollari bilan rasm chizganda qo'llaniladigan uslub.

**Shu'la** – nur.

## E

**Ekslibris**- bir shaxsning kutubxonasiga tegishli ekanligini bildiruvchi tamg'a.Unda shaxsiy kutubxona egasining ismi va familyasi, shuningdek unda biror tasviriy belgi bo'lishi xam mumkin. Ekslibrislar gravyura uslubida tayyorlanadi.

**Ekzotika**- ajoyibot, g'aroyib.

**Ekspozitsiya**-lotin tilidan olingan bo'lib, ko'rsatish namoyish etish ma'nosini anglatadi. Tasviriy san'atda muzey, badiiy ko'rgazmalarda san'at asarlarini tomoshabinga namoyish etish tushuniladi.

**Eksponat** –lotin tilidan olingan bo'lib ko'rgazmaga qo'yilgan degan ma'noni bildiradi. Tasviriy va amaliy san'atda namoyish etilayotgan asar tushuniladi.

**Eksponat**- o'z asari, ishini namoyishga qo'ygan shaxs, tashkilot, buyum, mulk, xazina egasi, ko'rsatuvchi.

**Ekspressionizm**- ekspressiya so'zidan kelib chiqqan bo'lib, san'atda ifodalilik, fikr, kayfiyat va his-tuyg'ularning yorqin namoyon bo'lishidir.Bu badiiy oqim 1905 yilda Germaniyada "Ko'prikl" ("Most") nomli guruhda paydo bo'lган. Birinchi jahon urushi va undan keyingi yillarda Ovro'po-rus ham sovet san'atida keng tarqalgan. Ekspressionizm insonning sub'ektiv ma'naviy dunyosini birdan-bir reallik, e'tiborga sazovor, uning tavsifini esa an'atning asosiy maqsadi deb qaradi.Masalan, frantsuz rassomlari Van Gog, pablo Picasso,Renato Guttuso, rus rassomlari Deneyka, Konchalovskiy kabilarni shu oqim vakillari deb atash mmkin.

**Ekspressivlik**-san'atda ta'sirchanlik, jozibalilik.

**Ekspressiya**- shijoat, shiddat, tezkorlik ifodalilik, fikr,kayfiyat va his-tuyg'ularning yorqin namoyon bo'lishi.

**Ellinizm-** yunoncha ellin so'zidan olingen bo'lib, Iskandar Zulqarnayn-Aleksandr Makedonskiy zabit etgan erlar,xususan, Turon zaminidagi Ellin madaniyati ta'siri natijasida Miloddan avval Sh-1 asrda hosil bo'lган madaniyat, ellinsifat madaniyati, san'ati.

**Emblema**-yunon tilidan olingen bo'lib biron g'oyani shartli tasvirlash ma'nosini anglatadi Masalan kitob tasviri ma'naviyat ta'lim belgisidir.

**Eskiz**-frantsuz tilidan olingen bo'lib, xomaki tasvir ma'nosini anglatadi. Rang tasvirda u bo'lg'usi yaratilgan asarni kichik o'lchovdagi xomaki ishlangan namunasi. Unda suvrat kompozitsiyasi, mazmuni, ranglari, asosiy detallar tasvirlanadi.

**Estamp**- grafika doir mustaqil asar. Ular gravyura uslubida ko'p nusxada tayyorlanib uni ishlagan rassomning ko'riganidan o'tkaziladi,zarur bo'lган taqdirda larga qisman tuzatishlar kiritiladi, xamda ish tagiga rassomning shaxsiy imzosi qo'yiladi. Estamplar oq-qora yoki rangli bo'lishi mumkin.

**Etyud**-frantsuz tilidan olingen bo'lib, mashq qilish ma'nosini anglatadi. Etyud rassom tomonidan kelajakda biror asar yaratishi, ular tayyorgarlik bosqichini o'taydi. Ayniqsa ular tasviri san'atning deyarli barcha janrlarida suvratlar yaratishda ishlatiladi. Bir suvrat uchun ko'plab etyudlar ishlanishi mumkin.

**Etyudnik** – rassomning ish qurollari va materiallarni solib yuradigan qutisi. Unda mo'yqalam, bo'yoq qog'oz, karton, va boshqa shu kabilar saqlanadi. Etyudnik rassomga manzara, portret, etyud ishlaganda molbert vazifasini xam o'taydi.

**Etiketka**- grafikaning bir turi bo'lib, ko'pincha u sanoat ishlab chiqilgan mollarga yozib yoki yopishtirib qo'yiladi. Namoyishga qo'yilgan yoki muzeylarda saqlanayotgan tasviri san'at asarlari xam etiketkalari bo'ladi. Etiketkalarda asarni yaratgan muallifning ismi va sharifi, uning nomi, yaratilgan yili, qanday materialdan ishlanganligi yozib qo'yiladi.

## Ya

**Yakrang**-bir rangda bajarilgan san'at asari.

**Yakuniy bezak**- kitob grafikasiga mansub bo'lib, uning bob yoki fasllari. qismlarining oxirida boriladigan tasvir. Ular naqshli yoki mazmunli bo'lislari mumkin.

**Yarim soya**- turli-tuman mavjudotlar va ularning tanasidagi yorug' va soyalarning o'rtasidagi qismi.

**Yashil**- rang nomi, to'q barg rangi.

## O'

**O'zbekiston xalq rassomi**-O'zbekiston tasviri san'atini rivojlantirishda qo'shgan katta xizmatlari, ko'plab xalq manzur, yuksak badiiy asarlar yaratishdagi xizmatlari uchun rassom, xaykaltaroshlarga beriladigan davlat unvoni.

**O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi**-O'zbekiston san'ati (musiqa, teatr, kino, me'morchilik, amaliy san'at v.b.) rivojlantirishdagi katta xizmatlari, ko'plab yuqori badiiy saviyada san'at asarlarini yaratganliklari uchun san'at namoyondalariga beriladigan davlat tomonidan beriladigan unvon.

## Q

**Qalamtasvir-** qalam, siyoh bilan ishlangan rasm.

**Qizil-** qon rangiga yaqin rang.

**Qirmizi-** qizil rangning bir turi.

**Qora-rang nomi.**

**Qo'shimcha ranglar**-asosiy ranglar xisoblangan qizil, sariq, zangori, shuningdek oq va qora ranglardan tashqari barcha ranglardir.

## H

**Haykal-xaykaltaroshlik** maxsuli bo'lib, ular loy, tosh, yog'och, temir. Mo'm. Kabi materiallardan xajmli qilib ishlanadi. Xaykallarni yumaloq va relfli turlari bo'ladi.

**Haykaltaroshlik-** tasviri san'atning bir turi. Bunda odam, xayvon, va qushlarning xajmli tasviri turli-materiallar yordamida ishlanadi. Ko'pincha tosh, yog'och, loy, gips, metall kabi materiallardan foydalaniladi. Xaykaltaroshlikni mayda plastikua, dastgoxli xaykaltaroshlik, maxobatli xaykaltaroshlik, istiroxat bog' xaykaltaroshligi, dekorativ xaykaltaroshlik turlari bor.

### **Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: Sharq. 1998.
2. Abdullaev N. U. «San'at tarixi» Tom -1. -T.: O'qituvchi. 1986.
1. Alpatov M. V. Chegodaev I. "Vsemirnaya istoriya iskusstv". -M.: Isskustvo. 1958.
3. Alpatov M. V. «Russkoe iskusstvo XVIII–XIX vekov» -M.: Izdatelstvo. 1958.
4. Vipper B. R. «Isskustvo drevney Gretsii» M., 1972.10-23s.
5. Vseobshaya istoriya isskustv» Tom-2.-M.: Isskustvo. 1958.
6. Vseobshaya istoriya iskusstv -M.: Iskusstvo. 1960. Tom - 4. 19 – 207s.
7. Vseobshaya istoriya isskustv. M.1964. T - 5, -M.: 1965.
8. Istorija iskusstv zarubejno'x stran. -M., 1963, Tom –1. 43-51s.
9. Isskustvo stran i narodov mira, Kratkaya xudojestvennaya entsiklopediya. M., 1964. Tom - 2 48-53s.

10. Ilina «Istoriya Russkogo iskusstva», M. 1979 y.  
34-76s.
11. Kalmo'nskiy Yu. D. "Iskusstvo" M. 1957 y. 4-6.
12. Nesselshtraus "Istoriya zarubejnogo iskusstva".  
-M.,1982. 30 –69s.
13. Oydinov N. Tasiriy san'at tarixidan lavhalar. -T.: O'qituvchi. 1997.  
60-89-b.
14. Pugachenkova G. A., Rempel L. I. «Istoriya iskusstv  
Uzbekistana», Toshkent 1984 y. 7 – 14s.
15. Pruch I.E. Zapad. Evropeyskoe iskusstvo 17 v.-M.1974.  
(Malaya istoriya iskustv) 342s.
16. Pugachenkova G.A., L. N. Rempel «Istoriya iskusstv Uzbekistana» M.:  
Iskustvo. 1965.
17. Rotenberg E.I. Zap. Evropeyskoe iskustvo 17 v. –M.: Mir. 1871.
18. Tyajelov V. N., Sopodinskiy O. I. «Iskusstvo srednix vekov»-M.:  
Iskusstvo.1953.
19. Yuon K. F. «Iskusstvo» –M.: Izdatelstvo. 1957. 3 – 9s.
20. O'zbekiston entsiklopediyasi. Tom –7. T.: Fan. 1976.
21. Nesselshtraus. "Istoriya zarubejnogo iskusstva". M.: 1982. 30 –69s.

### **Qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati.**

22. Dmitrieva I. «Kratkoe istoriya iskusstva». Ocherki. -M.: Vo'p. 1. 97-101s.
23. Maxmudov M. I. Maktabda muammoli ta'limni tashkil qilish. –T.: O'qituvchi. 1981.
24. Mavlonova R. va boshqalar. Pedagogika. –T.: O'qituvchi. 2001.
25. Babanskiy N.K. Hozirgi zamon umumiy ta'lim maktablarida o'qitish metodlari. -T.: O'qituvchi.1990.

### **Internet materiallari**

1. btt P:|| WWW. Jeterat.uz. Turli fanlardan referatlar to'plamiga boy sahifa.
2. htt P:|| dialup. trenet. Uz. Internet foydalanuvchilar uchun informatsion sahifa.  
<http://W.W.W games |yahoo| com>. Kompyuter o'ynlari sahifasi.
3. <http://G' iart.eztan.com G'>. Luvr muzeyiga sayyoxat.
4. <http://G'G' WWW. Asia-art.uz>. Osiyo rassomlari.
5. [WWW. iet. mesi. ru](http://WWW. iet. mesi. ru)

## MUNDARIJA

### I-qism

So'z boshi .....	5
San'at tarixiga mukaddima. Tasviriy san'atning	
tur va janrlari .....	6
Ibtidoiy jamoa davri san'ati.....	18
Qadimgi Sharqdagi quldorlik davlatlari.....	22
Qadimgi Misr san'ati .....	25
Old Osiyo san'ati .....	28
Qadimgi Eron va O'rta Osiyo san'ati .....	32
Qadimgi Hindiston va Xitoy san'ati .....	38
Qadimgi Gretsiya san'ati .....	42
Qadimgi Italiya san'ti .....	47
O'rta asrlar san'ati.....	50
Uyg'onish davri san'ati.....	57

### II-qism

XVII – XVIII asrlarda Evropa san'ati.....	60
XVIII asr oxiri XIX asr boshlaridagi chet el san'ti .....	62
XIX asrning I yarmida Rus san'ati.....	66
XIX asrning oxiri XX asrning boshlaridagi Rus san'ati.....	69
XX asr sobiq sovet davridagi san'at.....	71
XIX-XX asr chet el san'ati.....	74
XX asr boshlaridagi O'zbekiston san'ati.....	76
Mustaqillik yillarda O'zbekiston san'ti.....	79
Mavzular yuzasidan yakuniy xulosalar.....	82
Glossariy.....	85
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	107
Ilova.....	110

